

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAMADOVA SARVINOZ SAMAD QIZI

**MILLIY G`OYA, MA'NAVIYATNING
PEDAGOGIK ASOSLARI**

(o'quv qo'llanma)

5111600 – Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq
ta’limi bakalavriat yo‘nalishi
talabalari uchun

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

UO'K 316.75(575.1)

323(575.1)

66.2(5O')

S 28

Samadova, Sarvinoz Samad qizi

Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari [Matn] : o’quv qo’llanma /
S.S. Samadova.-Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona,2022.-172 b.

KBK 66.2(5O')

Bugungi kunda bo`lajak mutaxassislar oldiga qo`yiladigan yangi ma`naviy tafakkurni shakllantirish vazifasi bugungi “Milliy g`oya, ma`naviyatning pedagogik asoslari” fanining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Bu o`quv qo’llanma bakalavr ta`limy o`nalishiga mo`ljallangan bo`lib, unda milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari, ushbu fanlarni o`qitishda turli vositalardan foydalanish, o`quv jarayonida shaxs xususiyatlarini hisobga olish, milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishning nazariy-huquqiy va pedagogik asoslarini, ma`naviy tarbiyaning asosiy yo`nalishlarini, milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda yangicha yondashuvlar va innovatsiyalarini qo`llashni, milliy g`oya va ma`naviyatga doir fanlar orqali yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishni ilmiy jihatdan ochib berishga oid barcha masalalar keng yoritib berilgan.

O`quv qo’llanma 5111600 – “Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi” bakalavr ta`lim yo`nalishi uchun mo`ljallangan.

Taqrizchilar:

Axmedova Z.A., BDTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, f.f.n. dots.

Muzaffarov F.D., BuxDU “Milliy g`oya,ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi” kafedrasi mudiri f.f.f.d. (PhD).

O‘quv qo’llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyrug‘i bilan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro‘yxatga olish raqami 166-200.

ISBN 978-9943-8285-5-1

MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Kirish | 4 |
| 1-mavzu: “Milliy g`oya, ma`naviyatning pedagogik asoslari” fanining maqsad va vazifalari. | 6 |
| 2-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishning nazariy- huquqiy va pedagogik asoslari | 12 |
| 3-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishning o`ziga xos xususiyatlari. | 20 |
| 4-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviy tarbiyaning asosiy yo`nalishlari. | 27 |
| 5-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyat asoslari fanlarini o`qitishda shaxs xususiyatlarini hisobga olish..... | 36 |
| 6-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishning turli metodlari | 43 |
| 7-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyat asoslari fanlarini o`qitishda pedagogik texnologiyalarni qo`llashda qo`yiladigan talablar..... | 56 |
| 8-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyat asoslari fanlarini o`qitishda turli vositalardan foydalanish. | 64 |
| 9-mavzu: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish..... | 80 |
| 10-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda xalq og`zaki ijodi namunalari, tarixiy bitiklar, allomalar merosi, badiiy adabiyotlardan foydalanish. | 95 |
| 11-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarda auditoriyadan tashqari ishlar, ularning turlari. | 113 |
| 12-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda yangicha yondashuvlar innovatsiyalar. | 123 |
| 13-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda ijtimoiy fanlardagi so`nggi yangiliklar va yutuqlardan foydalanish. | 135 |
| 14-mavzu: Yoshlarni milliy g`oya ruhida tarbiyalashning institutsional tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari. | 141 |
| 15-mavzu: Milliy g`oya va ma`naviyatga doir fanlar orqali yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish..... | 151 |
| Glossariy | 160 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati..... | 167 |

KIRISH

Mamlakatimizda ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg`usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyat rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo`lgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalash, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma`naviy-ma`daniy merosni o`rganish va ulardagi ilg`or g`oyalar va qarashlardan hozirgi zamon yoshlari ta`lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo`llari dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Chunki, yoshlari ma`rifati va madaniyatini yuksaltirishda, ma`naviy komillikka erishishida Milliy g`oya, ma`naviyatning pedagogik asoslari fanining ahamiyati beqiyosdir.

Bugun mamlakatimizdagi oliy o`quv yurtlarida mavjud milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq ta`limi yo`nalishida Milliy g`oya, ma`naviyatning pedagogik asoslari fanini o`qitilishi, ya`ni ushbu ixtisoslik egalari Milliy g`oya, ma`naviyatning pedagogik asoslaridan xabardor bo`lishini ta`minlash zaminida inson kamoloti masalalari muhim o`rin egallaydi.

Hozirgi kunda bo`lajak mutaxassislar oldiga qo`yiladigan yangi ma`naviy tafakkurni shakllantirish vazifasi bugungi Milliy g`oya, ma`naviyatning pedagogik asoslari fanining mohiyatini tashkil etadi.

Manaviy tarbiya ta`lim-tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlari ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarining mustahkamlanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob manaviy boyliklardan bahramand bo`lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, bag`rikenglik, vijdon, iyomon-e'tiqod, or-nomus, mardlik, jasorat, mehr-oqibatlilik, fidoiylik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarni tarbiyalash ta`lim tizimida

ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Oldimizda turgan maqsadlarni amalga oshirishda, ma`naviy tarbiyani homiladorlik davridan boshlab voyaga yetgunga qadar davom etadigan uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini hayotga tadbiq etishda, yoshlar tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg`or yutuqlaridan samarali foydalanish, ma`naviy tarbiyaning uzluksizlik tamoyillariga amal qilishda Milliy g`oya, manaviyatning pedagogik asoslari fani ahamiyatlidir.

1-MAVZU: “MILLIY G’OYA, MA’NAVIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI” FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Reja:

1. Mustaqillik sharoitida milliy g’oya va ma’naviyatga doir fanlarning ta’lim tizimiga joriy etilishi.
2. “Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan milliy g’oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar.
3. “Milliy g’oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari” fanining maqsad va vazifalari.

Mustaqillik sharoitida milliy g’oya va ma’naviyatga doir fanlarning ta’lim tizimiga joriy etilishi.

Huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatiga dunyodagi ko‘pdan-ko‘p davlatlar necha asrlar davomida to‘plangan tajriba va demokratik an’analarni rivojlantirib yetib kelgan. Biz bunday jamiyatni qurishga, barpo etishga intilmoqdamiz. Lekin bu maqsadga erishish uchun tinimsiz intilish, jamiyat hayotining barcha sohalarini takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o‘rganib, o‘z zaminimizga tadbiq etishimiz lozim. Shu bilan birga milliy o‘ziga xosligimizni, asrlar sinovidan o‘tgan an’analarimizni, hamisha iymon-e’tiqod bilan yashash kabi hayotiy tamoyillarimizni ham saqlab, yuksaltirib borishimiz zarur.

Shu o‘rinda g’oya va mafkura nima degan savolga javob berib o‘tish kerak.

G’oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo‘lgan, ruhiyatga ta’sir o‘tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari etaklaydigan kuchli, teran fikr.

Inson ongingin mahsuli sifatida g’oyalar tushuncha va fikrlar yordamida ifoda etiladi. Ammo har qanday fikr va qarash ham g’oya bo‘la olmaydi. G`oyalar garchi tafakkurda paydo bo‘lsada, inson va jamiyat ruhiyatiga, hatto, g‘ayri shuuriy qatlamlarga ham singib boradi.

G‘oyalarning oddiy fikrlardan farqi yana shundaki, ular garchi tafakkurda paydo bo‘lsada, inson ruhiyatiga, hatto tub qatlamlariga ham singib boradi. G‘oya shunday quvvatga egaki, u odamning ichki

dunyosigacha kirib borib, uni xarakatga keltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi ruhiy – aqliy kuchga aylanadi.

G‘oyaning eng muhim xususiyati – insonni va jamiyatni maqsad sari etaklaydigan, ularni harakatga keltiradigan, safarbar etadigan kuch ekanidadir.

Har qanday g‘oya ijtimoiy harakterga ega. Muayyan g‘oyalar odatda alohida olingan shaxs ongida shakllanadi. Ma’lum bir muddatdan keyin esa jamiyatning turli qatlamlariga tarqaladi, turli elatlar va millatlar orasida yoyiladi.

Mafkura esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujassam etadigan g‘oyalar tizimidir.

Mafkura tushunchasini ta’riflashda falsafiy adabiyotlar va lug‘atlarda bir qancha fikrlar beriladi. Mafkura tushunchasiga turli davrlarda faylasuf olimlar tomonidan berilgan ta’riflar shakl va mazmun jihatidan har xil. Mafkuraga jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g‘oyalar majmuidir, - deb ta’rif beriladi.

Har qanday nazariya yoki ta’limot bir tizimga solingan g‘oyalar majmuidan iborat bo‘ladi. Shu sababli dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch e’tiqodning asosini ham g‘oyalar tashkil etadi. Xalqimizning eng oliy maqsadlarini, ularning orzu-istikclarini aks ettirishda, ularga erishish yo‘lida jamiyat a’zolarini birlashtiradigan, ularni kuch-g‘ayratlarini ana shu maqsadlarini safarbar etishda milliy g‘oyaning va milliy mafkuraning o‘rni benihoya kattadir. Zero, milliy g‘oya deganda, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu – intilish va umid – maqsadlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun – mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz¹.

Mafkuraning hayotiyligi odamlarning, millatning, jamiyatning milliy manfaatini, orzu-intilishlarini qay darajada aks ettira oladigan bosh va asosiy g‘oyalar, bu g‘oyalar ularning turmush tarzi,

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch”. T.: “Ma`naviyat”, 2008yil. – 71-bet.

dunyoqarashi, tabiatiga qanchalik mos bo‘lishi bilan belgilanadi. Hayot sinovlariga bardosh beradigan, odamlarning ezgu maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, ularga ma’naviy-ruhiy quvvat beradigan mafkurani ko‘pchilik qabul qiladi. Faqat shunday holdagina u kuchli ruhiy qudratga ega bo‘ladi. Shu sababli ham mafkura barcha davrlarda jamiyatni yuksak va bunyodkor maqsadlar yo‘lida birlashtirib, jamiyat ahli o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni shakllantirgan, hamda ezgu orzular, maqsad-muddaolariga erishishda ma’naviy-ruhiy kuch-qudrat beradigan omil vazifasini bajarib kelgan. Shuning uchun ham g‘oya va mafkura barcha insonlar, xalqlar, jamiyat va davlat oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishda yordam beradigan, turli sohada faoliyat yuritadigan jamiyat ahlini birlashtirib, ularni umumiy maqsad sari safarbar etadigan buyuk kuchdir.

Milliy g‘oyasiz va yuksak ma’naviyatsiz odamlar, jamiyat va davlat yo‘lini yo‘qotadi. Milliy g‘oya jamiyatni yuksaltirish va ma’naviy yetuklikka erishish yo‘lidagi, jamiyat a’zolarini oliv maqsadlar sari yetaklab boruvchi bayroq misolidir. Milliy g‘oya xalqni, millatni birlashtiradi. Jamiyatning har bir a’zosini ma’naviy kamolotga erishishini ta’minlab beradi. Milliy g‘oya ma’naviy hayotni yuksaltirish yo‘lidagi oljanob vazifalarni bajarish bilan birga jamiyatning har bir a’zosida ertangi farovon hayotimizga ishonchni shakllantirib beradi. Yuksak ma’naviyatni shakllantirish yo‘lida, mamlakatimiz kuch-qudratini oshirish yo‘lida xizmat qiladigan milliy g‘oya haqida gapirib Islom Karimov shunday deydilar: “... u Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak”¹.

Milliy g‘oya ma’naviy hayotni yuksaltirishga xizmat qiladigan fazilatlarni shakllantirib berish bilan birga turli ijtimoiy guruhlar, tabaqalar o‘rtasidagi hamkorlikni, millatlararo totuvlikni va umumtaraqqiyot yo‘lidagi jipslashuvni ta’minlab beradi. Milliy g‘oya O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidan, e’tiqodidan, jinsidan qat’iy nazar barcha O‘zbekistonliklarning

¹Karimov.I.A.“Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. 7-tom, T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999 yil.

manfaatlarini ifodalay bilishi kerak. Milliy g‘oya har bir shaxsning o‘zligini erkin namoyon etishga, ma’naviy kamolotga erishish yo‘lida shart-sharoit bo‘lib xizmat qilishi lozim.

**“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan milliy g‘oya va
ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar.**

Milliy g‘oya va ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlar ma’naviy hayotni yuksalishiga to‘sinq bo‘luvchi turli illatlarning oldini olishda katta ahamiyatga egadir. Milliy g‘oyaning jamiyat hayotini yuksaltirishga xizmat qiladigan barkamol avlodni tarbiyalab berishdagi o‘rni ham benihoya kattadir. Shuning uchun ham milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri komil insonni tarbiyalashdir.

Bugungi kunda jamiyat a’zolarini ayniqsa O‘zbekistonning kelajagi bo‘lgan yoshlarni ongi va qalbini zaharlashga intilayotgan, jamiyatimizning ma’naviy hayotini parokandalik holatiga tushirishga harakat qilayotgan ma’naviy tahdidlar mavjuddir. Mana shunday ma’naviy tahdidlarning oldini olishda milliy g‘oya katta rol o‘ynaydi. Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Milliy g‘oya va ma’naviyat faqatgina nazariy tafakkur natijasi emas, ular har bir shaxsning ma’naviy e’tiqodida, amaliy faoliyatida namoyon bo‘lishi bilan birga ma’naviy hayotni yuksaltiruvchi omil hamdir. Milliy g‘oya ta’limi milliy tarbiya an’analariga katta e’tibor bergen holda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirib, ulardagi vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg‘usini qadriyat darajasiga ko‘tarib beradi.

Milliy g`oya, ma’naviyat turkumiga kiruvchi fanlarda milliy ong, milliy o‘zlikni anglash va milliy mentalitet yetakchi o‘rin egallaydi. Milliy ong bo‘lmasa, u rivojlanmasa, millat o‘zligini anglamasa, u kim, qayerdan kelib chiqqan, ildizlari nimalar bilan bog`liqligi kabi tuyg`ularga ega bo‘lmasa va nimalarga qodirligini bilishga intilmasa, milliy g`oya ham sayozlashib boraveradi. Millat o‘zining turmush va hayot kechirish jarayonida o‘z millatiga xos bo‘lgan udumlar, urfatotlar, an`analar va qadriyatlarni o‘zlashtirishga intilsa hamda unga amal qilsagina milliy g`oyalar uyg`onib, rivojlanib, takomillashib

boraveradi. Chunki, milliy ong va milliy o'zlikni anglash milliy g`oyaga turtki beradi, uni shakllantiradi va milliy taraqqiyotga ruhiyat bag`ishlab uni harakatga keltiradi. Shuning bilan birga milliy ong va o'zlikni anglashning rivojlanishi milliy g`oya imkoniyatlarini kengaytirib turadi.

Milliy g`oyaning ta`sir doirasi nihoyatda keng bo'lib, u millatning o'ziga xosligini saqlab turish, millat manfaatlari yo'lida millat vakillarini birlashtirish, uyushtirish va taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash kabilarga o'zining ta'sirini o'tkazadi.

Milliy g`oya milliy o'ziga xoslikni saqlab turish va milliy manfaatlarni amalga oshirish, milliy istiqbolni belgilash uchun muhim ahamiyatga egadir. Chunki u, millat vakili bo'lgan har bir shaxsning dunyoqarashi, kundalik faoliyatida o'z ifodasini topadi. Millat vakillarining aksariyat ko'pchilik qismini milliy g`oyasi mustahkam bo'lgan insonlar tashkil qilgan sharoitdagina milliy manfaatlar uchun umummilliylar harakat vujudga keladi. Xuddi mana shu umummilliylar harakatni vujudga keltirish-milliy g`oyaning muhim vazifalaridan biri;

ikkinchidan, uning millat vakillarida vatanparvarlik, ona zaminning muqaddasligi tuyg`usini uyg`otish, uni ko'z qorachig`iday himoya qilish kerakligini tushunib etishga ta`sirini o'tkazish; milliy g`oya har bir millat vakilida uning avlod-ajdodlari ana shu zaminda dunyoga kelgan, uning huzur-halovatidan bahramand bo'lgan, undan ilhom, zavq-shavq olgan va qo'nim topganligidan xabar berib turadi. Bu o'z navbatida o'z ona zaminiga mehr-muhabbatini mustahkamlaydi;

uchinchidan, milliy g`oya tarixiy xotirani mustahkamlaydi va uning takrorlanmas imkoniyatlaridan manba sifatida ilhom olib turadi. Biz umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi va umumbashariyatni birlashtiruvchanligi haqida gapirmaylik, baribir uning ildizlari, zaminlari millatning tarixiy xotirasi, merosi va asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari bilan bog`liq ekanligini nazarda tutishimiz lozim bo'ladi. Xuddi mana shu jarayonda milliy g`oyaning o'rni, salohiyati, imkoniyati va yuksakligi namoyon bo'lib turadi.

“Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” bakalavriat yo'nalishining tashkil etilishidan ko'zlangan maqsad ham yoshlarni ana shunday ezgu g'oyalalar bilan tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Ushbu yo'nalishda “Umumiyligining psixologiya”, “Umumiyligining pedagogika”, “Milliy g`oya, ma'naviyatning pedagogik asoslari” fani bilan bir

qatorda, “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi”, “Etnomadaniyat”, “Globallashuv asoslari”, “Geosiyosat asoslari”, “Ma’naviyatshunoslik”, “Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari”, “Dunyo dinlari tarixi”, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi”, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi fanlarini o‘qitish metodikasi”, “Ijtimoiy falsafa”, “Davlat va huquq tarixi va nazariyasi”, “Huquq sohalari”, “Jahon siyosiy ta’limotlar tarixi”, “Ekstremizm, tarixi va mohiyati”, “Umumta’lim fanlarini kasbga yo‘naltirib o‘qitish metodikasi”, “Huquqiy tarbiya nazariyasi va amaliyoti”, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi fanlarini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar”, “Hayot faoliyati va xavfsizligi” kabi umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o‘qitiladi.

“Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari” fanining maqsad va vazifalari.

Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari fanining o‘qitilishidan ko‘zlangan maqsad va vazifalar qamrovi juda keng. Jumladan:

- talabalar qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, ma’naviy tajovuzlarga qarshi tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash;

- xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviyati va milliy qadriyatları, diniy qarashları va hayotiy udumlariga, yoshlarimizni zaharlab, ma’naviy jihatdan qaram etishga qaratilgan mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borishga talabalarni yo‘naltirish;

- xalqaro maydonda mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab tahlikali davrda talaba yoshlarni turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish, ularning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish;

Shuningdek, g`oyaviy-mafkuraviy ishlarga sistemali yondoshish, birinchidan, shu sohadagi muammolarni ilmiy tahlil qilishning zaruriy sharti bo‘lsa, ikkinchidan, bu - milliy mafkuraning nazariy-metodologik xarakteriga mos keladi. Boshqacha aytganda, milliy mafkuraning o‘zi, jamiyatimiz taraqqiyoti va manfaatlarini ifoda qiluvchi yaxlit sistemalashgan g`oyalar, nazariyalar tizimidan iborat bo‘lib, uni ro‘yobga chiqarish bilan bog`liq amaliy ishlar ham shunga muvofiq bo‘lishi lozim.

Tayanch tushuncha va iboralar: G‘oya, milliy g‘oya, milliy g‘oya ta`limi, milliy g‘oya ta`limining yuzaga kelishi, milliy g‘oya ta`limining mazmuni, milliy g‘oya ta`lim tizimi, milliy g‘oya ta`limining nazariy-huquqiy asoslari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. G‘oya deganda nimani tushunasiz?
2. Inson hayotida g‘oyaning qanday ahamiyati bor?
3. Jamiat hayotida g‘oya qanday ahamiyat kasb etadi?
4. Milliy g‘oyani siz qanday izohlaysiz?
5. Milliy g‘oya ta`limi tushunchasini izohlab bering.
6. Milliy g‘oya ta`limi tizimi qanday tushunchalarni o‘z ichiga oladi?
7. Milliy g‘oya ta`limining huquqiy - nazariy asoslarini sanab o‘ting.

2-MAVZU: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYATGA OID FANLARNI O‘QITISHNING NAZARIY- HUQUQIY VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Reja:

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta`limining mohiyati, mazmuni va tizimi.
2. Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishning tarixiy, nazariy, huquqiy va pedagogik asoslari.
3. Mustaqillik sharoitida mamlakatimiz ta`lim tizimidagi islohotlar.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta`limining mohiyati, mazmuni va tizimi.

Insoniyat tarixi ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma’naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmasligini yaqqol tasdiqlaydi.

Yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo‘lsa, har birining o‘z ma’naviy olami bor. Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak. Shuning uchun ham o‘zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday odam bu haqda o‘ylamasdan yashashini tasavvur qilish qiyin. Aslida “Ma’naviyat”

arabcha so‘z bo‘lib “ma’no” fe’lidan olingan: ruh, aql, ong, idrok, ruhiy holat, ichki kayfiyat, dadillik, jasorat, xususiyat, mohiyat, g‘amxo‘rlik, qayg‘urish didi kabi bir necha ma’nolarni anglatadi.

“Vatan tuyg‘usi” kitobining mualliflari “Ma’naviyat - jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha”¹, - deb ta’riflaganlar.

Bundan tashqari bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma’ruzalarida “ma’naviyat - insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobjiy ta’sir qiluvchi tizim yoki ma’naviyat - insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig`indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarining aks etish darajasidir”, deb ta’rif berib kelmoqdalar.

Abdurahim Erkayevning fikricha, “Ma’naviyat – insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to’g’rilik, sofkillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go’zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko’plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”.

Ma’naviyat muammosi bilan anchadan buyon shug’ullanib kelayotgan olimlarimizdan biri M. Imomnazarov mazkur masalaga bag’ishlab ikkita kitob chiqardi. Muallif birinchi kitobida “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur...”, - deb yozgan bo’lsa, ikkinchi kitobida “Ma’naviyat - inson qalbida, ko’ngil ko’zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so’fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo’yadi”², - deb yozadi.

Erkin Yusupov insonda mavjud bo’ladigan hamma xislatlar emas, balki ijobjilariga ma’naviyat bo’la olishini ko’rsatib: “Ma’naviyat - inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog`langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobjiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir”, - deb ta’riflaydi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatga shunday ta’rif beriladi: “Ma’naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga

¹ Ibrohimov A., Sultonov X., Jo`rayev N. Vatan tuyg‘usi.-T.: O`zbekiston, 1996, 111-bet.

² Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari : O’quv qo’llanma. –T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 6-b.

chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”¹.

“Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida “Milliy g‘oya, ma’naviyatning pedagogik asoslari” fanining o‘qitilishi quyidagi zaruriyat va omillar bilan belgilanadi:

birinchidan, ma’naviyat - inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma’lum yo‘nalishining bosh omili. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o‘zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviyat boyib borsa, jamiyat ravnaq etib boradi va aksincha, ma’naviyat qashshoqlashsa, jamiyat bora-bora tanazzulga yuz tutadi. Mustaqillik yillarida ma’naviyat asoslari ta’limi joriy etilishining boisi ham ana shunda;

ikkinchidan, mustaqillik jamiyatning barcha jabhalarida ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – huquqiy, ma’naviy – ma’rifiy sohalarda jahon tajribasi va milliy o‘zlikni anglash asosida chuqur islohotlarni amalga oshirishni tabiiy ravishda kun tartibiga qo‘ydi. Bu eski ijtimoiy tizimdan yangisiga o‘tish demakdir. U esa yengil kechmaydi. Yoshlar bu jarayonning mohiyatini to‘g‘ri anglamog‘i, ijtimoiy faol bo‘lmog‘i uchun umuman tariximizni xususan ma’naviyat, madaniyat tarixini o‘rganmog‘i, bilmog‘i lozim;

uchinchidan, mustaqillik biz uchun jahonga darvoza ochdi. O‘zbekiston jahonni taniy boshlaganidek, jahon O‘zbekistonni taniy boshladи. Ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma’naviy aloqalar kengaydi. Yoshlarimiz xorijiy mamlakatlarda tahsil olmoqda, o‘zga xalqlar madaniyati, udumi, an’analari bilan tanishmoqda. Bunday sharoitda o‘z madaniy – ma’rifiy merosini yaxshi bilmaslik kechirilmas hol. Ular jahonni hayratga solgan ajdodlar merosini nafaqat bilishi, unga munosib voris bo‘lmoqlari lozim;

to‘rtinchidan, milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, g‘oyaviy bo‘shliqqa yo‘l qo‘ymaslik, yoshlarni millat va istiqlol manfaatlariga zid g‘oyalar, qarashlar ta’siriga tushib qolishini oldini olish vazifasi milliy ozodlik g‘oyalarini, buyuk mutafakkirlarimizning merosi va asarlarini

¹ Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma`naviyat, 2008, 19-b.

atroflicha bilishni talab etadi. “Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish kerak”¹.

Xo‘sish ma’naviyat asoslari ta’limi o‘zi nima? Bu avvalo:

- ma’naviyatni o‘quvchi-talaba-yoshlar - fuqarolarga o‘rgatish;
- mamlakatimizning barcha ta’lim muassasalarida bilim olayotgan yosh avlodni faqat kasb-kori nuqtai nazaridangina emas, balki ularning dunyoqarashi, ma’naviyati, tafakkuri, siyosiy yetukligi, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy faoliyati jihatlarini hisobga olgan holda tarbiyalash;
- ma’naviy-ma’rifiy-axloqiy jihatdan yetuk insonlar tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirishdir.

Ma’naviyat asoslari ta’limining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi meyoriy-huquqiy asoslar bilan bevosita bog‘liq:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida», 2017 yil 5 iyuldaggi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2017 yil 28 iyuldaggi PQ-3160-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida», 2021 yil 26 martdaggi PQ-5040-son «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 sentyabrdagi 736-son «Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda 2020 yil 23-sentabrdagi O‘RQ-657-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va boshqalar.

Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o`qitishning tarixiy, nazariy, huquqiy va pedagogik asoslari.

Milliy g‘oya va ma’naviyatning tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Aslida ma’naviyat ta’limi mustaqillikdan so‘ng joriy etilayotgan bo‘lsada, insonlarning bilimi, ma’rifati va ma’naviyatini yuksaltirish masalasi kishilik jamiyati paydo

¹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni –millat qilishga xizmat etsin, T., 1998 y 10- bet

bo‘lganidan beri davom etmoqda yoki dastlab og‘zaki tarzda, so‘ng yozuv paydo bo‘lganidan boshlab esa turli manbalar asosida avloddan – avlodga o‘tib kelmoqda.

Dastlabki yozma manbalarda, jumladan, “Avesto”da “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” zardushtiylik axloqining asosiy qoidasi bo‘lsa, “Qur’oni Karim” va Hadisda yuksak ma’naviyat va ma’rifat, bilimlilik inson uchun qanchalik zarurligi alohida o‘rin tutadi.

Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Imom al - Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, jadid ma’rifatparvalik harakati namoyandalari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Alvoniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi mutafakkir zotlarning asarlarida ma’naviyat, ma’rifat masalalari, komil insonni tarbiyalash haqida ajoyib fikrlar mavjud.

Jadidlar o‘z davrida o‘qitish texnologiyasi, bolalarga mavjud bilimlarni qanday yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Xalq pedagogikasiga suyangan ilg‘or ziyolilar milliy an’ana va urf odatlarimizga mos keluvchi yangi usuldagagi jadid maktablari tashkil etish g‘oyasini ilgari suradilar. Ayni paytda ular bu maktablar rus tuzem maktablaridan farq qilishi zarurligini ta’kidlaydilar. O‘quvchining fikrlashi, tafakkuri o‘z ona tili orqali amalga oshirilishi kerakligi, shuningdek, diniy aqidalar qatorida dunyoviy fanlar ham o‘qitilishi zarurligini uqtirishadi. Jumladan, Abdulla Avloniyning “Insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja beruvchi axloq tarbiyasidir. Biz esa avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, dedik, chunki dars oluvchi – beruvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdir. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o‘zları ilmlariga omil bo‘lib, shogirdlarga ham bergen darslarni amal ila chog`ishtirib o‘rgatmoqlari lozimdir»- degan fikrlari katta ahamiyatga ega.

O‘rta asr Sharq allomalari o‘z asarlarida inson faoliyatining ikki turi haqida fikr yuritadi. Bu – mehnat va bilish faoliyatidir. Ularning fikricha, “bilim – bu biluvchining qalbidagi bilinadigan timsoldir. Bilingki, fanni o‘qitish va o‘zlashtirishsiz bilim bo‘lmaydi. O‘qitish – bu qalbdan chiqadigan, qalb uchun dolzarb ichki bilishga asoslangan etiqod. Bilimlarni o‘zlashtirish – bu bilim shakllarini qalbdan idrok etishdir. Bilingki, qalb bilish predmetlari shakllarini uch tomonlama

qabul qiladi: birinchidan, his qilish orqali; ikkinchidan, dalillar orqali; uchinchidan, fikr yuritish va mushohada qilish orqali”.

Kaykovusning «Qobusnama» asarida bilimning foydasi haqida quyidagicha yoziladi: «Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aqldan boy bo‘lmoqqa say ko‘rguzgilki, mol bila boy bo‘lg‘ondan, aql bila boy bo‘lg‘on yahshiroqdir. Neydinkim, aql bila mol jam etsa bo‘lar, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilg‘il, aql bir moldirki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvda oqmas».

Milliy g‘oya, ma`naviyatga oid fanlarni o`qitilishda ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o’zlashtirish millatimizning o’z-o’zini anglashiga erishish, milliy g’urur iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash, mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishga, erishish, ta’lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog’lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog’lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish, milliy-ma’naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o’rnini tiklash va bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o’zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma’naviyati tizimi rivojiga hissa qo’shish, yoshlar ma’naviyatini milliy istiqlol g’oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarini milliy-ma’naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir, ma’naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi. Bugungi kunda milliy ma’naviyatimiz asoslarini ilmiy-nazariy o‘rganish zarurati katta ahamiyatga ega.

Mustaqillik sharoitida mamlakatimiz ta’lim tizimidagi islohotlar.

Milliy g‘oya milliy tarbiya an’analariga katta e’tibor bergen holda jamiyat a’zolarining ma’naviyatlarini yuksaltirib, ularda vatanparvarlik, milliy iftixor, millatparvar tuyg‘usini iymon va e’tiqod darajasiga ko‘tarib beradi.

U har bir millatning tili, milliy merosi, qadriyatlari va urf-odatlariga hurmat bilan qarash, ularning millat ijtimoiy-ma’naviy kamolotini muhim omili deb bilishni shakllantirish vazifalarini ham

bildiradi. Milliy g‘oya elim, yurtim deb kuyinib yashaydigan fidoyi insonlarni voyaga yetkazish omillaridan biri hamdir.

Milliy g‘oya har bir fuqaroni iymonli, insofli, halol, mehnatsevar, mehr-muruvvatli, rahm-shafqatli, adolatparvar, axloqli, odobli bo‘lishi, ma’naviy kamolotni hal qiluvchi omili deb biladi.

Milliy g‘oya millatni ulug‘lashni qadrlashni millat manfaati yo‘lida fidoiy bo‘lishni insoniylik burchi ekanligini har bir fuqaroni ongi va qalbiga singdirib boradi.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta’limi ma’naviy hayotni yuksaltirish yo‘lidagi o‘z vazifalarini bajarib borishi va uni yanada kuchaytirish tarixiy zaruriyatdir. U tizim sifatida quyidagilarni o‘z ichiga oladi: oila-mahalla, ta’lim tizimi va hk. 1996 yil 9 sentabrda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 1998 yil 24 iyulda Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 1999 yil 3 sentabrda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni chiqdi¹.

2001 yil 18 yanvarda 2001 yil 18 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘anievich Karimovning “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani boyicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi qabul qilindi.

Nihoyat, 2021 yil 26 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 5040-son Qarori qabul qilinib, unga ko‘ra ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog`lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta`lim tashkilotlari va mahallalarda ma`naviy tarbiyani uyg`unligini ta`minlash, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan

¹www.lex.uz

doimiy monitoring tizimini joriy qilish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalgalash, aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san’atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma’naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish, geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish¹ asosiy vazifalardan biri sifatida keltirilgan.

Aslida “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ham o‘z o‘rnida ma’naviy qadriyatlarni mezonidir. Shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma`naviy - axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta`lim – tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 14 avgustdagи ПҚ-3907-son Qarori, 2017 yil 28 iyuldagи “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko`tarish to‘g‘risida” ПҚ-3160-son Qarori, 2019 yil 3 may “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo`yicha qo`shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi ПҚ-4307-son Qarori ham milliy g‘oya va ma’naviyat rivojida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, mamlakatimizda milliy g‘oya va ma’naviy sohasida olib borilayotgan islohotlar ham bu borada alohida ahamiyatga ega.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ma’naviyat, ma’naviyat ta’limi nazariyasi, inson qalbidagi ilohiy nur; insonning ichki-botiniy dunyosi; insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratuvchi ijtimoiy hodisa; odamning ruhiy va aqliy olamining majmui; aqliy zakovot va ruhiy-ma’naviy salohiyat; olim bo‘lma - odam bo‘l; kuch bilim va tafakkurda, yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 5040-son Qarori. 2021 yil 26 mart. <https://lex.uz/docs/-5344692>.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ma’naviyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering?
2. Ma’naviyat ta’limining shakllanish jarayonini aytib bering.
3. Ma’naviyatning shaxs, millat, jamiyat hayotidagi o‘rni nimada?
4. Ma’naviyatning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
5. Ma’naviyat taraqqiyotining qanday asosiy qonunlarini bilasiz?

3-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYATGA OID FANLARNI O`QITISHNING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari oid fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Inson va jamiyat hayotida g`oya, mafkura, ma`naviyatning o`rni.
3. XXI asr – axborot va texnologiyalar asrida milliy g`oya va ma`naviyatga va bu sohadagi fanlarni o`qitishga ehtiyoj.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari oid fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Chunki, bu fanlar ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddaolari va orzu-intilishlarini, bir so‘z bilan aytganda, jamiyatimizning shakllanib kelayotgan milliy g‘oyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini fanning xususiyatlari nuqtai nazaridan chuqur va atroflicha o‘rgatadi. Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo, o‘sib-unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisol yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog‘bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo‘l bilan amalga oshirish lozim. Chunki “Xalqni buyuk kelajak va ulug‘vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun

doimo mas’uliyat sezib yashashiga chorlash, ajdodlarimizning beba ho merosi, milliy qadriyat va an’analaramizga munosib bo‘lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da’vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir”¹.

Mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etishda, bizga yet va begona mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g‘oyaviy bo‘shliq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik va nihoyat, yurting yuksak taraqqiyotini ta’minalash – milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Bu fanlarni o‘rganishni taqoza etadigan umumiyy va o‘ziga xos qonuniyatlar mavjud. Umumiyy qonuniyatlar turli xalqlar, mamlakatlar, jamiyatlar hayotida amal qiladigan umumiyy asosga ega bo‘lgan ichki zaruriy bog‘lanishlar bo‘lib, u jamiyat va mafkuralar (g‘oyalari) ning bir-birlari bilan uzviy bog‘liqligi qonunidir. Jamiyat mafkurasiz, maqsadsiz yashay olmaydi. Demak, birinchidan mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa, odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdaki mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin. Buni isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko‘plab misollar keltirish qiyin emas.¹ U jamiyat oldidagi maqsadlar, uni amalga oshirish vositalaridir. Qolaversa inson hayotida ma’naviy mezonlar ham muhim o‘rin tutadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “Ma’naviyat-insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-quvvatidir», degan edi. Binobarin, jamiyatning, insonlarning ma’naviy madaniyati qancha yuksak bo‘lsa Vatanimiz O‘zbekiston shuncha tez mustahkamlanib boradi, boshqa ijtimoiy muammolarni hal qilish osonlashadi.

Yaponiya qazilma boyliklari, yer-suvi bilan gullab yashayotgani yo‘q, u ma’rifati, aqli tarixi bilan XIX asrda ustivor bo‘lib turibdi. Ma’naviy qashshoq xalq hech qachon boy bo‘lmaydi. O‘z huquqini

¹ Karimov I.A. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” risolasidagi so‘z boshidan. T.9. -T.: «O‘zbekiston», 2001. – 222-b.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. -T.: «O‘zbekiston», 1999, 84-85 b.

bilmagan, o‘z qonunlari kuchini anglab yetmagan va tushunishni istamagan insonning shon-shavkati tuproq bilan tengdir.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov 1997 yil 29 avgustida Oliy Majlisining 9-sessiyasida “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori” nutqida “Har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan balki birinchi navbatda o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir” degan edilar. Shu bois mamlakatimizning istiqlol yo‘lidagi birinchi qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatmizni tiklash va yanada yuksaltirish milliy ta’lim – tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Bu ma’naviy mezonlar kecha yoki bugun o‘ylab topilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasi davomida yuzaga kelgan. Ma’naviyat insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan singib kelgan.

Inson va jamiyat hayotida g`oya, mafkura, ma`naviyatning o`rni.

Aslida ma’naviyat milliy urf-odatlar, tarbiya an’analari, axloq-odob aqidalari, qadriyatlar, din, e’tiqod, madaniy-ma’rifiy ijtimoiy-didaktik falsafiy pedagogik qarashlar ruhiy-psixologik jarayonlar va shu kabilar majmuasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ilgari surgan fikr va g‘oyalarning ilmiy tavsifi, nazariy-amaliy tadqiqot saboqlari natijasi o‘laroq ma’naviyatning quyidagi tarkibiy qismlari aniqlandi:

- ❖ Madaniy –ma’rifiy yuksaklik.
- ❖ Ijtimoiy –didaktik taraqqiyot
- ❖ Falsafiy-pedagogik o’sish
- ❖ Iymon-e’tiqodning butunligi
- ❖ Milliy axloq -odob meyorlariga to‘la rioya qilish
- ❖ Ilm –ma’rifatli bo‘lish
- ❖ Insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik.
- ❖ Milliy qadriyatlarga muhabbat
- ❖ Fidoyilik, mardlik jasurlik tashabbuskorlik
- ❖ Poklanish

- ❖ Islom diniga e’tiqod qilish
- ❖ Vatan va xalq mustaqilligini doimiy himoya qilish va unga xizmat qilish

❖ Ajdodlar va ularning merosiga chuqur hurmat va shu kabilar.

Shu o‘rinda qadriyat tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz. Qadriyat – tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan ular uchun foydali ahamiyatli, moddiy – iqtisodiy, madaniy-ma’naviy mafkuraviy, siyosiy huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig‘indisidir. U qadr qimmat degan ma’noni anglatadi¹.

Ma’naviy qadriyatlarning tarkibiy asoslari qo‘yidagilardan iborat:

1. Axloqiy qadriyatlar: axloqiy bilimlar malaka va ko‘nikmalar, axloq qoidalari yordamida o‘quvchining xulq-atvori, xatti- harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o‘quvchining ko‘p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi. Axloqiy madaniyat ko‘rinishlari, qirralari, shakllari xilma-xil:

- ❖ Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik;
- ❖ Erksevarlik, faollik, ijodkorlik haqiqatgo‘ylik, mas’uliyatlilik;
- ❖ Sahiylik, kamtarlik poklik va shu kabilar

Axloqiy qadriyatda axloqiy odat, ahloqiy bilim, axloqiy ishonch muhim o‘rin tutadi.

2. Badiiy qadriyatlar:

-xalq og‘zaki ijodi (asotir, afsona, rivoyat, ertak, doston, maqol, matal, qo‘sish, latifa, lof, xalq dramasi, askiya,);

-xalq tasviriy va amaliy san’ati (xalq yaratgan badiiy estetik san’at namunalari, xalq teatri, xalq musiqiy san’ati);

-ijtimoiy tarixiy taraqqiyot jarayonida paydo bo‘lgan, rivojlangan, qadriyat darajasiga kutarilgan an’analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar amaliy faoliyatidagi ilg‘or tajribalar yig‘indisidan iborat.

xalq og‘zaki ijodining ma’naviy qadriyatlarini targ‘ib etishdagi ta’sir kuchi, unda xalqning o‘zligi, milliy xarakter xususiyatlarining ochib berilishi bilan xarakterlanadi va ularda xalqning g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy, aqliy, jismoniy madaniyati mazmuni, ma’naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari, ta’lim-tarbiya shakl, usul va vositalari o‘z ifodasini topgan.

¹ Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T.: “G‘afur G‘ulom”nashriyoti. 2013 yil. 409 bet.

3. Diniy qadriyatlar: Din siyosat emas, lekin ma'naviy hayotning tarkibiy qismidir. Mustaqilligimizning ma'naviy zaminini qaror toptirishda diniy e'tiqodlar ham ma'lum ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik kerak. Din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, madaniyatning namoyon bo'lish shaklidir. Diniy qadriyatlar ko'plab millatlar, elatlar, xalqlarga taalluqli bo'lgan, ularni g'oyaviy jihatdan birlashtirgan diniy talablar, g'oyalar, rivoyatlar, amaliy marosimlar, bayramlar majmuasidan iboratdir. Islom dini misolida ko`rib o'tadigan bo'lsak, yer yuzida 1 milliarddan ortiq kishining islom diniga e'tiqod qilishini, islom yer yuzidagi 120 davlatda tarqalganligini, 30 dan ortiq davlatda islom davlat dini deb e'lon qilinganligini va bu barcha kishilarning din asoslari (arkon iddin) deb hisoblangan Iymon, Islom va Ehson talablari asosidagi birligini kirishimiz mumkin. Iymon talablari 7 ta aqidani, Islom talablari 5 ta amaliy marosim talablarini, Ehson-sidqidildan aqidalarga ishonish va marosimlarni ado etishni tashkil qiladi.

4. Milliy qadriyatlar alohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari va millatlarning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, xalq amaliy san'ati, xalq o'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatlarga kiradi.

Bulardan boshqa qo'yidagi qadriyatlar haqida gapirish mumkin:

5. Tabiiy qadriyatlar (yer-suv, havo, yer osti va usti boyliklari).
6. Ijtimoiy qadriyatlar (oila, millat, sinf va hokazo).
7. Moddiy qadriyatlar
8. Ma'naviy qadriyatlar
9. Umuminsoniy qadriyatlar
10. Oilaviy qadriyatlar
11. Shaxsiy qadriyatlar

Bu qadriyatlarga hurmat albatta insonda ta'lim tarbiya orqali shakllantiriladi va bu boradagi bilimlar milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar orqali singdiriladi.

XXI asr – axborot va texnologiyalar asrida milliy g'oya va ma'naviyatga va bu sohadagi fanlarni o'qitishga ehtiyoj.

Inson mohiyati aqlida, aqlning mohiyati esa xarakterda namoyon bo‘ladi, degan edi buyuk mutafakirlardan biri. Demak, insonning insonligini ifoda etuvchi yagona mezon aql-idrok, ong va tafakkur darajasi bo‘lsa, ularning mohiyatini ochib beruvchi, miqyosi va ko‘lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti-harakati, hayotga va atrof muhitga munosabati, o‘z-o‘zini boshqarishdagi ichki qudratdir. Ana shu ichki qudratga tayangan xalq Sharqning diyonat, or-nomus, sharm-hayo kabi fazilatlarni asrlar mobaynida oliy qadriyat sifatida avaylab-asrab kelmoqda. Ularni milliy istiqlol g‘oyasi orqali yoshlar ongi va qalbiga singdirishning ahamiyati nechog‘li ekanligini anglash muhim. Bu har bir yoshga o‘ziga xos mas’uliyat yuklaydi hamda shularga o‘xshagan va shunga harakat qilayotgan yoshlarning yangi avlodи yetishib chiqishiga olib keladi.

XXI asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rasm bo‘lmoqda. Chunki asrimizda inson eshitayotgan, ko‘rayotgan barcha-barcha narsalar uning istaklarini, didini o‘zgartirishga, fikriga ta’sir qilishga yo‘naltirilgan. Hozirgi davrda inson ongi va qalbini egallash uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot mafkuraiyi ta’sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday sharoitda begona mafkuralarning qo‘poruvchi ta’siriga qarshi doimiy va uzlusiz aksiltarg‘ibotni tashkil etish muhim sanaladi. chunki bunday mafkuraiyi kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Yoshlarda mehnatga ishtiyoq uyg‘otish, tirishqoq va serg‘ayrat shaxsni tarbiyalash, shaxsni o‘zi ustida qunt bilan ishlashga o‘rgatish, unda o‘ziga ishonchni qaror toptirishdan ham manfaatdormiz. Shuningdek, milliy g‘ururi baland, mas’uliyat va burch hissiga ega, intizomli, demokratiyani hayot tarziga aylantirgan, kelajagi o‘z qo‘lida ekaniga ishongan mustaqil shaxsni tarbiyalashga ustuvorlik berish zarur. Inson mafkurani hayotdan uzilib qolgan, begona va mavhum narsa sifatida tushunmasligi kerak. Milliy g‘oyani oddiy va yurakka yaqin g‘oyalar orqali singdirish, ya’ni milliy g‘oyaning inson ongidan o‘rin olishi bilan qanoatlanmay, balki uning qalbiga jo qilish zarur. Bu sohada amalga oshiriladigan ishlar o‘zining samarasini berishi shubhasiz.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o‘qitilishini yanada takomillashtirish zarurligining

sabablaridan biri, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qat’iy nazar, uning real sub`yekt, ma’lum moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste’molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o‘zining mustaqil o‘rniga ega bo‘lishi kabi omillarni, ya’ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Ma’naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g`oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish zarurati shundaki:

Birinchidan: ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir;

Ikkinchidan: jamiyatni ma’naviy yangilashdan bosh maqsad – yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat.

Uchinchidan: ma’naviyatni rivojlantirish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga ega;

To‘rtinchidan: mustaqillikning uch tayanchi: mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma’naviyati bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘un rivoji ta’min etilsagina, O‘zbekiston buyuk yurt sifatida jahon hamjamiyatidan o‘z munosib o‘rnini egallay oladi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlar, ma’naviy-mafkuraviy ishlarni milliy taraqqiyot tamoyillari va manfaatlari asosida (g`oyaviy-nazariy darajada) sistemali tashkil qilish, madaniy–ma’rifiy yuksaklik, ijtimoiy –didaktik taraqqiyot, falsafiy-pedagogik o‘sish, iymone’tiqodning butunligi, milliy axloq -odob meyorlariga to‘la rioya qilish, ilm–ma’rifatli bo‘lish, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, milliy qadriyatlarga muhabbat, fidoyilik, mardlik, jasurlik tashabbuskorlik.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang...
2. Madaniy –ma’rifiy yuksaklik deganda nimani tushunasiz?

3. Insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik tushunchalarining mohiyatini izohlab bering...
4. Milliy qadriyatlarga muhabbat deganda nimani tushunasiz?
5. Fidoyilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik deganda-chi?
6. Vatan va xalq mustaqilligini doimiy himoya qilish va unga xizmat qilishni siz qanday tushunasiz?

4-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIY TARBIYANING ASOSIY YO`NALISHLARI.

Reja:

1. Milliy g‘oya va ma’naviy tarbiyaning uyg`unligi, ma`naviy tarbiyaning asosiy ustuvor yo`nalishlari.
2. Ma’naviy axloqiy g‘oyalar, ularning mazmun va mohiyati.
3. Ma`naviy tarbiyani kuchaytirishda oila, mahalla va ta`lim muassasalarining o`rni.

Milliy g‘oya va ma’naviy tarbiyaning uyg`unligi, ma`naviy tarbiyaning asosiy ustuvor yo`nalishlari.

Jamiyat taraqqiyotining har qanday bosqichlarida «inson sifati»ni, jamiyat xarakterini belgilaydigan g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Boshqa ijtimoiy munosabatlarning yo`nalishlari shu jarayonning xarakteriga mos kelgan. Shu jumladan, hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlarning intensivlashib, universallashib va globallashib borishi bilan, «inson sifatlari»ni (jamiyat mazmunini belgilovchi ma`naviy-madaniy omillar tizimida) o‘rganishda ideologiyaning ahamiyati o‘zgacha xarakter kasb etmoqda.

Shaxsning «mafkuraviy sifati», xususan g‘oyalar haqidagi nazariy bilimlarining ilmiylik darajalari jamiyatni barqaror rivojlantirishdan iborat kundalik amaliy vazifalarni bajara bilish malakalariga mos keladi. Lekin, shu bilan birgalikda, g‘oyaviy—mafkuraviy munosabatlarga doir yetarli nazariy bilimlarga, amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxs yoki ijtimoiy birliklarning «mafkuraviy sifatlari»ni yuqori, deb baholab bo‘lmaydi.

Jamiyat va shaxs mafkuraviy sifatlarini o‘rganadigan ideologiya paradigmalarining ilmiyligini, hayotiyligini belgilaydigan asosiy

mezonlardan biri — umuminsoniyat ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olgan holda, shaxsni o'zgartirish orqali jamiyatni o'zgartirishdir. Boshqacha aytganda, «mafkuraning hayotiyligi uning xalq, jamiyat turmushi va tafakkur tarziga nechog'li mos bo'lishi, eng muhimi, jamiyatning milliy manfaatlarini, orzu—intilishlarini qay darajada aks ettirishi bilan o'lchanadi. Faqt shunday mafkurgagina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymon-e'tiqodi sifatida qabul qiladi. Shundagina u eng zamonaviy quroldan ham ko'ra kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi».¹

Zero, O'zbekistonning milliy mafkurasi mamlakatimizning mana shu mintaqada, yon-atrofdagi davlatlar orasida va jahon miqyosida o'ziga munosib o'rinni, yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, o'zining ixtisosini to'g'ri va xolisona anglab, shu asosda izchil harakat qilishimiz uchun xizmat etishi zarur. Shu o'rinda milliy g'oya va ma'naviy tarbiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olish zarur. Ularni shartli ravishda quyidagi asosiy ustuvor yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. Ma'naviy –axloqiy yo'nalish – Milliy g'oya va ma'naviyat haqida ta'lim berish orqali yoshlarga axloqiy tarbiya ham berib boriladi. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab yetadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va meyorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri-qanday yashamoq kerak, ikkinchisi–nima qilmog'-u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir. Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ana shu vositalardan biri milliy g'oya ta'limini yanada takomillashtirishdir.

2.Ta'limiy, huquqiy-meyoriy yo'nalish – Milliy g'oya, ma'naviyat turkumiga kiruvchi fanlar orqali yosh avlodga insoniyat tarixi – g'oyalar tarixi ekanligi, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomidagi barcha yirik voqeа-hodisalarining tag-zamirida u yoki bu

¹ Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi –xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - T.:O'zbekiston, 2000. 8.T. –491-b.

g‘oya yotishi, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, xalq, davlat yoki jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad-muddaolarni, orzu-tilishlarini o‘zida mujassam etuvchi g‘oyalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladigan mafkura - istiqbolning yaratuvchisi ekanligi, bunyodkor va vayronkor g‘oyalarning mohiyati, farqi, milliy g‘oyaning mazmun va mohiyati, milliy g‘oya ta’limi shakllanishining meyoriy-huquqiy asoslari haqida nazariy ta’lim berib boriladi.

3.Madaniy-ma’rifiy va iqtisodiy-siyosiy yo‘nalish – Milliy g‘oya va ma’naviyat orqali yoshlarning madaniy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan keng qamrovli islohotlari, bu sohada ko‘zga tashlanayotgan muammolar haqidagi bilim va tasavvurlari doirasi kengayadi. Milliy g‘oya eng avvalo ma’rifiy yo‘l bilan fuqarolar, shu jumladan, yosh avlod ongi va shuuriga singdiriladi. Milliy g‘oya ta’limining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy-siyosiy hayoti bilan chambarchas bog‘liq ekanligi tahlil etiladi.

4.Milliy va umuminsoniy qadriyatlar yo‘nalishi – Ma’naviyat, qadriyatlar va milliy g‘oya – jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o‘zaro uzviy aloqadorlikda bo‘lgan sohalaridir. O‘zbekiston xalqining milliy g‘oyasi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayanadi. Bularning biri ikkinchisini inkor etmaydi.

Ma’naviy axloqiy g‘oyalar, ularning mazmun va mohiyati.

Ma`naviy-axloqiy g‘oyalar –milliy g‘oya ta’limining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aslida, axloq – ma`naviy hayot hodisasi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq – atvori, yurish – turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o‘zaro munosabat, shuningdek, jamiyatga bo`lgan qarashlarini tartibga solib turadigan barqaror, muayyan me`yorlar va qoidalar yig`indisi¹.

Axloq tuzilmasi uch omil – asosdan iborat bo‘lib, bular: axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy hatti-harakatlardir.

Insonning axloqiy hayoti, uning axloqiy tajribalari, axloqiy faoliyatları ana shu uch omil asosida shakllanadi. Axloqiy kodekslar, meyorlar va tamoyillar ana shu uch omil asosida ro‘yobga chiqadi va ularga asoslanadi.

Asosiy axloqiy qadriyatlar, mushtarak axloqiy tushunchalar, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar barcha mintaqalar hamda millatlar uchun

¹ Ma`naviyat asosiy tushunchalar izohli lug`ati. T.: “G`afur G`ulom”nashriyoti. 2013 yil. 26 bet.

bir xil ma’no kasb etadi. Chunonchi, muhabbat, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, vijdon, burch, insonparvarlik, odamiylik, baxt, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, saxiylik va baxillik singari fazilat hamda illatlar tom ma’noda umuminsoniy hodisadir.

Axloq bilan mafkura o‘zaro aloqadorlikda bo‘lib, jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir majmua muayyan g‘oyalar va qarashlar tizimidan iborat. Ma’naviy-axloqiy g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va ommalashtiradilar.

Milliy mafkuramiz yuksak axloqiylikka asoslangan. U axloqiy printsiplarga amal qilib, jamiyatimizda vatanparvarlik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bo‘lib, har bir fuqaroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi.

Ma’naviyat va axloq mushtarakligi jamiyat taraqqiyotining muhim jabhasini tashkil qilib, bu masala hozirda va o‘tmishda ham turkiy xalqlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Bu, avvalo, ming yillik boy tariximizga, qadimiy an’analarimizga, milliy va diniy qadriyatlarimizga sodiqligimizning ramzi sifatida baholanishi kerak.

Inson ijtimoiy hayotda yolg‘iz yashay olmaydi, u jamiyat bilan aloqadorliklikda yashashga majbur, u jamiyatning, insonlarning uni qo‘llab quvvatlashiga doimo ehtiyoj sezib boraveradi. Insonlararo munosabatlar esa ezgulik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi lozim.

Ezgulik g‘oyasi eng qadimiy dinlardan biri zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da ham o‘z ifodasini topgan. Unda yaxshilik bilan yomonlik, haq bilan haqsizlik, yorug‘lik bilan zulmat o‘rtasidagi kurash tasvirlanadi. Axura Mazda — yaxshilik hamda yomonlik – Axriman xudolari o‘rtasida qattiq kurash ketadi. Axura Mazda dunyodagi butun mavjudotlarni yaratgan, u bunyodkorlik kuchiga ega. Axriman esa Axura Mazda bunyod qilgan narsalarni yo‘q qilishga harakat qiladi. U vayronkorlik bilan mashg‘ul bo‘ladi. “Avesto”da yaxshilik yomonlik ustidan albatta g‘alaba qozonadi, degan g‘oya ilgari suriladi. Zardushtiylik uch asosiy axloqiy qoidaga tayanadi: “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal”¹. Mana shu uchta qoidaga rioya qilgan odam kamolotga yetgan hisoblanadi.

Muqaddas islom dinimizda ham ijtimoiy adolat, mehr-muruvvat masalalariga katta e’tibor beriladi. Xususan, Qur’oni karimning bir

¹ Avesto.Yasht kitobi. M.Is’hoqov tarjimasi. –Toshkent: Sharq, 2001. 8-b.

necha suralarida yetim, beva-bechora, miskin, g‘arib va muhtojlarga yaxshilik, xayr-ehson qilish ravo ko‘riladi. “Allohga ibodat qilingizlar va Unga hech narsani sherik qilmangizlar! Ota-onalarga esa yaxshilik qilingizlar! Shuningdek, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar, qarindosh qo‘sniyu begona qo‘sni, yoningizdagи hamrohingiz, yo‘lovchi (musofirga) va qo‘l ostingizdagи (qaram)larga ham (yaxshilik qiling)! Albatta, Alloh kibrli va maqtanchoq kishilarni sevmaydi”¹.

Ilk Uyg‘onish davrining buyuk faylasufi, “ikkinchi muallim” unvonini olgan mutafakkir Abu Nasr Forobiy asarlarining markazida inson masalasi turadi. Uning fozil jamoa, davlat va uning boshlig‘i faoliyati, fazilat, kamolot, baxt-saodat tushunchalari bevosita fuqarolik jamiyatni g‘oyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Forobiyning fikricha, inson turli axloqiy fazilatlar: sofkillik, xokisorlik, nafsni tiyish, o‘zgalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik, saxiylik va boshqalarni egallab komillikka erishgandan so‘ng baxt-saodatga sazovor bo‘ladi. “Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar – fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi – fazilatli jamoadir”², – deydi mutafakkir.

Forobiyning asarlari markazida insonning fikr-o‘ylari, orzu-umidlari turadi. Uningcha, inson zoti komil inson bo‘lishi uchun boshqalar bilan muloqotda bo‘lishi, ulardan yordam olishi, o‘zi ham boshqalarga yordam berishi kerak. Zero, yakka odam boshqalarning ko‘magisiz, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlashisiz biror natija chiqarishi qiyin. Shunday qilib, moddiy ehtiyoj kishilarning birlashuviga, jamiyatni paydo bo‘lishiga olib keldi. Mutafakkir kishilararo munosabatlarda insoniylikni boshqa axloqiy xislatlardan afzal ko‘radi. “Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang‘ich asos insoniylikdir, — degan edi Forobiy, — shuning uchun odamlar insoniyat turkumlariga kirganliklari uchun o‘zaro tinchlikda yashamoqlari lozim”³.

Buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino ham jamiyatda insonlararo munosabatlarni o‘rganar ekan, o‘zining hayotiy xulosalari sifatida “Donishnama”, “Ash-Shifo”, “Kitob an-Najot” singari asarlarida ijobjiy fazilatlarni egallah, muhtojlarga yaxshilik qilish g‘oyalarini

¹ Qur`oni Karim ma`nolarining tarjimasи. “Niso” surasi. – T.: TIU, 2001. — 84 6.

² Farobi. Fozil shahar aholilarining fikrlari. Risolalar. –T.: Fan, 1975. 137-b.

³ Farobi. Fozil shahar aholilarining fikrlari. Risolalar. –T.: Fan, 1975. 134-b.

ilgari suradi. Olim fikricha, har bir mavjud narsa o‘z mohiyatiga ko‘ra kamolotga intiladi. Mana shu kamolotga intilishning o‘zi mohiyatiga ko‘ra yaxshilikdir.

Ibn Sino “Ash-Shifo” asarida insonlararo munosabatlarga ta’rif berib, quyidagicha yozadi: “Do‘stlik insonning shunday bir holatidirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, bunda inson yaxshilikni o‘zi uchun istamaydi, balki o‘sha boshqa uchungina istaydi”.

Qodiriya tariqati asoschisi, mutasavvif Shayx Abdulqodir Jiyloniyning yaxshilik, oliyhimmatlik to‘g‘risidagi aytgan fikrlari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Mutasavvifning “Devoni G‘avsul A’zam”, “Maktuboti Jiyloniy”, “Tuhfatul qodiriya”, “Sirr-ul asror”, “Maktubot”, “Qasidai g‘avsiya” kabi asarlarida inson tarbiyasi, uning oliv darajaga erishuvi haqidagi fikrlari bayon qilingan. Alloma nazdida haqiqiy inson – faqirlik maqomidagi insondir. Buning mohiyati shundan iboratki, Jiyloniy faqirlik deganda kambag‘al va qashshoqni emas, balki boshqalardan mol-mulkini ayamaydigan, Alloh yo‘lida saxovatpesha va mehr-muruvvatli kishilarni tushunadi. Bu yerda mol-mulk va boylik egasi qoralanmaydi, balki mol-mulkka berilmaslik, unga ruju qo‘ymaslik nazarda tutiladi. Alloh bergen boylikni muhtojlarga sarflash lozimligi ma’ullanadi.

XIII asrda yashab, buyuk so‘fiy shoir, faylasuf sifatida shuhrat qozongan Jaloliddin Rumiyning ijodi va dunyoqarashida ham inson masalasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Uning asarlari, qarashlarida insonni komillik darajasiga ko‘targan botiniy ma’naviy ishq tarannum etiladi.

Mavlono Rumiyning fikricha, inson farishta va hayvon orasidagi vujud bo‘lsa-da, yuksaklikka moyil. U o‘qish, o‘rganish, o‘sish, ulg‘ayishdan charchamaydi, o‘zligidan kechib, Alloh sari, Haq sari intilaveradi. Rumiy insonlarga qarata:

Shafqatu marhamatda quyosh kabi bo‘l!
Boshqalarning aybini yashirishda tun kabi bo‘l!
Saxovat va jo‘mardlikda oqar suv kabi bo‘l!
Shiddat va g‘azabda o‘lik kabi bo‘l!
Tavoze’ va xokisorlikda tuproq kabi bo‘l! , – deydi.

Ya’ni, inson qay bir maqsadni oldiga qo‘ymasin, unda ulug‘vorlikka erishishi, shuningdek, ilmi-yu amali bir-biriga zid bo‘lmasligi kerak.

Buyuk shoir, mutafakkir alloma Alisher Navoiyning umuminsoniy mazmunga ega bo‘lgan gumanistik qarashlari islam falsafasidan oziqlangan.

Allomaning fikricha, inson uchun komillikdan nishona fazilatlardan biri ehson qilishdir. Navoiy ehsonga – Insoniyat bog‘ining eng go‘zal daraxti va odamiylik xazinasining eng bebafo gavhari, -deb baho beradi. Barcha yaxshiliklarning jami – ehsondir va barcha yaxshiliklar haqiqatan undandir,- deydi u.

Navoiy saxovatni oljanoblikning belgisi, deb ta’riflaydi. Saxovatpesha insonga quyoshni ibrat qiladi. Ya’ni, himmat va saxovatni hayot dasturiga aylantirgan inson quyoshdan namuna olishi va uning yo‘lini davom ettirishi lozim.

Umuman olganda, yaxshilik, oliyhimmatlik, saxovatpeshalik, o‘zgalarga mehr-muruvvatli bo‘lish singari ezgu g‘oyalar mutafakkirlarimiz, mutasavviflarimiz asarlari, pand nasihatlarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ma’naviy merosimiz durdona asarlari, buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimizning tajribalari fuqarolik jamiyati a’zolarini tarbiyalaydigan yuksak qadriyatga aylanishi kerak. Chunki faqat shu yo‘l bilangina yangi avlodga mansub ijodiy ziylilarni shakllantirishga erishish mumkin.

Ma’naviy tarbiyani kuchaytirishda oila, mahalla va ta`lim muassasalarining o`rni.

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyat-insonning ulg‘ayishi va kuch qudrat manbai ekanligi, shu sababligi, ma’naviyatni to‘g‘ri anglash zarurligi, uni shakllantiradigan asosiy mezonlar mavjudligi, ma’naviy va moddiy hayotining uyg‘un bo‘lishi hamda ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi haqida ajoyib nazariy va amaliy fikrlar mavjud.

Aslida ta’lim va tarbiya uyg‘unligi tamoyilining o‘zi milliy g‘oya tamoyillari bilan nihoyatda uyg‘un.

Milliy g‘oyamizning umumiyl tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tarixiylik,
- zamonaviylik
- umumbashariylik
- mintaqaviylik
- milliylik
- ilmiylik, ya’ni dunyoviy bilimlar va qarashlarga asoslanganligi.

Milliy g‘oyaning umumiy tamoyillaridan biri bo‘lgan tarixiylik tamoyili ijtimoiy voqealar rivojining davomiyligini, tarix va bugun o‘rtasida uzilish bo‘lib qolmasligini e’tirof etadi. Zamonaviylik tamoyili esa uning davr ruhiga mos bo‘lishi, o‘zgarishlar jarayonining asosiy yo‘nalishlari va davr yangiliklarini o‘zida aks ettirish xususiyatiga asoslanadi. Umumbashariylik tamoyili dunyo davlatlarining hamkorligi, barcha xalqlar, millat va elatlarga xos rang-baranglikning uyg‘unligi kabi omillarga asoslanadi. Umumbashariylik mamlakatlarning o‘zaro tengligi, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik, xalqlarning o‘z huquqini o‘zi belgilash kabi tamoyillarga asoslanadi. Mintaqaviylik tamoyili muayyan hududni tarixiy makon tutgan bir necha millat va xalqlarning mushtarak va o‘xshash etnik hududiy xususiyatlari, urf-odatlari va mentalitetiga asoslanadi. Milliylik tamoyili xalqimizning milliy etnik qadriyatları, ma’naviy merosi va buyuk ajdodlarimiz yaratgan asarlar «Avesto», «Temur tuzuklari», «Zafarnoma» (Sharofiddin Ali Yazdiy), «Xamsa» (Alisher Navoiy), «Boburnoma» (Zahiriddin Muhammad Bobur) kabi ma’naviy, siyosiy, mafkuraviy qadriyatlarda o‘z aksini topadi. Shu bilan birga milliylik tamoyili turmush tarzimizda, ma’naviy qiyofamizda, o‘zligimizni asrashda, milliy davlatchiligidan an’alarini tiklashga asoslanadi.

Mafkuraning ilmiylik tamoyili uning fan yutuqlari va xulosalari, ijtimoiy bashoratlarga, sotsiologik tadqiqotlarga asoslanganligida namoyon bo‘ladi, dunyoviylik tamoyili esa mazmunan na diniy, na sinfiy, na partiyaviy, na millatchilik va na irqchilik g‘oyalaringa asoslanadi, balki, mamlakatning kelajakka ishonish ruhi, xalqning bag‘rikengligi, ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va kishilarining ma’naviy komilligi bilan bog‘liq umuminsoniy dunyoviy g‘oyalarga tayanadi.

Mafkuraning dunyoviy bilimlarga asoslanishi uning ikki mushtarak tamoyilini taqozo qiladi: Bu mafkurada nazariya va amaliyotning birligi tamoyilidir.

Milliy g‘oya milliy va umuminsoniy tamoyillarga rioya qilgan holda shakllanadi va xalqimizning tabiat, irodasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

- xalqimiz hayotida jamoa bo‘lib yashash ruhining ustunligi;
- jamoa timsoli bo‘lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi;
- ota-on, mahalla-kuy, umuman jamoatga yuksak hurmat-e’tibor;
- millatning o‘lmas ruhi bo‘lgan ona tiliga muhabbat;

- kattaga hurmat va kichikka izzat;
- mehr-muhabbat, go‘zallik va nafosat,hayot-abadiyligining ramzi
- ayol zotiga ehtirom;
- sabr-bardosh va mehnatsevarlik;
- halollik, mehr-oqibat.

Milliy g‘oyaning asosiy tamoyillari deb, uning shakllanish xususiyatlari va amal qilish usullarini, imkoniyatlari va yo‘llarini belgilab beradigan yo‘nalishlarga aytildi. Bunday yo‘nalishlar ko‘p va har biri keng qamrovlidir. Milliy g‘oya quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning hududiy yaxlitligi va sarhadlar daxlsizligini ta’minlashga yordam berish;
- qonunning ustuvorligi, demokratiya va o‘z-o‘zini boshqarishning hayotda mustahkam o‘rin egallayotganiga asoslanganlik;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayanish;
- xalqaro huquq qoidalariga mos kelishi;
- davlatning bosh islohotchi ekanligi va mamlakatda ijtimoiy barqarorlikning ta’minlanishi;
- o‘tish davrida aholining ijtimoiy himoyalanganligi;
- jamiyat hayoti barcha sohalarining erkinlashuvi, islohotlarning tadrijiylik tamoyillariga xizmat qilishi.

O‘zbekiston ota-bobolarimiz yashab o‘tgan azaliy va muqaddas makon, insoniyat tafakkuri, fan va madaniyatning eng ko‘hna o‘choqlaridan biridir.

Bu zaminda jahonni hayratga solgan buyuk sivilizatsiyaning ildizlari vujudga kelgan, insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga mansub qadriyat va an‘analar shakllangan. Qadimgi yunon faylasufi Geraklit bu yurtni «falsafiy tafakkurning beshigidir» deb e’tirof etgan.

Ta’lim–tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ta’lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masaladir. Ta’lim va tarbiya bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan uyg‘unlikda olib borilishi lozim.

Tayanch tushuncha va iboralar: Milliy ong, milliy iftixor, milliy tafakkur, milliy g‘oya ta’limining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, axloq, axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy hatti-harakatlar, axloq tuzilmasi , ma`naviy-axloqiy g‘oyalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlari, ilm-fan yutuqlari va falsafiy tafakkur durdonalari, urf-odat,

an'ana va marosimlar, ma'rifat, ta'lim tarbiya, diniy qadriyatlar, axloqiy fazilatlar, madaniy yodgorliklar, osori atiqalar, qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy meros va tarixiy xotira, san'at va milliy adabiyot asarlari.

Mavzuni o'zlashtirish yuzasidan savollar:

1. Milliy g'oya ta'limining asosiy ustuvor yo'nalishlarini sanab bering.
2. Axloq tuzilmasi qanday tushunchalarni qamrab oladi?
3. Axloqiy qadriyatlarga misol keltiring...
4. Sharq va G'arbda axloqiy tamoyillarga munosabat...
5. Inson hayotida ma'naviy axloqiy g'oyalarning qanday ahamiyati bor?
6. Jamiyat hayotida-chi?
7. Nima uchun bugungi kunda mamlakatimizda umuminsoniy va milliy qadriyatlar bilan boyitilgan ta`lim tizimini shakllantirish zarur?
8. Xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlarining tarkibiy qismlarini sanab bering...

5-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O`QITISHDA SHAXS XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH.

Reja:

1. Bugungi kunda erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashning dolzarb muammolari.
2. Milliy g'oya va ma'naviyat ta'limida shaxs manfaatlari ustuvorligi.
3. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari darslarida fuqarolik burchiga itoatkorlikni shakllantirish masalalari.

Bugungi kunda erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashning dolzarb muammolari

XXI asrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligi tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik bozor iqtisodiyoti asosidagi huquqiy, demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyati qurilishining bosh tamoyili sifatida qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinishi milliy g'oya fani zimmasiga juda katta ma'suliyatli ulug'vor

vazifalarni yukladi. Juda boy ilmiy, ma’naviy, madaniy, diniy merosimizni qayta tiklanishi ularni zamon ruhi talabi bilan uyg‘unlashtirib faqat shaxsiy, milliy manfaat kasb etilib qolmasdan umumjahon ma’naviy, ijtimoiy-iqtisodiytaraqqiyotga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilmoqda.

Insonning dunyoga kelishi, faqat tug‘ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug‘ilgandan keyin o‘z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko‘tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o‘z o‘rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi, ya’ni tarbiya olishi kerak.

Bu jarayonda katta avlod o‘zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya’ni yangi tug‘ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga yetishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan.

Jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni yetishtirish ehtiyoji ham ortib borgan hamda o‘zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. O‘zbekiston Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demokratik erkin davlat, fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uni o‘zligini anglashda imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga va ma’naviy intellektual aqliy malakaviy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Milliy g’oya ta`limi jarayonida erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash quyidagi vazifalarni amalga oshiradi. Chunonchi:

1. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarni ijtimoiy axloqiy meyorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy meylarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ulardan ijtimoiy axloqiy meyorlar (talab va ta’qiqlar)ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida aqliy ong madaniyatini shakllantirish.

2. Aqliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish chog’ida talabalarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlardan, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida ularda tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashini shakllantirish.

3. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarda o‘z sog’liqlarini saqlash va mustahkamlash, ularda yangi harakat turlari borasida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish.

4. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida talabalarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash.

5. Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida talabalarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat biriligi hamda aloqadorligini talabalarga tushuntirish.

6. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.

7. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga davlat Konstitutsiyasi haqidagi ta'limotni chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish.

8. G'oyaviy va mafkuraviy bilim berish, talabalarda mafkuraviy faoliyat borasida ko'nikma va malakalarni qaror toptirish, mafkuraviy madaniyatini shakllantirish va boshqalar.

Milliy g'oya va ma'naviyat ta'limida shaxs manfaatlari ustuvorligi

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda shaxs xususiyatlarini hisobga olish zaruriyatini tushunishdan oldin shaxs tushunchasi, uning manfaatlari va erkinligi ning mazmun va mohiyatini anglash kerak bo'ladi.

SHAXS - alohida kishi, ijtimoiy-axloqiy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ. Bu tushuncha barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'z predmeti nuqtai nazaridan ishlataladi. Shaxs haqida xilma-xil talqinlar bor. Shaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir. Shaxsning shakllanishida quyidagi omillar qatnashadi: 1) biologik (nasl); 2) tabiiy muhit; 3) madaniy muhit; 4) ijtimoiy tajriba; 5) odamlar bilan munosabat. Shaxsning biofiziologik jihatni ovqatlanish, joylashish, jinsiy aloqalarga kirishish, bola tug'ilishi kabi individual faoliyati bilann bog'liq hodisalardir. Shaxsning shakllanishiga tabiiy aloqador buyum va aloqalar olami fizik muhit deb ataladi. Shaxs madaniylashgan jonzot; ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan avlod vakili; odamlararo munosabatlar subekti bo'lishi ham mumkin. Bu uch omil ham shaxs hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi¹.

¹ Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T.: "G'afur G'ulom"nashriyoti. 2013 yil. 362 bet.

Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, Sharqda u yuksak axloqiy-ma’naviy meyorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi.

Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne’matlaridan to‘la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko‘rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo‘lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to‘la-qonli shaxs bo‘lib yetilmasligi mumkin.

Shaxs manfaatlari va erkinligi – insonlarning o‘z hayoti va faoliyatini amalga oshirishi bo‘lib, u ozod shaxs sifatida mehnat qilish, bilim olish, o‘zi istagan kasb, hunarni, diniy etiqod va boshqalarni ixtiyoriy tanlashi kabilarni o‘z ichiga qarmrab oladi. Qadimgi jamiyatlardan hozirgacha erkinlik, ozodlik, tenglikni barcha insonlarning ijtimoiy mavqeい, dini, irqi, jinsi, millatidan qat’iy nazar qonunlar oldida teng huquqligini ta’minalash xalqning asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Shaxs erkinligining tarkibiy qismlari: shaxsning daxlsizligi, qadr-qimmati, diniy e’tiqod, vijdon erkinligi, so‘z erkinligi, ijod erkinligi, xususiy mulkka – egalik huquqi va boshqalardan iborat.

Shaxsning daxlsizligi qoidalari qadimgi va o‘rta asrlarda cheklab kelingan. Insoniyat tarixida shaxs erkinligini ro‘yobga chiqarishda AQShda XVIII asr oxirida qabul qilingan «Inson huquqlari to‘g‘risida Bill» va fransuz inqilobi davrida qabul qilingan «Inson va grajdalar huquqlari deklaratsiyasi» muhim o‘rin tutadi. Bu borada BMT 1948 yilda qabul qilgan va uning Nizomiga kiritilgan «Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi» katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrdagi ilg‘or, demokratik jamiyatlarning qonunlarida, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ham shaxs erkinligi kafolatlangan. Shaxs erkinligiga daxl qilib, moddiy va ma’naviy zarar yetkazgan, jabr-zulm qilgan shaxslar qonuniy jazoga tortiladi. Sobiq sho‘rolar davrida so‘z erkinligi, diniy e’tiqod erkinligi, shaxsning milliy tuyg‘ulari ta’qib qilinar, millatparvar odamlar «millatchi», «antisovet» deb jazoga tortilar edi. Nazariy-falsafiy jihatdan shaxs erkinligi har bir davrda nisbiy ma’noda amal qiladi. Tanazzulga uchrayotgan jamiyatlarda turli zo‘ravonlik, nohaqliklar oqibatida shaxs erkinligining buzilishi,

insonlarning qadr-qimmati yo‘qolib borishiga sabab bo‘ladi. Shaxs erkinligidan ko‘p foydalanuvchilar emas, balki vijdon, iyomon, insof kabi burchlarni a’lo bajaruvchilar haqiqiy buyuk insonlardir. Burch va mas’uliyat shaxs erkinligini oqilona boshqarib turadi. Burchni, mas’uliyatini yaxshi bilgan odamlarning el, yurt oldida obro‘yi, qadr-qimmati ham oshib boradi. Bunday shaxslarni xalq e’zozlaydi. Shaxs erkinligini yuzaki, biryoqlama tushungan odamlar barcha ishlarda faqat o‘z manfaatini o‘ylab, boshqalarni haq-huquqlarini toptashga urinadi. Davlat, qonun tomonidan inson haq-huquqlarini himoya qilishi fuqarolarning ilm olish, mehnat qilish, jamiyat hayotida yuz berayotgan voqeа-hodisalar haqida erkin so‘zlash, ijobiy yoki tanqidiy fikrni aytish, halol mehnat bilan topilgan mulkka egalik qilish huquqlaridan foydalanishga imkon beradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida shaxs erkinligini yuzaga chiqaruvchi barcha huquqlar kafolatlangan.

Shaxs manfaatlari va erkinligining ma’naviy jihatlari shundaki, shaxs qadr-qimmatini himoya etish, uning erkin huquqini ta’minalash, uni tabiiy ofat, balki ijtimoiy institutlar tazyiqidan, hatto o‘z havoи nafsi, tanazzulga olib boruvchi mayllardan himoya etish, turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi uchun sharoit yaratish, shaxs manfaatlarini himoya qilish – milliy va umumbashariy ma’naviyat tizimidagi eng oliyjanob vazifalardir.

Shaxs manfaatlari va erkinliklari, uning burch va majburiyatlar masalasi ma’naviyat asoslari turkumiga kiruvchi fanlarning eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Insoniyat o‘z taraqqiyoti jarayonida shaxs manfaatlariga oid bo‘lgan maxsus qonunchilik tizimini yaratgan. Bu tizim o‘z taraqqiyotida uchta katta bosqichni bosib o‘tgan. Birinchi bosqich 1789 yildagi Fransiya inqilobining Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinganidan boshlanib, I jahon urushigacha bo‘lgan (1914 y.) davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi, shaxs daxlsizligi, xususiy mulkka egalik, saylash va saylanish kabi shaxsiy va siyosiy huquqlar bilan boshqa masalalar tartibga solingan. Ikkinci bosqichda (1914—1950 yillar) insonlarning turli g‘oya va harakatlar ta’sirida mehnat qilish, dam olish, ijtimoiy yordam olish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik rivojlangan. Uchinchi bosqich 20- asrning 2-yarmidan bugungi kungacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda tinch yashash, atrof-muhit tozaligiga erishish, axborot olish huquqi bilan bog`liq masalalar faol muhokama qilinib, ularni hal etish yo‘llari qidirilmoqda.

Bu davrda inson huquqlari sohasida xalqaro qonunchilik tizimi shakllandi. BMT tomonidan yetmishga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi tomonidan bir yuz oltmishdan ziyod, YUNESKO da yetmishdan ortiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilo-ti tomonidan o‘ttizdan ko‘proq inson huquqlariga taalluqli xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Hozirgi paytda inson huquqlari bo‘yicha 400 yaqin xalqaro hujjat mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida inson huquqlari oliy qadriyat deb tan olingan. Odamlardan qonunga xilof tarzda foydalanishga, ularning g‘ayriqonuniy migratsiyasiga va savdosiga qarshi kurash yuzasidan davlatimiz tomonidan qator aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Odam savdosiga qarshi kurashda ko‘zlangan maqsadimizga erishish uchun mahalalarda turli uchrashuvlarni tashkil etish va ushbu turdagи jinoyatlarning oqibatlari haqida mahalla ahlini, ayollarni, yoshlarni xabardor qilib borish, ta’lim muassasalarida o‘quv kurslari tashkil etish, ommaviy axborot vositalarida shu mavzuda turkum maqolalar chop etish yaxshi samara beradi.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari darslarida fuqarolik burchiga itoatkorlikni shakllantirish masalalari.

Inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylidir”.

Barkamol shaxsni tarbiyalash eng oljanob, sharaflı ish. Lekin, bugungi o‘quvchi-talaba yigirma-o‘ttiz yil oldingi bolalar emas balki, ular bir necha tilni biladigan, internetdan foydalana oladigan, kompyuter bilan tillashadigan, dunyoning xoxlagan burchagidagi ilmiy kutubxonalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan sharoitdagi yoshlardir. Demak, yoshlarga ta’lim-tarbiya haqida gapirganda juda ehtiyyotkorlik, bilimdonlik, hushmuomalalik bilan yondashish kerak bo‘ladi. Aks holda tarbiyachining o‘zi o‘quvchi-talaba oldida uyalib qolishi hech gap emas.

“Bizning say’-harakatlarimiz komil insonni tarbiyalashga yo‘naltirgan yangi asrda dunyo taraqqiyotini, insoniyatning qay yo‘ldan borishini komil insonlar belgilashiga shubha yo‘q.

XXI asr intelektual avlod asri. Ya’ni, ilm-fan, salohiyat, iste’dod, iqtidor yuzaga chiqadigan asr. Aqliy salohiyat rivojlanadigan, taraqqiyotni aqli, bilimdon, zehnlilar, farosatlilar boshqaradigan davr.

XXI asrda ta’lim-tarbiyaga ham munosabat o‘zgacha. Har bir sohada bo‘lgani kabi, ta’lim-tarbiyaga ham turli innovatsiyalar kirib

kelmoqda. Bu yangiliklar bizning qadimiy ta’lim-tarbiya sohasidagi an’analarimizni siqib chiqarmaydi, balki, takomillashtirishga yordam beradi, xolos. Barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga etibor berish kerak?

Buning uchun:

Birinchidan, yoshlarga xalqimizning urf-odatlarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni o‘rgatish va unga amal qilishni bildirish kerak;

Ikkinchidan, yoshlarga o‘tmish mutafakkirlar hayoti va ijodini, faoliyatini, qoldirgan ilmiy merosini o‘rgatish zarur. “O‘tmishimiz buyuk” degan gap quruq g‘ashga tegadigan iboraga aylanib qolmasligi uchun bu mutafakkirlarning nega buyukligini nima uchun jahon xalqlari bugungi kunda ham e’zozlab o‘qib o‘rganayotganliklarini, kashfiyotlari nimalardan iboratligini, insoniyat uchun qanday ahamiyatli ishlarni amalga oshirganligini o‘rgatish kerak;

Uchinchidan, barkamol shaxs bo‘lishi uchun yurtimiz tarixini, o‘tmishini va bugunini mukammal bilishi shart;

To‘rtinchidan, O‘zbekistonda qanday muqaddas qadamjolar mavjud. Ular nima uchun muqaddasligini yoshlar bilishlari, o‘rganishlari zarur;

Beshinchidan, yoshlar Farobi, Beruniy, Ibn Sino, Zamahshariy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Motrudiy, Ahmad Farg‘oniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Xusayin Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi o‘lmas mutafakkirlar asarlarini o‘qigan, uqqan bo‘lishlari kerak;

Oltinchidan, bugungi yoshlar Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar”, Oybekning “Navoiy”, G‘ofur G‘ulomning “Shum bola”, “Sen yetim emassan”, Abdulla Qahhor, Xudoyberdi To‘htaboyevning romanlari, hikoyalari, qissalarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, To‘ra Sulaymon, Mahmud Toir, Tog‘ay Murod kabi o‘nlab ijodkorlar asarlari, “Alpomish”, “Ravshan”, “Kun tug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlarni o‘qigan bo‘lishlari zarur;

Yettingchidan, barkamol inson o‘zi yashayotgan hududdagi teatrqa har haftada hech yo‘q-sa bir marta borib turishi, oyda bitta badiiy asarni o‘qigan bo‘lishi kerak;

Sakkizinchidan, bugungi yoshlar “Axborot”, “Davr”, “Poytaxt” informatsion dasturlarini, ommaviy axborot vositalari bo‘lgan kunlik gazetalardagi xabar va yangiliklardan xabardor bo‘lib borishlari kerak.

Tayanch tushuncha va iboralar: Shaxs manfaatlari va erkinligi, shaxs manfaatlari va erkinligining ma’naviy jihatlari, shaxs qadr-qimmati, shaxs manfaatlarini himoya qilish, shaxs manfaatlariga oid bo‘lgan maxsus qonunchilik tizimi, BMT, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi, YUNESKO, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Barkamol shaxsni tarbiyalash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Shaxs manfaatlari va erkinligining ma’naviy jihatlarini izohlang...
2. Insoniyat o‘z taraqqiyoti jarayonida shaxs manfaatlariga oid bo‘lgan maxsus qonunchilik tizimini yaratgan. Ana tizim yaratilgan bosqichlarni sanab o‘ting...
3. Ma’naviyat asoslari ta’limida shaxs manfaatlari ustuvorligini izohlang...
4. “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan? O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qaysi moddalarida konstitusiyaviy normalarga rioya etish yuzasidan fuqarolarga qator burch va mas’uliyatlar yuklatilgan?
5. Nima uchun barkamol insonni shakllantirmasdan turib, jamiyatni hozirgi davr talabi darajasida rivojlantirib bo‘lmaydi.
6. Barkamol shaxsni tarbiyalashda nimalarga etibor berish kerak?

6-MAVZU: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O‘QITISHNING TURLI METODLARI

Reja:

1. Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishda an’anaviy va noan’anaviy ta’lim modellaridan foydalanish.
2. Interfaol ta`lim metodlari tushunchasi, bugungi kunda eng ko`p qo`llanilayotgan interfaol ta`lim metodlari.
3. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari darslarida test metodini qo‘llashning mohiyati.

Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishda an’anaviy va noan’anaviy ta’lim modellaridan foydalanish.

Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishda odatda an’anaviy va noan’anaviy ta’lim modellaridan keng foydalaniladi.

An'anaviy dars - (“markazda o‘qituvchi bo‘lgan ta’lim modeli”, - deb ham atashadi) muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jarayoni ko‘proq o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta’lim modelidir.

An'anaviy darsning asosiy maqsadi dars mavzusining asosiy mazmuni, tushuncha va faktlarni o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga yetkazish va tushuntirishdan iborat. Odatta, an'anaviy dars berishga passiv dars berish usuli sifatida qaraladi. Lekin darsda o‘quvchilarning faol yoki nofaolligi darsni qanday o‘tishga va uni rejalashtirishga bog‘liq. An'anaviy darsning samaradorligini oshirish uchun dars jarayonini oqilona tashkil qilish, o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligini mutassil rag‘batlantirib turish, o‘quv materialining mazmunini ochishda baxs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, turlicha baholash usullari va vositalarini o‘z o‘rnida qo‘llash talab etiladi.

“Ta’kidlash joizki, - deb yozadi – metodist olim B.To‘xliyev – interfaol usullarni an'anaviy ta’lim metodlariga mutlaqo qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Ular bir-birini inkon etadigan, biri boshqasiga halaqit beradigan emas, balki bir-birini to‘ldiradigan ta’lim usullaridir. O‘qitish jarayonida yo an'anaviy, yoxud interaktiv metoddan birini tanlash kerak qabilida yondashish ma’rifiy jaholatdan boshqa narsa emas.

“Ta’lim metodlari son-sanoqsiz va ularning har biri o‘zi qo‘llanilayotgan vaziyat uchun betakror ahamiyatga egadir”¹.

An'anaviy ta’lim modelining afzalliklari:

- Ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lgan va aniq, ma’lum tushunchalarni, fanni o‘rganishda foydali;

- O‘qituvchi tomonidan o‘qitish jarayoni muhiti yuqori darajada nazorat qilinadi;

- Vaqtadan unumli foydalilanadi;

- Aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

An'anaviy ta’lim modelining kamchiliklari:

- O‘quvchilar passiv ishtirokchi bo‘lib qoladilar;

- O‘qituvchining to‘la nazorati barcha o‘quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltirmaydi;

¹To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: 2011yil, 120-bet.

- O‘quvchilar o‘qituvchi bilan bevosita muloqatga kirisha olmaydi;
- Eslab qolish darajasi hamma talabalarda bir xil bo‘lmanligi sababli, guruh bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi past bo‘lib qolishi mumkin;
- Mustaqil o‘rganish va yechimlar qabul qilish uchun sharoitlar yaratilmaydi.

Noan’anaviy ta’lim modelining afzalliklari:

- O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib kelishi;
- O‘z vaqtida qayta aloqalarning ta’minlanishi;
- Tushunchalarni amaliyotda qo’llash uchun sharoitlar yaratilishi;
- Turli o‘qitish usullarining taklif etilishi;
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi;
- O‘tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi;
- Muloqatga kirishish ko‘nikmasining takomillashishi;
- O‘z-o‘zini baholashning o‘sishi;
- O‘quvchilarning mavzu mazmuniga, o‘qitish jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabati;
- O‘quvchining mustaqil fikrlay olishi;
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishi;
- Muammolarni yechish ko‘nikmalarining shakllanishi.

Noan’anaviy ta’lim modelining kamchiliklari:

- Ko‘p vaqt talab etilishi;
- Talabalarni har doim ham keraklicha nazorat qilish imkoniyatining pastligi;
- Juda murakkab mazmundagi material o‘rganilayotganda ham o‘qituvchi rolining past bo‘lishi;
- O‘qituvchining o‘zidan ham yaxshi rivojlangan fikrlash qobiliyatiga va muammolarni yechish ko‘nikmalariga ega bo‘lishining talab etilishi.

“Ta’lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo‘nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo‘ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o‘qituvchi va talabalar faoliyatining o‘zaro tutashuvi, o‘qitish va o‘qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo‘lmaydi, buning boisi ta’lim metodi o‘zida umumiyl holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi”.

Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to‘laqonli yorituvchi ta’rifni aniqlashga bo‘lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-


yangi ta’riflar ilgari surilmoqda. Biroq, “ta’lim metodi” tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o’zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar “ta’lim metodlari talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari” degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta’lim metodlari ta’lim jarayonida qo’llanilib, uning samarasini taxminlovchi usullar majmuidir.

Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, uning yordamida ta’lim mazmunini o‘zlashtirish yo’llari ifoda etiladi, o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo’lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o‘qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta’lim metodlari doimo u yoki bu o‘qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o‘zaro shartlanganligini ta’kidlash joiz.

Ta’lim metodi tuzilmasi chizmada quyidagicha namoyon bo’ladi (M.N.Skatkin qarashlariga ko’ra):




Ta’lim metodi tuzilmasi

Chizmadan anglanib turibdiki, ta’lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta’lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o‘qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta’lim maqsadi o‘qituvchi va talabalar faoliyati asosida, shuningdek, ta’lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo’naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta’lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.


Ta’lim metodlari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:



Milliy g‘oya ta’limidagi tarbiya metodlarining asosiy funksiyalari

Bu funksiyalar ta’lim metodini qo‘llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o‘zaro singib ketadi. Misol uchun, tashkiliy funksiya o‘qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta’lim metodi» atamasi bilan birga ko‘p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo‘llaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanadi. Har bir ta’lim metodi muayyan ta’lim usullarini chog‘ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o‘qituvchi faoliyatida tez-tez qo‘llaniladigan usullarni ajratib ko‘rsatish mumkin:



Metodik usullarning turlari

Interfaol ta`lim metodlari tushunchasi, bugungi kunda eng ko`p qo`llanilayotgan interfaol ta`lim metodlari.

Talaba – yoshlarga milliy g’oya tushunchalari uning bosh va asosiy g’oyalari tushunchalarini singdirish borasida interfaol uslublarni qo’llashning bir qancha turlari mavjud. Bunday uslublardan foydalanish o’qituvchidan o’z ustida ijodiy ishlash, yangiliklardan doimiy xabardor bo’lish bilan birga talaba – yoshlar bilan yanada yaqinroq muloqotda bo’lish va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Shunday usullardan biri “klaster” usulidir. Bu usulning asosiy vazifasi talabalardan o’rganilayotgan pedagogik jarayonni, yangi mavzuni qismlarga ajratish orqali o’zlashtirishga yo’naltiradi. Mavzu bo`yicha fikr –mulohazalarni erkin bayon etish malakalarini oshirishga yordam beradi. Bu usulda biror – bir mavzu yoki matn tanlanib talaba - yoshlarning diqqatini aynan shu mavzuga qaratish yuzasidan markazga yoziladi. Talabalar mavzuga oid barcha fikrlarini markazining atrofiga joylashtiradi. Firlar bayon etilgandan keyin har bir fikr yoki so’zlarni toifalarga ajratib chiqadilar: Milliy istiqlol g’oyasi: bosh g’oyasi – ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish; asosiy g’oyalari – vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag’rikenglik.

Amaliy mashg’ulot yoki seminar darsi davomida talabalarga topshiriq berish mumkin: milliy g’oyaning asosiy g’oyalariiga doir fikrlaringizni aytib bering. Shunga doir xalq maqollarini keltiring va ma’nosini izohlang.

Mavzu boyicha klaster usulidan foydalanish oxir – oqibatda yangi bilimlarni o’zlashtirish fikrlarning turli – tumanligini yaxlitlash asosida umumiyl natija qo’lga kiritiladi.

Klaster usulidan foydalanish uchun guruh talabalarini kichik ijodiy guruhlarga ajratib amalga oshirish maqsadga muvofiq bo’ladi. Har bir guruhda mavzuga oid darslik, o’quv qo’llanmalari, ma’ruza matnlari, mavzuga oid tarqatma materiallar va manbalar bo’lishi mumkin.

Klaster usulidan foydalanishda quyidagilarga e’tibor beriladi.

1) Kichik guruhlar soniga qarab chizma qog’ozlari doska taxtasiga osib qo’yiladi va milliy g’oya tushunchasi o’qituvchi tomonidan yoziladi.

- 2) Mavzuga oid fikrlar qog'ozga yoziladi.
- 3) Asosiy tushuncha va fikrlar o'rta sidagi bog'liqlik chizmada ko'rsatiladi.
- 4) Talabalarning fikrlari umumlashtiriladi va yakuniy xulosa chiqariladi.
- 5) Dars jarayonida o'qituvchi talabalarning faoliyatini nazorat qilib boradi, ularning mavzuga oid tushunchalarini baholaydi.

Biz klaster usuli xususida to'xtaldik. Dars jarayonida interfaol usullarning "aqliy hujum", "tanjidiy fikrlash", "ajurli arra", "menyular", "debatlar", "sinkveyn", "insert", "zig-zag", "qarorlar shajarası" kabi turlaridan va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali samarali natijalarga erishiladi. Jamiatni axborotlashtirishdagi eng muhim yo'naliishlardan biri ta'lim tizimini axborotlashtirishdir. Bu esa jamiatni axborotlashtirish jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshishining asosiy shartidir. Ta'limni axborotlashtirish ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash, uning faol metod va vositalaridan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarini jadallashtirish, uning sifat va samaradorligini oshirish, yoshlarni axborotlashgan jamiyatning faol ishtirokchisi etib tarbiyalash masalalarini o'z ichiga qamrab oladi.

O'rganish metodlari bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallahsga hamda metodik va g'oyaviy - siyosiy e'tiqodlarni ishlab chiqishga qaratilgan talabalarning ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida belgilanadi.

O'qitish metodi "o'qitishning maqsadi – mazmuni, metodi, shakli, usullari" tizimida muhim o'rin egallaydi. Metod deganda, ta'limda maqsadga erishish, masalalarni hal qilish yo'llari, usullari tushuniladi. O'qitish metodi tarkibida usullar alohida ajralib turadi. **Usul** metodning unsuri bo'lib, uning tarkibiy qismi, metodni amalga oshirishda bir martagina qo'llanadi va alohida qadam hisoblanadi.

O'qitish metodi – murakkab, ko'p qirrali, ko'p sifatlarga ea bo'lgan ta'limdir. O'qitish metodida o'qitishning obektiv qonuniyatları, maqsadları, mazmuni, tamoyillari, shakllari o'z aksini topadi. Metodlar boshqa didaktik kategoriyalarga dialektik bog'liq va biri boshqalarini taqozo qiladi, ya'ni o'qitishning maqsadi, mazmuni, shakli hosilasi sifatida metodlar didaktik kategoriyalarga aks ta'sir ko'rsatadi.

O‘qitish metodlarining ko‘p o‘lchovliligi ularning ko‘plab tasnifini keltirib chiqaradi.

O‘qitish metodlari tasnifi – muayyan belgilar asosida tartibga solingan tizimdir. Eng asoslangan o‘qitish metodlari tavsiflariga quyidagilar kiradi:

1. An’anaviy metod. Hozirgi davrda ulardan beshtasi inobatga olinadi: amaliy, ko‘rgazmali, ifodali, kitob bilan ishlash va video metodlar.

2. Maqsadiga ko‘ra metodlar tasnifi

- bilimlarni egallash;
- malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish;
- bilimlarni qo‘llash;
- ijodiy faoliyat;
- mustahkamlash metodlari;

bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish metodlari.

3. Idrok etish – bilish faoliyati xarakteriga ko‘ra metodlar tasnifi: tushuntirish – illyustrativ (axborot – retseptiv). Ularning xarakterli xususiyatlari; bilimlar “tayyor holda” tavsiya etiladi; bu bilimlarni idrok qilish tashkil etiladi; bilimlar idrok (retsepsiya) qilinadi va tushunib olinadi, xotiraga joylashtiriladi;

- **reproduktiv metod:** bilimlar tayyor holda tavsiya etiladi, bilim nafaqat bayon qilinadi, balki tushuntiriladi; bilimlar ongli o‘zlashtiriladi; ularning tushunilishi va eslab qolinishiga erishiladi hamda bilimlarning mustahkamligi tez – tez takrorlash yo‘li bilan ta’milanadi.

- **muammoli bayon qilish metodi;**

- **qisman ijodiy (evristik) metod.** Bilim tayyor holda tavsiya etilmaydi, balki u mustaqil ravishda egallanadi; yangi bilimlarni qidirish, izlash tashkil etiladi; bilish vazifalari bo‘yicha mustaqil fikr yuritiladi, muammoli vaziyatlar yaratiladi va hal qilinadi;

- **tadqiqiy metod.** Bunda muammo belgilab olinadi, muammoning tadqiqoti jarayonida bilim egallanadi .

4. Didaktik maqsadi bo‘yicha (T.I.Shukina, I.T. Ogorodnikov) qo‘yidagilar farqlanadi:

- ilk bilimlarni o‘zlashtirish metodlari;
- egallangan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish metodlari.

5. Olinishi zarur bo‘lgan natijani oldindan taxmin qilish (maqsadni amalga oshirishga erishish);

6. Ta’lim jarayonining yaxlitligini ta’minlash;

7. Muntazam tahlil qilib borish;

“Ma’naviyat asoslari” fanini o‘qitish metodikasida o‘qitish va o‘rganish metodlari quyidagi guruhlardan iborat keng tarqalgan tasniflarga borib taqaladi.

1. Bilimlarni berish, idrok etish va o‘zlashtirish hamda e’tiqodni shakllantirishni ta’minlovchi metodlar. Metodlarning bu guruhiga ma’ruza, talabalarining mustaqil ishlari, mustaqil tahsil olish bo‘yicha ishlar, maslahatlar, ko‘rsatma berish, ommaviy axborot, programmalashtirilgan materiallarni idrok etish va boshqalar kiradi.

2. Bilimlarni tadbiq etish va mustahkamlash, malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish hamda e’tiqodni chuqurlashtirish metodlari. Bu guruhga seminar, amaliy va laborotoriya mashg‘ulotlari, nazorat ishlarini bajarish, o‘quv va pedagogik amaliyot kiradi.

3. Bilimlar, e’tiqodlarni shakllantirish va talabalarining kasbiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Bu o‘quv jarayonining reyting baholari, suhbat o‘tkazish, kurs va diplom ishlari loyihalari hamda davlat attestatsiyasi natijalarini baholashdir. Didaktikaga oid adabiyotlarda o‘qitish metodlarining quyidagi bog‘liqliklari qayd qilinadi:

- birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq;

- ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog‘liq;

- uchinchidan, ta’lim oluvchilarining bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;

- to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;

- beshinchidan, oliy o‘quv yurti yoki kafedraning sharoitlariga bog‘liq;

- oltinchidan, o‘quv jarayonining moddiy – texnik ta’minoti bilan bog‘liq;

- yettinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’limni isloh qilishning dolzarb vazifasi talabalarning o‘quv – bilish faoliyatini jonlantirish, o‘quv jarayoniga yangi texnologiyalarini tadbiq etishga xizmat qiladigan o‘qitishning shakl va metodlarini takomillashtirishdan iborat.

O‘qituvchining pedagogik faoliyati tavsifida olimlar, odatda quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

- tashkilotchilik
- ilmiy bilish;
- kommunikativlik.

Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish yangi avlod ta’lim standartlarini joriy etishning zaruriy shartiga aylanib bormoqda. Davlatimiz ta’lim standartining asosini ta’lim muassasalari bitiruvchilarining malaka talablari kompitensiyalari belgilangan. Masalan, A1, A2, A2+; V1, V2, V2+ kompitensiya darajalari. Mazkur holatda fanni o‘zlashritishda qator yangicha yondashuvlardan foydalanish masalan, tabaqlashgan ta’lim yoki didaktik o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga talab ortadi.

Didaktik o‘yinlar haqida quyidagi fikr diqqatga sazovor: “O‘qitishda didaktik o‘yinlar o‘quvchilarni bilimlarga qiziqtiruvchi, bilish doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, o‘quvchilarni faollashtirish omillaridan hisoblanadi. Chunki, o‘quvchi faol fikr yuritadi, o‘zida ijodiy erkinlik sezadi”

Didaktik o‘yinlarda foydalanishda quyidagi metodik talablarni e’tiborga olish talab qilinadi:

1. O‘yinlardan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘quvchilarni qiziqtiradigan va ularning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlarni tanlab olish zarur.

2. Darslar jarayonida o‘yinlarga-(15-20) daqiqa vaqt, bo‘limlar bo‘yicha yirik mavzularni umulashtirish va takrorlashda esa butun bir darsni ajratish mumkin.

3. Har bir o‘yinni o‘tkazishdan avval unga puxra tayyorgarlik ko‘rilishi hamda dars materiallarining mazmuni bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi lozim¹.

Jahon pedagogik tajribalarni o‘rganib, taxlil qilib respublikamiz ta’lim tizimi va mentalitetimizga moslashtirib, dars jarayoniga tadbiq qilish natijasida o‘quvchilarni egallayotgan bilimlari ixtiyoriy-majburiy tarzda o‘zları qidirib topishiga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishga, hatto xulosani ham o‘zları keltirib chiqishiga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari darslarida test metodini qo‘llashning mohiyati.

Test (ingl. – sinov) birinchi bor 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan o‘quvchilarning bilim darajasini tekshirish uchun qo‘llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F. Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlari dastlab psixologiya fanlari doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo‘nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta Amerikalik psixolog E. Torndayk tomonidan ishlab chiqildi. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik metodlar ham qo‘llanila boshlandi.

Bunday metodlar o‘z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.²

XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o‘quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo‘nalish: aqliy (intelektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo‘llash hamda o‘quvchilarning o‘qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo‘ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo‘llash sohalari rivojlna boshladi.

Test tuzuvchilar turli odamlarda reaksiya vaqtি bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy (intelektual) qobiliyatlarini

¹ Omarova G.S. “O‘rta maxsus ta’lim tizimida “Huquqshunoslik” fanini o‘qitishda yangicha yondashuv” // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2021. 5-son. – 536-b.

²Qoraboyeva Z.T. Pedagogik texnologiyalar. Ma‘ruzalar matni. 2006 y.

o‘rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usulida amaliy ishlar olib borish lozimligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga olib keldi. Test sinovlarining asosiy maqsadi ham o‘tilgan darslarni o‘zlashtirish darjasи to‘g‘risida, hamda navbatda o‘rganilishi lozim bo‘lgan dars hajmi to‘g‘risida o‘quvchiga axborot berish; o‘qituvchiga o‘qitish metodini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan. O‘quvchilarning bilimlarini baholashning turli usullarini tahlil etib, testlarni guruhlarga ajratishga o‘rganib ko‘rilgan. CH.Grin (1926) o‘zining «Test novogo tipa» (Yangi turdagи test) nomli monografiyasida ilgari yaratilgan va ishlatib ko‘rilgan testlarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib quyidagi tavsiyalarni bergan:

- test sinovlari uchun mo‘ljallangan material hajmini aniq belgilash va uning tarkibidagi eng muhim qismlarini ajratib olish;
- mazkur material uchun test sinovlarining eng maqbul shaklini tajriba yo‘li bilan aniqlash;
- o‘quvchilarning test sinovlari vaqtida javob berishlari o‘rtacha tezligi to‘g‘risidagi amaliy ma’lumotlarni e’tiborga olgan holda, test sinovlarining davom etish vaqtini belgilash;
- test sinovlaridagi fikrlarni bayon qilinish tilining to‘g‘riliгини va mantiqan muvofiqligini tekshirish;
- topshiriqlarni murakkabligi ortib borish tartibida joylashtirish, to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblarning doim bir navbatda almashinishiga yo‘l qo‘ymaslik.

Ma’naviyat asoslari fanini o‘qitishda muhim vositalardan bo‘lgan test nazoratining ijobiy jihatlari:

1. Savodli tuzilgan test obektiv pedagogik o‘lhash vositasi bo‘lib, uning natijasi imtihon oluvchi o‘qituvchiga bog‘liq emas.
2. Pedagogik test o‘quv materialining dasturiy mazmunini to‘liq qamrab olishi mumkin.
3. Test nazoratida texnikani qo‘llash oson, bu ma’lum bir materialni yoki butun bir fanni, nisbatan oz vaqt, kam kuch sarflab, ommaviy nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Bu uning muhim ustunliklaridan biridir.

Test usuli ham ayrim nuqsonlardan xoli emas. Masalan, test o‘quvchining mustaqil fikrlash qobiliyatini qolipaydi, ya’ni cheklaydi; o‘quvchi o‘zining ruhiy kechinmalarini namoyon qila olmaydi; o‘quvchining boshqa shaxsiy sifatlarini baholab bo‘lmaydi.

Shunga qaramay, pedagogik testlarning ijobiy imkoniyatlari juda katta. Testdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘qish va o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi, o‘quvchining bilish faolligini oshiradi. Test topshiriqlariga qo‘yiladigan didaktik talablar mavjud. Tuzilgan test topshiriqlarini hammasini ham birdek ishonchli deb bo‘lmaydi. Test savollari mukammal bo‘lishi uchun ularni tuzishda bir qancha talablarga rioya qilishi zarur.

Bular quyidagilardan iborat: test topshiriqlari mazmunining o‘quv materialining maqsadga muvofiqlari; material ahamiyatliligi; ilmiy aniqlik; izchillik; to‘kislik va uyg‘unlik; o‘zlashtirish darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish; samaradorlik; til raxonligi va aniqligi; bir ma’nolilik; qat’iy belgilangan vaqt; ixchamlik; murakkablik meyori; to‘g‘ri javobda qo‘sishma belgilarining mavjud emasligi; shaklan va mazmunan o‘zaro bog‘liqlik.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ta’lim metodlari, an’naviy va noan’naviy ta’lim modellari, an’naviy dars, metodik usullar, “klaster”, “aqliy hujum”, “tanqidiy fikrlash”, “ajurli arra”, “menyular”, “debatlar”, “sinkveyn”, “insert”, “zig-zag”, “qarorlar shajarasi”, o‘rganish metodlari, bilimlarni egallash, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. An’naviy dars deganda qanday darsni tushunasiz?
2. An’naviy ta’lim modelining afzalliliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Noan’naviy ta’lim modelini qanday izohlaysiz?
4. Noan’naviy ta’lim modelining afzalliliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
5. O‘rganish metodlari haqida tushuncha bering...
6. O‘qitish metodlari deganda nimani tushunasiz?
7. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta’limida qo‘llaniladigan qanday o‘qitish metodlarini bilasiz?
8. Test topshiriqlariga qanday didaktik talablar qo‘yiladi?

7-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASHDA QO`YILADIGAN TALABLAR.

Reja:

1. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qo‘yiladigan talablar.
2. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta`limi jarayonida pedagogik texnologiyalar orqali yoshlarda axborot xavfsizligini ta’minlash omillari.
3. Milliy g‘oya ta`limi va ma`naviyat asoslarini olib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali talaba yoshlarda ijodkorlikni, zamon bilan hamnafaslikni shakllantirish vazifalari.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qo‘yiladigan talablar.

Milliy g‘oya ta`limini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Har bir guruhda o‘quvchi-talabalarga milliy g‘oyani singdirishning mazmun va mohiyatini, yosh va intellektual xususiyatlarini hisobga olib yondashish.
2. O‘quvchi-talabalarga ezgulik bilan ijtimoiy faollikni uzviy ravishda mujassamlashtirilgan holda singdirish.
3. Milliy g‘oyani singdirishning yo‘nalishlari va bosqichlarini belgilash.
4. Milliy g‘oyani singdirishning metod va shakllari hamda vositalar mexanizmini ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish.
5. O‘quvchi-talabalarning ongi va shuuriga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda ijtimoiy tarbiyaning barcha omillari hamkorligidagi ishlarni amalga oshirish.
6. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda milliy g‘oyani singdirishga doir ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda eng maqbul amaliy usullarni qo‘llash.
7. O‘quvchi-talabalarning ma’naviy-axloqiy sifatlari hamda dunyoqarashini boyitib borish bilan birga milliy mafkuraning mohiyati, ijtimoiy taraqqiyot va shaxs kamolotini ta’minlashdagi

o‘rni, ahamiyati, milliy g‘oyani o‘rganish zaruratini doimiy ravishda, maqsadga muvofiq yoritib borish.

8. Milliy g‘oya asosida talaba-o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishni aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat negizida tashkil etish.

9. Fanni o‘qitish va tarbiyaviy ishlarning uzviylichi-uzluksizligini ta’minalash.

10. O‘qitish jarayonida berilayotgan bilimlar va keltirilayotgan faktlarning aniqligiga rioya qilish.

11. Nazariy bilimlar va hayotiy misollarning o‘zaro mosligi, ularning bir-birini to‘ldirishiga e’tibor berish.

12. Fanlararo aloqa tamoyiliga rioya qilish, tushunchalarni sodda, aniq berish, ularni o‘rganuvchilarning yoshi, dunyoqarashi, ruhiyatiga mosligini ta’minalash.

13. O‘quv dasturi, qo‘llanma va darsliklarning bir-biriga mos bo‘lishini ta’minalash.

14. Dasturda belgilangan mavzular va ularga ajratilgan soatlarning o‘quv qo‘llanmalari va darsliklarga mos kelishi hamda to‘la yoritilishini ta’minalash.

15. O‘qituvchining dasturda belgilangan mavzular bo‘yicha qo‘srimcha ilmiy-metodik materiallarga ega bo‘lishi, o‘z ustida muntazam ishlashini ta’minalash.

16. Dastur vazifalarini to‘liq amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan metodik tavsiya, amaliy mashg‘ulotlar, referatlar, mustaqil ishlar uchun mavzular, savollar, tayanch iboralar lug‘ati, qo‘srimcha adabiyotlar va yordamchi manbalarni takomillashtirish.

Milliy g‘oya ta`limini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda quyidagilar metodologik asosi bo‘lib xizmat qilishi lozim:

1. Milliy g‘oyani singdirish jarayonida tarixiy boy ma’naviy merosimizga doir bilimlar berishga e’tibor qaratish.

2. Xalq pedagogikasi va buyuk allomalarimizning falsafiy qarashlari va mulohazalarini o‘rganish.

3. Mustaqillikka erishgandan keyingi o‘tgan davr mobaynida barcha sohalarda (ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy) amalga oshirilgan ulkan o‘zgarishlar haqida tushunchalar berish.

Talaba-o‘quvchilar qalbiga milliy g‘oyani singdirishda pedagogik hamkorlik texnologiyalarini yaratish zarur. Bunda

birgalikdagi harakat, tarqatma material, mustaqil ish, trening, o‘yinlar, ssenariy, ishontirish va h.k.larni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta`limi jarayonida pedagogik texnologiyalar orqali yoshlarda axborot xavfsizligini ta’minlash omillari.

Yoshlar o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borishda tarbiya ta’sirchanligini oshirish yo‘llari va vositalarini qo‘llash samara beradi.

Maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiya izchilligini ta’minlash zarur. Mafkuraviy tarbiya yoshlar tarbiyasida ulug‘vor maqsad va vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi. Shuning uchun bu sohadagi mas’ul xodimlar o‘quvchi-talabalarni mafkuraviy tarbiyalash mazmuni va o‘ziga xos jihatlari, mafkuraviy tarbiyaning uslub va vositalari, mafkuraviy tarbiyaning milliy va xorijiy tajribalari haqida tushunchalarga ega bo‘lishlari lozim.

Professor-o‘qituvchilar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish yo‘llari, talaba-o‘quvchilarning yoshiga mos ravishda milliy g‘oyani singdirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishi talab etiladi.

Milliy g‘oyaning yoshlar ongiga singdirishda, ularning ishonch va e’tiqodiga aylantirishga yangicha uslub, yondashuv va texnologiyalarni qo‘llash muhim.

Milliy g‘oyaning yoshlar ongiga singdirishda erkin mavzular tanlash va taqdimotini o‘tkazishga e’tibor qaratish lozim. Milliy g‘oyani targ‘ib etishda roliklar, videokliplar, ijtimoiy reklamalar, “Virtual sayohatlar”, “multimediya” dasturlaridan foydalanish lozim.

Mamlakatimizning boy tarixiy-ma’naviy merosidan, tarixiy obidalari, muzeylardan foydalanishga ham e’tibor qaratish kerak. Fidoyi insonlar hayoti, dunyoning axborot maydonida bo‘layotgan o‘zgarishlar, OAV, internet ma’lumotlari haqida to‘g‘ri tushunchalar shakllantirilishi talablarda to‘g‘ri xulosalar chiqara olish ko‘nikmalarini shakllantirishga zamin yaratib beradi.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda o‘quvchi-talabalarda mustaqil fikrlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bahs, munozaralarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq. Mavzularni iloji boricha hayot bilan bog‘lab tashkil qilish yaxshi samara beradi.

Yoshlarni milliy g‘oya va mafkura ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda Konstitusiya va qonunlar targ‘ibotini amalga oshirish usullaridan keng foydalanish zarur.

Respublikamizda bevosita fuqarolik jamiyatni asoslarini mustahkamlashga qaratilgan qonunlar qabul qilingan. Ammo mazkur qonunlarni yoshlar tomonidan anglash va hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalari hozircha ko‘ngildagidek emas. Bu esa, yoshlarning qonunlar to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalarini izchil rivojlantirishni talab etadi.

Fuqarolik jamiyatni asoslarining pirovard maqsadi – inson hayotini muayyan ma’naviy maromlarda muvofiqlashtirish, har bir shaxsning insoniy potensialini yuzaga chiqazishdan iboratdir. Zero, inson omilini faollashtirishda kishilarning huquqiy madaniyatning roli kattadir. YA’ni, huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan jamiyat mustahkam bo‘ladi va millat birligi kuchayadi.

Har qanday jaholatdan insonni ma’rifat qutqaradi. Shuni hisobga olib, yoshlarga “Jaholatga qarshi ma’rifat” tamoyili mohiyatini tushuntira borish lozim.

Yoshlarga ma’naviy-ma’rifiy ishlarda diniy ekstremizm, terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari to‘g‘risida tushunchalar berib borish zarur. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini tushuntirish va diniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlariga murabbiylarni keng jalb etish lozim.

Bunda yoshlar tarbiyasiga ta’sir etayotgan ijobiy (oliy ta’lim mazmuni, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, OAV, oila, davlat va jamoatchilik tashkilotlari, san’at, madaniyat va h.k.) va ayrim salbiy (diniy ekstremizm, terrorizm mafkurasi, missionerlik, prozeletizm, loqaydlik, befarqlik, tarbiyaviy ishlarda uchrayotgan kamchiliklar va h.k.) omillar ochib berilishi, ulardan ogohlantirish zarur.

Ijobiy omillar samaradorligini oshirish, faoliyatini muvofiqlashtirish, salbiy omillar ta’sirini bartaraf etishning yo‘nalishlari, metod va vositalaridan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda samarali foydalanish lozim.

Yoshlarni ogohlik, hushyorlik va g‘oyaviy kurashchanlik ruhida tarbiyalash, axloqsizlik g‘oyasini yoyib, xalqni ma’naviy jihatdan buzishga intilayotgan qora kuchlarga qarshi kurashda yoshlar

faolligini oshirish bo‘yicha o‘tkaziladigan diniy-ma’rifiy tadbirlarga diniy idoralar vakillarini jalg etish muhim ahamiyatga ega.

Chunki, yoshlarni begona mafkura: diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasi tazyiqlaridan himoya qilishda dinshunos olimlar va din ulamolari bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etish samarali usul hisoblanadi.

Diniy ekstremizm tahdididan yoshlarni himoya qilishda professor-o‘qituvchi, tarbiyachi-pedagoglarning asosiy vazifalari borki, ular bevosita yoshlarni bu yovuz kuchlarning g‘oyalariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga e’tibor qaratib borishlari talab etiladi. Chunki bugungi kunda din niqobi ostidagi har qanday ekstremistik ko‘rinishlarga qarshi kurashmog‘imiz dolzarb masaladir. Masalan, umumlashgan tushunchada “terror” degani u yoki bu ko‘rinishda siyosiy maqsadlarga erishish uchun kurash vositasi bo‘lib, unda hech bir gunohsiz kishilar terrorning nishoni bo‘lishadi. Demak, terror begunoh odamlarga qarshi zo‘ravonlikni anglatadi, uni ma’naviy jihatdan hech qachon oqlab bo‘lmaydi. Bunga 2005 yil Andijon shahrida ro‘y bergen voqealar yaqqol misoldir.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlar natijalarini sarhisob qilish, erishilgnan yutuqlarni va kamchiliklarni aniqlab, tahlil qilib borish lozim. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimli rejalashtirilib amalga oshirilsa va baholansa, istiqboldagi vazifalarni aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda axborot xavfsizligini ta’minlovchi omillarga quyidagilar kiradi:

- Ta’lim va tarbiyaning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi;
- Mehnat bozorini kadrlar bilan ta’minlashdagi davlat siyosati;
- Davlat boshqaruvida yoshlar ishtirokini keng ta’minlanishi;
- Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati yoshlar muammosini bartaraf etishga qaratilganligini kiritish mumkin.

Yoshlarga oid muammolarni bosqichma-bosqich hal etilishi, mehnatni taqsimlash mahsulot ishlab chiqarish, mehnat bozorini yengillashtirish muammolarini birin-ketin bartaraf etish natijasida yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshmoqda.

Globallashuv sharoitida axborot xurujiga qarshi kurashishda, uni bartaraf etishda ta’lim-tarbiya jarayonining omil sifatida o‘rni beqiyos bo‘lib, asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi:

- yoshlarning onggi, tafakkuri, dunyoqarashi shakllanadi hamda shaxsi voyaga yetkaziladi;
- yoshlarga Vatan tuyg‘usi, mehr-oqibat, tarixiy xotira, ma’naviyat va ma’rifat singdiriladi;
- yoshlarda xavf-xatarga qarshi kurashish sezgilari va ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Istiqlolning saqlovchilari deb baholanayotgan yosh avlodning tarbiyasi, ularning ma’naviy salohiyatini yanada oshirish bugun davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda, mustaqilligimizning asrovchi ma’naviy dastur vazifasini bajaruvchi milliy g‘oyani avvalo bilish, uning targ‘ibotida barchaning ma’sulligini ta’minalash-davrning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston deb atalgan davlatning manfaatlarini o‘zida mujassam etgan milliy g‘oyani ta’sir doirasini aynan yoshlar orasida oshirishning asosiy omillaridan biri bugun “sovuq urush”lar ta’siri kamayishi bilan paydo bo‘layotgan “mafcura poligon”laridan himoyalanish orqali millat hamjihatligiga va taraqqiyotiga erishish bilan bog‘liqdir. Bunday kurash maydonida “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin”.

Milliy g‘oya ta`limi va ma`naviyat asoslарини оlib borishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali talaba yoshlarda ijodkorlikni, zamon bilan hamnafaslikni shakllantirish vazifalari.

Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta’limi mamlakatimizning mana shu mintaqada, yon-atrofdagi davlatlar orasida va jahon miqyosida o‘ziga munosib o‘rnini, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, o‘zining imkoniyatini to‘g‘ri va xolisona anglab, shu asosda izchil harakat qilishi uchun xizmat etishi zarur.

Milliy g‘oya va ma’naviyat vositasida el-yurt birlashadi, o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida, muttasil takomillashtirib borish vazifasi ham yangi jamiyatni barpo etishda muhim o‘rin tutadi.

Chunki ta’lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darjasи va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin,

ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib, ongi o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, intellektual salohiyat, aqlidrok, fikr, ilg‘or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun milliy g‘oya va ma’naviyatni yoshlar qalbi va ongiga singdirishda va jamiyatning barcha jabhalarini qamrab olishda, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usullaridan foydalanilmoqda. Bu hol ta’lim tizimini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish uchun olib borilayotgan harakatlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Axborot texnologiyalarining oxirgi yillardagi tez rivojlanishi bizga yangi va noyob bo‘lgan imkoniyatni, ya’ni, o‘quv jarayonlarida elektron darsliklar va multimedia mahsulotlaridan foydalanish imkoniyatlarini bermoqda.

O‘quv dasturlarida multimediatdan foydalanish kompyuterlarning analistik imkoniyatlarini o‘rgatilayotgan fan mavzularining har tomonlama mazmunli va obrazli qilib tasvirlash imkoniyati bilan to‘ldiradi.

Ma’lumki, o‘quvchi birinchi marta eshitgan axborotining faqatgina chorak qismini o‘zlashtiradi. Agarda o‘quvchining o‘quv jarayonida interaktiv multimedia texnologiyasi yordamida faol ishtiroki ta’mirlansa, u holda yangi mavzuni o‘zlashtirish 75 foizni tashkil etishi mumkin. Interaktiv multimedia o‘quvchiga katta emotsional – estetik ta’sir ko‘rsatishi sababli multimedia dasturlari sifatiga katta talablar qo‘yilishi lozim, chunki estetik jihatdan zaif bo‘lgan multimedia mahsuloti o‘quv jarayonining samarasini kamaytiradi va ba’zi hollarda salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Ijodiy va ta’sirchanlik nuqtai nazaridan multimediani yangi san’at turi deb hisoblash, shuningdek, multimedia san’at nazariyasi va multimedia pedagogikasini yaratish lozim.

Dars berayotgan o‘qituvchi pedagogik texnologiyani yaxshi bilishi zarur. Chunki pedagogik texnologiya – bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoitda ta’sir ko‘rsatish va aks ta’sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir.

Pedagogik texnologiya o‘qitish jarayonlarining o‘zaro bog‘liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish bosqichlarini ko‘rish, ularni joriy etish shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta’limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir.

Bu tizimga uzliksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o‘z ta’sirini o‘tkazadi va ta’lim tarbiya maqsadini umumiy holda belgilab beradi.

Maqsad esa pedagogik tizimning qolgan elementlarini o‘z navbatida yangilash zarurligini keltirib chiqaradi.

Pedagogik tajribalarni o‘rgatishdan maqsad, o‘qituvchilarning serqirra va murakkab faoliyatidagi yangiliklarni aniqlash bilan birgalikda ilmiy tadqiqot metodi sifatida nazariya va amaliyot birligini ta’milashga qaratiladi, yo‘naltiriladi.

Ilg‘or pedagogik tajriba shunday amaliyotki, u har doim o‘ziga yangilik elementlarini, ijodkorlik namunalarini, novatorlik faoliyat qirralarini mujassamlantiradi, uning asosiy ko‘rsatkichi natijaviylik, ya’ni ta’lim tarbiya sohasida yillar davomida erishilgan ilg‘or samara hisoblanadi. Pedagogik tajribani o‘rganish sermashaqqat mehnat talab qiladi va o‘ziga xos metod (so‘rovnama, suhbat, hujjat o‘rganish) va shakllarga (pedagogik o‘qish, pedagogik ilmiy guruh)ga ega.

Pedagogik texnologiya bugun paydo bo‘lgan yangilik yoki yo‘nalish emas, u har doim o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatida o‘z aksini topadi. O‘qitish jarayoni ma’lum bosqichlar, amallar, usullar, harakatlardan tashkil topgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Shunga mos holda ma’lum pedagogik tizim mavjud bo‘ladi. Dars o‘tishda belgilangan maqsadni o‘quvchi ongiga, qalbiga singdirishda har xil metodlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Demak o‘quvchilarning darsga, fanga qiziqishini oshirish, xotiralarini yanada o‘tkirroq qilib charxlash lozim.

Darsni faqat auditoriyada o‘tish shart emas, balki uni joylarda ham o‘tish mumkin. Masalan muzeylarga, o‘lkashunoslik muzeylariga, tarixiy joylarga, teatr, kinolarga borish, tadbirlar o‘tkazish bilan ham maqsadga erishishimiz mumkin. Davra suhbatlari, munozaralar, uchrashuvlar tashkil etilishi mumkin. Savolnomalar tuzish va unga javob olish ham katta natija beradi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, milliy g‘oya ta`limini olib borishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qo‘yiladigan talablar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodologik asoslari, mafkuraviy tarbiya izchilligi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, yoshlarda axborot xavfsizligini ta’minlovchi omillar, o‘qitish jarayoni.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga qanday talablar qo‘yilgan?
3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning metodologik asoslari nimalardan iborat?
4. Mafkuraviy tarbiya izchilligini siz qanday izohlaysiz?
5. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar haqida tushuncha bering...
6. Yoshlarda axborot xavfsizligini ta’minlovchi omillar nimalardan iborat?
7. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari ta’limida qo‘llaniladigan qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilasiz?
8. O‘qitish jarayonini siz qanday izohlaysiz?

8-MAVZU: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O‘QITISHDA TURLI VOSITALARDAN FOYDALANISH.

Reja:

1. Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan vositalar tasnifi.
2. Birinchi Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari tahlili.
3. O‘quv adabiyotlarining ta`limda foydalaniladigan asosiy vositalardan biri ekanligi, adabiyot turlari: darsliklar, ilmiy asarlar, ilmiy- ommabop asarlar.

Milliy g‘oya va ma’naviyatga oid fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan vositalar tasnifi.

O‘qitish vositalari bu moddiy olam, tevarak-atrof va tabiiy ob`yektlar, shuningdek, inson tomonidan o‘quv – tarbiyaviy jarayonda

axborot olish, pedagog va o‘qituvchilar faoliyatida o‘z oldiga qo‘ygan va o‘qitish, tarbiyalash va rivojlanish uchun qo‘llaniladigan quroq sifatida yaratilgan sun’iy ob`yektlar hisoblanadi.

O‘qitish vositalari, shu bilan birga, ularning mazmun, uslub va tashkiliy shakllari loyihalashtirilgan o‘quv – tarbiyaviy jarayonning tarkibiy bo‘limlaridan biridir. Mazkur holat har bir o‘quv – tarbiya muassasasining eng muhim tarkibiy xususiyatidir. Milliy g‘oya ta’limi jarayonida qo‘llaniladigan turli – xil moddiy o‘qitish vositalari hozirgi paytda joriy qilingan tizimlarning harakatlanishi, qayta qurilishi va bir-biri bilan bog‘liqligini nazarda tutgan holda boshqa tarkibiy qismlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, yangi axborot texnologiya vositalarining yetarli darajada keng qo‘llanilishi malum jarayonni loyihalashtiradi, tadqiqot olib borishda an’anaviy dars bilan chegaralanib qolmasdan, ta’lim oluvchilarning turli mustaqil faoliyatini (yakka tartibda yoki guruh bo‘lib) nazarda tutgan uslublarni o‘qitish mazmuni va maqsadi u yoki bu o‘zgartirishlarni inobatga olib kiritish samarali natijalar beradi. Aynan yangi vositalar va texnikaviy yutuqlarning paydo bo‘lishi o‘quv dasturlariga ta’lim oluvchilar ongiga oldin yetib borishi qiyin bo‘lgan mavzularni kiritish imkoniyatini yaratadi. O‘qitish vositalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1.Natural (tabiiy) ob`yektlar. Tabiiy ob`yektlar sirasiga jonli va jonsiz tabiat ob`yektlari kiradi, ta’lim oluvchilar ular bilan mashg‘ulotlarda tarqatma yoki nomoyish qilinadigan materiallar shaklida tanishadilar. Ko‘rgazmalilik – tabiiy ob`yektlarni tanlab olish yoki tabiiy ob`yektlarni o‘z ichiga tarkibiy qism qilib kiritgan turli qo‘llanmalarni loyihalashga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri.

Shu maqsadda o‘rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berish uchun kerak bo‘lgan ayrim tipik belgilarni aniq ifodalashga yordam beradigan ob`yektlar ajratib olinadi. Natural ob`yektlarning qo‘lyozmaligini kuchaytirish uchun turli kodlash usullari qo‘llaniladi: rangli, raqamli, harfli. Tabiiy ob`yektlarni o‘qitish jarayonida ular bilan ishlash uslublaridan asosiyлари kuzatish va tajriba o‘tkazish hisoblanadi. Ko‘rgazmali qo‘llanmalar sifatida ishlatiladigan tabiiy ob`yektlar avvalo uning jihoz va moslamalariga maxsus ishlov berish zarur: ularni kesish, ayrim belgilarga maxsus rang berish qopqoqlarning qobig‘ida ko‘rish tuynuklarini ochish, ichki bo‘shliqlarni yoritish, lampa signal beruvchi o‘rnatish va xakazo.

2. O'quv modellari, mulyajlar, maketlar. Modellar tabiiy obektlarning sun'iy ko'rinishi bo'lib, ularning muhim sifatlari, aloqalari va munosabatlarini qayta takrorlaydigan o'quv ko'rgazmali qo'llanmalar hisoblanadi. Orginal ob`yekt (mikro va makro obektlar) xususiyatlarini ko'rsatishda shartlilik (ramziylik)ka amal qilinadi, razmerni kattalashtirish yoki kengaytirish orqali obekt qurilmasi sxema tarzida aks ettiriladi. Modellarning eng keng tarqalgan tipik turlari bu moddiy (predmet) modellardir. Modellar o'z hajmiga ega yoki tekis modellarga bo'linadi. Ularning oralig'ida relief jadvallar joylashgan. hajmga ega modellar tarkibiy qismlarga bo'linishi mumkin (rezets, mufta va o'zagi (atom yig'indisi bilan)), qismlarga bo'linmaydigan, qimirlamaydigan, (belgilash komplekti) va harakatlanuvchi (ichki yonish dvigateli, nasos) bo'ladilar. hajmga ega bo'lган modellar sirasiga mulyaj va maketlar kiradi. Ular ham umuta'lim ham texnika fanlarini o'qitish jarayonida qo'llaniladi. Mulyaj (maket)lar deya biz shunday obektlarni aytamizki, ular moddiy obektlarga aynan o'xshatib yaratilgan qo'llanmalardir.

Mulyaj va maketlar atrof-muhit hodisalari predmetlarning tashqi belgi va xususiyatlarini o'rganishda qo'llaniladi. Modellar o'rganilayotgan obektlarning ichki qurilmasi va harakatlanish tamoyili, mashina va mexanizmlarning kinematikasini o'rganilayotgan vaziyatlarda boshqa aloqalar va munosabatlar mazmunining ham o'rganilishiga imkoniyat beradi.

Ta'lim oluvchilarga taqdim etiladigan model va mulyaj (maketlar)lar ham xuddi tabiiy ob`yektlar singari demokratsion va tarqatma qo'llanmalarga bo'linadi.

3. Turli xil modellarni loyihalashtirishda bu turdag'i o'qitish vositalarining funksiya va didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy pedagogik talablarni ilgari surish mumkin, ya'ni, axborotlashgan, o'quv jadvalini faoliyatning aniq usullariga adekvantlik (o'rganish, qabul qilish plakat, sxema, diagramma, grafik va boshqalar) aniq bir tushuncha, ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda qo'llaniladigan tekis moddiy o'qitish vositasidir. O'quv jadvali aniq va ko'rgazmali holda o'rganilayotgan ob`yekt haqida ilmiy axborot beradi.

1. Jadvallar turli xil bo'ladi. Kompozitsion – rasm va fotosuratlar;
Grafikli: (chizma, diagramma, sxema va boshqalar);

Belgili – ramziy formula, harf va so‘zlar bilan ifodalanuvchi. So‘nggi paytda elektrlashgan jadvallar keng qo‘llanilmoqda, ya’ni, stendlar, xavfsizlik oid texnikalar.

O‘qitish vositalari orasida oxirgi paytda eng ko‘p qo‘llanilayotgan vositalar – bu plakatlardir. Plakatlar - quyidagi talablarga javob berishi shart.

- plakatning mazmuni o‘rganilayotgan mavzuga oid bo‘lishi;
- plakatda ifoda etilgan chizma yetarli darajada katta va uzoqdan ham ko‘ra olish imkonini berishi kerak;
- plakatdagi ob`yektlar tabiiy holatlarda ko‘rsatishi shart;
- plakatda tasvirlangan chizmalarning qismlari masshtab mutanosibligi asosida berilishi kerak;
- eng e’tiborga loyiq qismlar alohida (boshqa) rang bilan ajratib ko‘rsatilishi lozim.

5. Ekran va ekran – tovushlik o‘qitish vositalari. Hozirgi zamonda juda keng tarqalgan o‘qitish vositalaridandir. Bu o‘qitish vositalariga qo‘yilgan talablar eng avvalo ularning mavzuga oid, ikkinchidan, sifatli bo‘lishidir.

Diopozitiv (slayd) – bu harakatlanmaydigan o‘qitish ekran vositasi. Diopozitiv aks etgan chizma va rasmlar odatda plakatdagidan yaxshi qabul qilinadi.

Diopozitiv – bu juda qulay o‘qitish vositasi, chunki o‘qituvchi yordamida materialning qismini, yoki bir kadrni alohida ko‘rsatish mumkin. Har bir kadr to‘liq bir informatsiyaga ega. Diofilm ham harakatlanmaydigan ekran vositasidir. Bu qo‘llanmalarning uslubiy g‘oyasi mualliflarning kadrlar ketma-ketligini taminlanishiga e’tibor berishlaridir. Kadrlarning ketma-ketligi o‘zgarsa informatsiyaning qabul qilinishida mazmun buzilishi ro‘y beradi. Diafilmlarni qo‘llashdagi qiyinchilik – ulardagi axborotning ko‘pligi va ularning qabul qilib olish uchun vaqtning yetmasligidir.

Bu qiyinchilik darsda diofilmlarning ayrim fragmentlarini (bo‘laklarini) ko‘rsatish orqali yengillashtiriladi.

6. Transporantlar – bu ham harakatlanmaydigan ekran qo‘llanmasi. Transporantlarning grafproyektor yordamida ko‘rsatilishi va xonani qorong‘ilatish shart emasligi bu o‘qitish vositasining muhim jihatidir. Transporantlar xonadagi doskani ham o‘rnini bosadigan vositadir. O‘qituvchi ta’lim oluvchilarga yuzlangan holda,

o‘tilayotgan mavzu yoki chizmalarni ekranga proeksiya qilish orqali tushuntirishi mumkin. Bu orada o‘qituvchi chizmalar mazmuniga kerakli o‘zgartirish yoki to‘ldirishlar kiritish mumkin. Bundan tashqari transporantlarda informatsiyani taqdim etishda bir kadrning o‘rniga ikkinchisiga qo‘yish juda qulaydir. Transparantlar odatda 6-8 kadr dan iborat seriyalardan iborat bo‘lib, u o‘qituvchi tomonidan ham yasalishi mumkin.

7. O‘quv kinofilmlari yaqindagina eng samarali o‘qitish vositasi deb etirof etilgandi. Uning ko‘rgazmaliligi quyidagi juda boy didaktik imkoniyatlaridan kelib chiqadi; katta hajmli informatsiyaning ixchamlantirilishi, fan va texnika tarixiga sayohat qilish, jarayonni tezlanish yoki sekinlashtirish, nihoyat, uni to‘xtatish, lirivintikatsiya yoki modellashtirish, zavoddagi moslama va apparatlarining ichki tuzilishini kuzatish. Yangi texnologiyani boshqarish bilan tanishtirish, fan arboblari faoliyati haqida ma’lumot berish ilmiy – tekshirish laboratoriyasiga «kirish», turli vazifalarni qo‘yish, ularni ijobiy hal etish, hamda qiyoslash o‘quv filmlari yordamida amalga oshar edi.

So‘nggi yillarda o‘quv filmlari ishlab chiqarilmay qo‘ydi. Ularni o‘rnini o‘quv video yozuvi, informatsiyani aks ettiruvchi ekran – tovushli vositalari kino, radio, televideniya, videofilm va diopozitivlarni egalladi.

Video yozuvni qancha lozim bo‘lsa, shuncha marta takrorlash mumkin, vaqt ko‘rsatkichi asosida kerakli informatsiyani yozish mumkin. Videokamera yordamida yozib olish juda katta imkoniyatni ochib beradi. O‘quv materialini mustaqil o‘rganishda o‘quv yozuvlari katta ahamiyatga ega.

O‘quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari tizimning o‘ta ahamiyatli bo‘lgan qismini tashkil qiladi. Eng, avvalo, u yoki bu asbob nima uchun xizmat qilishini aniqlaylik.

8. Trenajerlar – texnika vositalarining alohida guruhiga kiradi. Trenajerlar mehnat ishlab chiqarish sharoitlarini imitatsiya (o‘xhatish) qiladi.

Trenajyorlar uch guruhga bo‘linadi:

– Avtomobil va ximiyaviy ishlab chiqarish texnologiyasini trenajerlari (modellashtirish yordamida o‘rganiladi).

– Aniq bir intelektual faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan trenajerlar. Masalan: trenajer imitatorlar, stanoklarni naladka qilish imkonini beruvchi trenajerlar.

– Biror bir xarakatlanish ko‘nikmasini hosil qilish uchun trenajerlarning alohida turi qo‘llaniladi. Masalan: metalni arralash, detallarning figurali qilib yasalishi uchun xizmat qiluvchi trenajerlar.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari tahlili.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyat, uni anglash, uni shakllantiradigan asosiy mezonlar, ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi, bugungi globallashuv davrida ma’naviy olamimizni turli salbiy ta’sir va tahdidlardan asrash va himoya qilish bilan bog‘liq muammolar tahlil va talqin etilgan. Bu asar aynan ma’naviyatning jamiyat hayotidagi roli va ahamiyatini ko’rsatib beruvchi, ma’naviyat tarixi, buguni va kelajagini yoritb beruvchi, jamiyatimiz ma’naviyatini shakllantirishda zarur bo‘lgan muhim asar hisoblanadi.

Bu asarda I.Karimov ma’naviyatga shunday ta’rif bergan: “ma’naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymone’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.

Haqiqatan ham ma’naviyat – inson ongi va shuurini yorituvchi nur. U insonlarningo’zaro munosabatlari, ularning hayotiy tajribalari davomida shakllangan va rivojlangan qadriyatlar tizimidir. Inson ma’naviyatini o’zini shaxs sifatida anglagandan boshlab, umrining oxirigacha shakllantiradi. Insonning o’z ma’naviyatini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji cheksizdir. U insonning butun ongli faoliyati davomida shakllanadi, rivojlanadi. Shu ma’noda ma’naviyat insonning ongliligini, qobiliyatini, intilishlarini ham o’z ichiga oladi.

Insonning botiniy dunyosini, gavhar to’la tubsiz dengizga qiyoslash mumkin. Ma’naviyat insonning ruhiyati, o’z – o’zining anglashi, did-farosati, adolatni razillikdan, yaxshilikdan, yomonlikni, go’zallikni, xunuklikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyatni, aql-zakovati, ularni amalga oshirish yo’lida ongli faoliyat ko’rsatish va intilishi.

Ma’naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning hatti-harakatlarida, o’zligini qaysi darajada anglashida, o’zining oila va jamiyatdagi o’rnini tushunishda Vatan va millatga munosabatida namoyon bo’lishi ushbu asarda o’z aksini topgan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning ma’naviyatga bergan ta’riflaridan meni xayolimni ruhi pok, irodasi baquvvat, iyemoni butun, vijdoni uyg’oq odamni yengib bo’ladimi degan savol chulg’ab oldi. Ana shunday fazilatlarga ega bo’lgan xalqni-chi? Aslo. Shuning uchun ham muallif ma’naviyat timsolida inson, jamiyat va davlat uchun yengilmas kuch muanbaini ko’radilar va bu qarashni ilmiy-falsafiy asosda asoslab ham ko’rsatilgan.

Tabiiyki, butun bir mamlakat yoki xalq ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotining strategik yo’nalishlarini, bu boradagi dolzarb maqsad va vazifalarni belgilab, inson va uning ma’naviy olamiga xos belgi va xususiyatlarni yangicha qarashlar negizida yoritib berdigan bunday asarlar bir-ikki yilda yaratilmasligini bilamiz. O’zining ma’nomazmuni, mavzusi va ko’tarilgan muammolarning qamrovi, yo’nalishiga ko’ra noyob bo’lgan bunday asarlar nafaqat muallifning, balki u mansub bo’lgan xalq va millatning ko’p yillar davomidagi hayotiy, ijtimoiy-siyosiy tajribalari, jahonda sodir bo’layotgan voqealarning tahlili zaminida yaratilishi shubhasiz. Shu nuqtai nazardan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning asar muqaddimasida uning dunyoga kelishiga sabab bo’lgan 5 ta muhim omil haqidagi fikrlarini bilib oilishimiz mumkin:

Birinchidan, asarda insonning yuksalishida ma’naviyat olamining qanday ta’sir va ahamiyatga ega ekanini ko’rsatish;

Ikkinchidan, ma’naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritish;

Uchinchidan, xalqimiz yangi hayot, yangi jamiyat asoslarini qurayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda odamlarni bunday xatarlardan ogoh etish;

To’rtinchidan, el-yurtimiz, keng jamoatchilik e’tiborini bu masalalarga yana bir bor qaratish;

Beshinchidan, keljak avlodimizni ma’naviy sog’lom etib tarbiyalash bilan bog’liq vazifalarni belgilab olish borasidagi hayotiy ehtiyoj sababli yuzaga kelganligini tushunib olish mumkin.

O‘quv adabiyotlarining ta`limda foydalaniladigan asosiy vositalardan biri ekanligi, adabiyot turlari: darsliklar, ilmiy asarlar, ilmiy- ommabop asarlar.

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari ta’limining vositalariga birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari kiradi. Chunki mamlakatimizda xalqimiz ma’naviyatini tiklashda Islom Karimovning roli katta. U kishining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “Jamiyatimizning mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin”, “Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e’tiqodi va buyuk kelajagiga ishonchdir”, “Ma’naviy yuksalish yo‘lida”, “Maktab-taraqqiyot, madaniyat va saodat kaliti” “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”, “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”, “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kabi asar va ma’ruzalarida zamonaviy milliy ma’naviyatimizning asoslari ishlab chiqilgan. Bu asarlarda milliy ma’naviy tiklanish va ma’naviyatni rivojlantirish g‘oyalariga asoslangan ma’naviyat tushunchasiga ta’rif berilgan.

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari ta’limi vositalariga **ikkinchidan**, darslik va o‘quv qo‘llanmalar kiradi. O‘quvchilarning ijodiy izlanishi, qo‘sishimcha bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda, ijodiy foydalanishda darsliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Darslikdan foydalanish, u bilan ishlash yo‘llarida modul ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda mavzu, tugallangan fikrni qismlarga, qism esa blok modullarga ajratiladi.

Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari ta’limining **eng muhim xususiyatlardan biri** o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishdir. O‘quvchi-talabalarning jonli bilish faoliyati uchun quyidagilar xosdir: bilimga va o‘quv maqsadlariga bo‘lgan chuqur, har tomonlama qiziqish; aqliy, jismoniy va intellektual kuchlarni faol namoyon qilish; diqqat, xotira, iroda va boshqa ruhiy sifatlarni to‘plash. Bilish faolligi jarayonida quyidagi 4 shakl ajratiladi:

- reproduktiv faollik. Bunda tayyor bilimlarni egallashga tayyorgarlik, qizg‘in qayta ishlash faoliyati amal qiladi;

- applikativ faollik – unga qizg‘in tanlov-yaratish faoliyatiga tayyorlik xarakterlidir;
- izohlashdagi faollik – ma’no-mazmunni qizg‘in izohlash, tushuntirish va ochib berishga tayyorlik;
- produktiv (samarali) faollik – unga yangilikni qizg‘in ijod qilishga tayyorlik xarakterlidir.

Hech kimga sir emaski, axborot – kommunikatsion texnologiyalar hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelmoqda. Texnologiyalarga asoslangan o‘quv jarayonini tashkil qilishda **yana bir vosita** elektron darsliklar muhim o‘rin tutadi. Ma’lumki, elektron darslik deganda, ilgarilari oddiy matn fayli tushunilar edi. Hozirgi kunda elektron darslik deganda, oddiy elektron nusxa emas, balki rangli rasmlar, turli xil testlar, jadvallar, lavhalar, ovoz, video – ko‘rgazmalarnig zamonaviy tartibi, texnikasi tushuniladi. Shuning uchun ham elektron darsliklar masofaviy o‘qitish tizimining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviyat asoslari darslarida qo‘llanalidagan **samarali vositalar sirasiga** video – ko‘rgazmalarni ham kiritish mumkin.

Video – ko‘rgazmalarning qulayliklari:

- o‘quv dasturi asosida o‘rganilishi kerak bo‘lgan materiallarni o‘quvchilarga ixcham, qulay ko‘rinishda taqdim etish;
- texnik vositalarning o‘quvchi bilan interfaol usullarda muloqatda bo‘la olishi;
- o‘quvchilarning o‘quv materiallарини mustaqil ravishda o‘rganishi va olgan bilimlarini test sinovlari asosida sinab ko‘rishi mumkin.

Aslida ta’lim turlarining xususiyatlaridan va nashr shaklidan qat’iy nazar barcha o‘quv adabiyotlari quyidagi umumiyl talablarga javob berishi kerak:

- davlat ta’lim standartlari (davlat talablari) asosida tayyorlanishi;
- ta’lim-tarbiya jarayoniga hamkorlik pedagogikasi va o‘qitishning interaktiv uslublarini tadbiq qilishda ko‘mak berishi;
- tegishli o‘quv fanining nazariy va amaliy rivojlanishida, uzoq va yaqin o‘tmishdagi boy intellektual merosimizning o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishi;

- intellektual insonparvarlik g‘oyalarining aks ettirilishi, insonning tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ta mas’uliyatliligin anglatishga qaratilishi;
- vatanparvarlik va milliy g‘urur hissini shakllantirishi, mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishi;
- ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishi, ta’lim va tarbiya uzviyligini ta’minlashi;
- bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, qiziqish uyg‘ota oladigan va mustaqil fikrlashga yo‘naltira oladigan xususiyatlarga ega bo‘lishi;
- bilim oluvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilishi, mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otishi;
- yuqori darajada umumlashtirilgan va zamonaviy ilmiy bilimlarga asoslangan ma’lumotlar (qonunlar, ayniyatlar, tasniflar va hokazo)dan tashkil topishi;
- illyustratsiyalarga boy, ko‘rgazmali tasvir va badiiy-uslubiy jihatdan amaliy faoliyatga qaratilgan bo‘lishi;
- bilim oluvchilarining yoshi psixo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olishi;
- bilimlarning mutloqligi va nisbiyligini yorqin ifodalashi;
- ta’lim oluvchilarining bilimi, uquvi va ko‘nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- ta’lim va tarbiyani ijtimoiy hayot, unumli mehnat bilan uzviy bog‘lanishiga e’tibor berishi;
- fan va texnika yutuqlarining ahamiyatini ifodalashi, ilmiy masalalarining mantiqiy ketma-ketlikda, fanning o‘quv dasturiga muvofiq bayon etilishi;
- yaxlitlikni idrok qilish hissi shakllanishi uchun barcha ma’lumotlar mantiqiy bir tizimda berilishi;
- matn jozibasi shaklda bayon etilishi.

Asosiy tushuncha va xulosalarning ta’riflari nihoyatda aniq va ravshan yozilishi, atamalarning umumiyligiga erishilishi.

Sanab o‘tilganlardan tashqari har bir ta’lim turining o‘quv adabiyotlariga o‘ziga xos bo‘lgan talablar qo‘yiladi.

- o‘quv dasturiga to‘la mos keladigan va undagi mavzularni to‘laligicha qamrab oladigan shaklda yozish;
- mavzularning soddadan murakkabga tomon o‘sishini, hamda o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash;

- rasmlar, grafiklar, jadvallar, sxema va diagrammalar berilgan ma'lumotlar va tushuntirishlar bilan uzviy bog'langan bo'lishi kerak;
- darslikdagi takrorlanuvchi tushunchalarga va rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalarga e'tiborni jalb etish maqsadida maxsus belgilardan foydalanish zarur;
- fan, texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlarini inobatga olinishi;
- O'zbekistonning turli hududlaridagi o'quvchilarning bilimga bo'lgan ehtiyojlarini va milliy xususiyatlar, turli madaniyatlarning hisobga olinishi;
- o'quvchilar yoshi, saviyasi va psixo-fiziologik xususiyatlarini inobatga olinishi, o'g'il va qizlarning qiziqishlarini teng ravishda va to'la darajada hisobga olish kabi ongli tarzda tuzilgan missollar va dalillar mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiglashtiruvchi Kengashining 2011 yil 29 martdagি yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi"ning 3.2.-bandida uzluksiz ta'lim tizimida o'qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar majmuasiga mos o'quv adabiyotlarining turlari turkum fanlar kesimida ko'rsatib o'tilgan. Jumladan:

Ta'lim-tarbiyaviy mashg'ulotlar uchun:

- tarbiyachilar va ota-onalar uchun qo'llanmalar;
- qo'rgazmali qurollar;
- didaktik ta'limiy o'yinlar.

Umumta'lim fanlari uchun:

- asosiy darsliklarga o'quv metodik qo'llanmalar;
- metodik tavsyanoma va ko'rsatmalar; kompyuterli mashg'ulot va o'yinlar;
- kerakli ma'lumotlar to'plami;
- ma'lumotlar banki va lug'atlar.

AL: umumta'lim va chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar hamda
KHK: umumtalim, umumkasbiy va maxsus fanlar uchun:

- asosiy darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar; ma'ruzalar kursi;

ma'ruzalar matni; metodik tavsifnomalar va ko'rsatmalar; ma'lumotlar to'plami va banki, lug'atlar.

Umumta'lim, umumkasbiy, maxsus va qo'shimcha fanlar uchun:

- darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar kursi;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- ma'lumotlar to'plami va banki;
- lug'atlar va dayjest.

Umumiyl metodologik va maxsus fanlar hamda ilmiy faoliyat uchun:

- darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar;
- ma'ruzalar kursi;
- ma'ruzalar matni;
- metodik tavsiyanoma va ko'rsatmalar;
- malumotlar to'plami va banki;
- lug'atlar va dayjest;
- ilmiy ommabop adabiyotlar.

Ilmiy metodologik va maxsus fanlar hamda ilmiy faoliyat uchun:

- tegishli sohalarga oid umumiyl adabiyotlar;
- o'quv va metodik adabiyotlar; ilmiy ommabop adabiyotlar.

Umumiyl metodologik va maxsus fanlar uchun:

- tegishli sohalarga oid o'quv va umumiyl adabiyotlar;
- ilmiy-metodik va ilmiy-nazariy adabiyotlar.

"Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi"da o'quv adabiyotlarining quyidagi shakl va turlari ko'rsatib o'tilgan:

O'quv adabiyotlarining shakllari

O'quv adabiyotlari — muayyan ta'lim turi (yo'nalishi yoki mutaxassisligi) o'quv rejasida qayd etilgan fanlar bo'yicha tegishli o'quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o'zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo'lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi:

- An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar - ta'lim oluvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shriftlari, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etiladigan manba;

- Elektron o'quv adabiyotlar – zamонавија axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash,

saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariiga ega bo‘lgan manba.

O‘quv adabiyotlarning turlari

Uzluksiz ta’lim tizimi o‘quv-tarbiyaviy jarayonida o‘quv adabiyotlarning quyidagi turlari qo‘llaniladi: darslik, o‘quv qo‘llanma, lug‘at, izohli lug‘at, ma’lumotlar to‘plami, ma’ruzalar kursi, ma’ruzalar to‘plami, metodik ko‘rsatmalar, metodik qo‘llanmalar, ma’lumotlar banki, dayjest, sharh va boshqalar.

Darslik – davlat ta’lim standartida belgilangan asosiy o‘quv materialini qamrab olgan holda, bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o‘zlashtirib olishga, ularda ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o‘quv materialini mustaqil izlash va topishga, hamda amaliy faoliyatda qo‘llashni o‘rgatish hamda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Har bir ta’lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o‘z darsliklari bo‘ladi. Darslikda nazariy ma’lumotlardan tashqari, amaliytajriba va si-nov mashqlari bo‘yicha zarur ko‘rsatmalar beriladi.

O‘quv qo‘llanma – darslikni qisman to‘ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo‘yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlovchi, ayrim bob va bo‘limlarni keng tarzda yoritishga yoki amaliy mashq va mashg‘ulotlar yechimiga mo‘ljallangan nashr.

O‘quv qo‘llanmada muayyan mavzular darslikka nisbatan kengroq yoriti-ladi. Masalan, “Mexanika” fizika fanining mexanika qismiga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanma. “Fizikadan masalalar to‘plami” – fizika fani bo‘yicha masala va mashqlar yechishga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma va hokazo.

Lug‘at – aniq bir tartibda joylashgan so‘zlar (yoki so‘z birikmasi va hokazo) to‘plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi yoki so‘zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi nashr.

Izohli lug‘at – so‘zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so‘zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi berilgan, ularni qo‘llashga oid misollar va boshqa ma’lumotlar keltirilgan, qo‘sishcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Ma’lumotlar to‘plami – foydalanishga qulay shaklda yaratilgan muayyan fanni yoki ta’lim yo‘nalishini o‘zlashtirish uchun zarur

bo‘lgan, isbot talab qilmaydigan ma’lumotlar, ilmiy ko‘rsatkich va o‘lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, amaliy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ma’lumotlardan tashkil topgan nashr.

Ma’lumotlar to‘plamida bir qator muhim ilmiy-amaliy masalalarni yechish namunalari keltirilishi mumkin.

Ma’ruzalar kursi - fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi barcha mavzu-larning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar ko‘rsatilgan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr, leksiyalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan atalgan.

Ma’ruzalar to‘plami — muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo‘srimcha o‘quv adabiyotlar ko‘rsatilgan, o‘z-o‘zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, davriy ravishda ilmiy-tadqiqot izlanishlar asosida yangilanib turiladigan, ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi bo‘yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Uslubiy ko‘rsatma — muayyan fanning o‘quv dasturi bo‘yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo‘yicha talabalarda zarur amaliy ko‘nikmalar hosil qilishga mo‘ljallangan, ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Uslubiy qo‘llanma - o‘qituvchilar (professor-o‘qituvchilar) va bilim oluvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda bir darsning maqsadi, dars o‘tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg‘ulotlar, qo‘srimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta’lim muassasalarining ilmiy (pedagogik) kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Sharh - jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadigan meyoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek, bahsga loyiq asarlarni, g‘oyalarni, fikrlarni va ta’riflarni izohlovchi, muayyan

masalalar yechimini ko'rsatuvchi, keng ommaga mo'ljallangan qo'shimcha adabiyot sifatida foydalaniladigan nashr.

Dayjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, hukumat va turli tashkilotlar faoliyatiga tegishli qonunlar, qarorlar, nizomlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan doimiy nashr.

Elektron darslik – kompyuter tsxnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallangan bo'lib:

- o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;
- multimedia (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uch o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Ma'lumotlar banki - axborot texnologiyalarning imkoniyati va vositalari asosida yaratilgan. Statik va dinamik rejimda tuzilgan, tovush va rangli tasvirlar bilan ta'minlangan, katta hajmdagi axborotlarni o'z ichiga qamrab olgan va ularni turli ko'rinishda (jadval, diagramma, gistogramma, matn, rasm va hokazo) bera oladigan, o'quv jarayonida bilim oluvchilar tomonidan o'z ustida mustaqil ishlashi va o'z bilimlarini nazorat qilishi uchun qo'llaniladigan, doimiy ravishda to'ldirib boriladigan, keng doirada foydalanishga mo'ljallangan, tegishli vakolatli davlat tashkilotida qayd etilgan sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'plami.

Metodik tavsiyalar – ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini amalda tadbiq etish bo'yicha qisqa va aniq bayon etilgan takliflar majmuidan iborat metodik nashr. Metodik tavsiyalarda o'quv jarayoniga o'qitishning interaktiv usullari, pedagogik texnologiyalardan amalda foydalanish bo'yicha tavsiyalar nazariy jihatdan emas balki ko'proq amaliy namunalar asosida bosqichma-bosqich berilishi maqsadga muvofiq.

Monografiya - ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan bosma nashr.

Elektron nashr (EN) - bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, musiqali, videofoto va boshqa axborot obektlaridan iborat bo‘lgan jamlanmasi hisoblanadi. EN magnitli (magnit tasmalarda, magnit disklarda), optik (CD-ROM, CD-I, CDQ, CD-R, CD-RW, DVD) elektron axborot tashuvchi vositalarida hamda kompyuter tarmog‘ida taqdim etilishi mumkin.

Elektron o‘quv nashri - ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlar, ko‘nikmalar va mahoratlarni ijodiy va faol egallashlarini ta’minlaydigan ilmiy amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o‘quv materialga ega bo‘lgan elektron nashr.

Elektron lug‘at - an’anaviy «qog‘ozli» lug‘atga mos keluvchi elektron axborot manbai. Kompyuter versiyada so‘z yoki so‘zlar guruhiga maxsus ajratilgan ko‘rsatma bilan istalgan dasturdan chiqarilishi mumkin. An’anaviy lug‘atlardan farqli ravishda elektron lug‘at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, tovush, musiqa va boshqalar bilan birga media-obektlarning butun spektrlarini o‘z ichiga olishi mumkin.

Elektron uslubiy qo‘llanma - pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta’lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Elektron uslubiy qo‘llanmada pedagogik tajriba mashg‘ulotlarning raqamlashtirilgan video-lavhalari, elektron yoki unga o‘girilgan shaklda yaratilgan o‘quvchilar ishlarini darslar bo‘yicha rejalashtirilgan shaklida ko‘rsatiladi.

Elektron o‘quv qo‘llanma - fanning o‘quv hajmini qisman yoki to‘liq qamragan va axborotning adaptatsiya blokini o‘z ichiga olgan bo‘lib, masofaviy o‘qitish va mustaqil o‘rganish uchun mo‘ljallangan.

Elektron ma’ruza – interaktiv elementlar va giperuzatishlarni qo‘llab, o‘quv fani ma’ruza materialini namoyish qiluvchi multimedek tizim.

Tayanch tushuncha va iboralar: O‘qitish vositalari, natural (tabiiy) obektlar, o‘quv modellarini, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ekran va ekran – tovushlik o‘qitish vositalari, transporantlar, o‘quv kinofilmlari, o‘quv asboblari, moslamalari, laboratoriya asoslari, trenajerlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv adabiyotlari, an’anaviy (bosma) o‘quv adabiyotlari, elektron o‘quv adabiyotlari, darslik, elektron darslik, lug‘at, izohli lug‘at, ma’lumotlar to‘plami,

ma’ruzalar kursi, ma’ruzalar to‘plami, uslubiy ko‘rsatma, uslubiy qo‘llanma, sharh, dayjest, o‘quv qo‘llanma.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘qitish vositalari deganda nimani tushunasiz?
2. Natural (tabiiy) obektlarga ni malar kiradi?
3. O‘quv modellari, mulyajlar, maketlar, jadvallar, ekran va ekran – tovushlik o‘qitish vositalari, transporantlarning ahamiyatini izohlab bering...
4. O‘quv kinofilmlari nima uchun zarur?
5. O‘quv asboblari, moslamalarining o‘quv vositalari sifatida qanday o‘rni bor?
6. O‘quv adabiyotlari deganda qanday adabiyotlarni tushunasiz?

9-MAVZU: MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ASOSLARI FANLARINI O‘QITISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Reja:

- 1.Ommaviy axborot vositalarining shaxs va jamiyat hayotidagi o`rni.
- 2.Talaba yoshlarni intellektual ma`naviy salohiyati va g‘oyaviy dunyoqarashini o‘stirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni.
3. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari.

Ommaviy axborot vositalarining shaxs va jamiyat hayotidagi o`rni.

Milliy g‘oya aholining keng qamlami orasida targ‘ibot va tashviqot ishlarni takomilida shubhasiz ommaviy axborot vositalari (OAV) yetakchi o‘rinni egallaydi. Huquqiy demokratik jamiyat qurishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli benihoya katta. Sho‘rolar davrida O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatgan ommaviy axborot vositalari o‘z milliy zamindan uzilgan edi. U o‘zbek xalqiga, O‘zbekistonga xizmat qilmas edi. Ommaviy axborot sho‘rolar zamirida kommunistik mafkura dastyori sifatida mehnatkashlar ommasi ongi va dunyoqarashida tobelik, qaramlik va qullik g‘oyalarini targ‘ib qilar edi. O‘zbekiston o‘z milliy mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng, ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida

bo‘lgani singari ommaviy axborot vositalari oldiga tub sifat o‘zgarishlar davri boshlandi. U o‘zining milliy zaminiga ega bo‘ldi. Mamlakat ijtimoiy siyosiy hayotida ro‘y bergan tub sifat o‘zgarishlari ommaviy axborot vositalari oldiga ham mutlaqo yangi talablarni qo‘ydi. U ham bo‘lsa, mamlakat fuqarolari o‘rtasida keng qamrovli milliy g‘oyalarini targ‘ibot qilish asosida ularni kelajagi buyuk O‘zbekistonni yaratishdek, shuningdek, uni doimo himoya qilishdek, davlat oldida fuqarolarni ma’suliyatini oshirishdek ishlarga ommaviy safarbar etishdan iborat edi. Bu ulug‘vor va oliyjanob vazifalarni amalga oshirish uchun ommaviy axborot vositalarining xuquqiy asoslari yaratish talab qilinar edi. Shu bois, O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining mustaqil respublika mezonlariga javob bera oladigan yuridik maqomlarini belgilab beruvchi xujjatlar majmuasi qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi bosh Qomusining 67-moddasida: “Ommaviy axborot vositalari erkendir va to‘la qonunga muvofiq ishlaydilar. Ular axborotning to‘g‘riliqi uchun belgilangan tartibda javob beradilar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi.”¹ Bugun jamiyatimizning ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qila olmaymiz. Jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi yetakchi o‘rinni egallashini hisobga olgan holda, bugun OAVi hatto “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda erkin faoliyatga asoslangan OAV shakllantirildi va uning faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida avvalo, xuquqiy kafolatlarni yaratishga kirishildi. 1997 yilda qabul qilingan “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi (yangi tahrirda), “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonunlar yuqoridagi fikrimizning amaliy tasdig‘idir. 1999 yil O‘zbekiston jahon tillari universitetida Xalqaro jurnalistika fakultetining tashkil etilishi o‘zbek jurnalistikasi tarixida muhim voqeа hisoblanadi.

Matbuot milliy istiqlol uchun jamiyatni demokratlashtirish va kelajagi buyuk O‘zbekistonni taraqqiy etishining, milliy g‘oya va milliy manfaatlar tashviqotining o‘tkir quroli ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

Bugun biz nafaqat jamiyat, balki hech birimizning hayotimizni OAVsiz tasavvur ham qila olmaydigan darajaga yetdik. Demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2020 yil 4-bet.

fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so‘z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g‘oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo‘lmasligini yaxshi tasavvur etamiz.

Ommaviy kommunikatsiyalar keng quloch yozgan bir paytda taqdim etilayotgan xabarlarni qabul qilish, to‘g‘ri baholash, uning tezligi, aniqligi, xolisligi va haqqoniyligini tahlil qila olish ko‘nikmalariga ehtiyoj ham kuchayib boraveradi. Zero, bunday malaka yetishmagan joyda tushunmovchilik, ziddiyatlarning kelib chiqishi turgan gap.

Ommaviy axborot vositalarining jamiyatda tutgan o‘rni va roli haqidagi bahs-munozaralar hamon davom etib kelayapti. Bu esa mediaindustriya va uning ishlab chiqarayotgan mahsuloti yo‘naltirilgan omma o‘rtasida ma’lum bir ziddiyat borligidan dalolat beradi. Zero, mediabiznesning muvafaqqiyati shu mahsulotning xolisligi, haqqoniyligi asosiga tiklanadi. Fikri-yodi passiv va boshqarish oson bo‘lgan auditoriya e’tiborini qozonish bilan band bo‘lib qolib, ko‘pchilik zamonaviy mediatashkilotlar iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishning boshqa, samarali yo‘llarini izlashga xafsalasizlik qilayaptilar. Bu esa OAVning obro‘-e’tibori, kelgusidagi faoliyatiga jiddiy putur yetkazishi turgan gap.

Bunday paytda kommunikatsiyalar marketingining samarali quroli vazifasini OAVning media ta’lim faoliyati ado eta oladi. U turli auditoriyalar bilan faol ishlashning har xil usul va shakllarini qo‘llash orqali ishlab chiqarishning an‘anaviy menejmenti ish qurollari bilan uyg‘unlashib ketadi va OAV ijtimoiy aloqalari usullaridan biriga aylanadi.

Shunisi e’tiborga sazovorki, media ta’lim texnologiyalariga mahorat bilan yondashilganda, mediakorxonaning obro‘sni, iqtisodiy ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ko‘tariladi. Shu bilan bir vaqtda aholining mediasavodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Va bu ham oxir-oqibat iqtisodiy yuksalishga olib keladi.

Ijtimoiy faol mediakompaniyalarining shu taxlit media ta’lim amaliyotlariga ijtimoiy piarning bir ko‘rinishi deb ham, jurnalistikaning o‘quvchi, tomoshabin, tinglovchi media savodxonligi

darajasini ko‘tarishga qaratilgan vazifasi deb ham baho berish mumkin.

Piarning mumtoz nazariyalaridan birida shunday deyiladi:

Jamoatchilik bilan aloqalar - boshqaruvning alohida vazifasi bo‘lib, u:

- tashkilot va jamoatchilik o‘rtasida munosabatlar bardavomligini;
- ta’minlash, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda vositachilik qiladi;
- tashkilot rahbariyatining jamoatchilik fikridan xabardor bo‘lib turishi va vaqtida munosabat bildirishiga ko‘maklashadi;
- rahbariyatga har qanday o‘zgarishlarga tayyor turish va ulardan imkon qadar samarali foydalanishga yordam beradi;
- jamoatchilik manfaatlariga xizmat qilishdek asosiy vazifani aniqlaydi va e’tiborni shunga qaratadi;
- muomala- munosabatlarning axloqiy meyorlariga amal qilingan tadqiqot va kashfiyotlardan faoliyatining asosiy vositasi sifatida foydalanadi.

OAV media ta’lim texnologiyalari jamoatchilik bilan aloqalar kabi media makon sub`ektlari o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga, informatsion shaffoflik va ishonch o‘rnatishga xizmat qiladi.

Media ta’lim nuqtai nazaridan jurnalistlar va auditoriyalarning o‘zaro ta’sir shakllarining hammasini ikki kategoriya: o‘zaro ta’sirning bilvosita va bevosita turlariga ajratish mumkin.

OAVda fuqarolik jamiyati vakillarining tashabbusi bilan asarlar va ta’lim dasturlarining nashr qilinishi, muharririyatning auditoriya bilan aloqasini qo‘llab- quvvatlash maqsadida ma’lumot yig‘ish, baholash va tekshirish bo‘yicha jurnalistlarning tahririyat doirasidagi faoliyatları haqida tushuntirishlar beradigan bo‘lim va ruknlar tashkil qilish va hokazolar o‘zaro ta’sirning bilvosita turiga kiradi. Bular vaqtli matbuotda chiqadigan maqola, ruknlar, maxsus sonlar, nashrlar, teledastur va radioeshittirishlar, sayt, blog va elektron sahifalardagi sharh va tahliliy materiallardan iborat bo‘lib, ulardan jurnalistika va mediata’lim muammolari xususida ma’lumot olish, mediatanqid masalalari, shuningdek, zamonaviy OAV taraqqiyoti imkoniyatlari xususidagi mulohaza, munozaralarni kuzatish mumkin.

Talaba yoshlarni intellektual ma`naviy salohiyati va g‘oyaviy dunyoqarashini o‘stirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni.

Ayniqsa, bugungi kunda jamiyatning har bir oilasi va a’zosi OAVsiz hayotini tasavvur eta olmasligi va hech bo‘lmaganda u bilan

bog‘liq ravishda yashayotgan bir davrda bu haqiqat yanada oydinlashadi. Bugun ommaviy axborot vositalarini “to‘rtinchi hokimiyat” sifatida talqin etilishining boisi demokratik davlatlarda hokimiyat bo‘linishining uch tamoyili amal qilsa-da, ularning faoliyatlarini takomillashtirish va ularni xalq bilan bog‘lashning asosiy vositachisi bo‘lgan ommaviy axborot vositalaridir. Bugun bu yo‘nalish katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. 2021 yil hisobiga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan ommaviy axborot vositalarining (OAV) soni 1893 taga teng. Bu haqda “Yuksalish” umummilliy harakatining “Factbook” qo‘llanmasida keltirilgan.

Qayd etilishicha, 1893 ta OAVdan

- 642 tasi gazeta;
- 482 tasi jurnal;
- 17 tasi axborotnoma-byulleten;
- 37 tasi radio;
- 72 tasi televideniye;
- 5 tasi axborot agentligi;
- 638 tasi internet nashr va veb-saytdir.

Ma’lum qilinishicha, 2016 yilda O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan OAVning soni 1514 ta bo‘lib, bugunga kelib ular 379 ta ko‘paygan. Bu o‘rinda milliy targ‘ibotda ommaviy axborot vositalarining o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Birinchidan, ommaviy axborot vositalarini ma’lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish imkoniyatiga ega. Ikkinchidan, bugun insonlarning hayotining barcha jabhalariga kirib borishga ulgurdi o‘ziga xos tarzda ma’lumotlar manbasiga aylanib qoldi. Ommaviy axborot vositalarining asosiy “talabgorlari” yoshlar qatlami bo‘lib, ayni ommaviy axborot vositlarining turli ko‘rinishlari orqali milliy targ‘ibotni yoshga mos tarzdagi ko‘rsatuvarlar, radioeshittirishlar tarzida yetkazib berilsa, ayni maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugun globallashuv davrining yana bir yirik kashfiyoti sifatida baholanayotgan - Internet tizimining yaratilishi OAV yaratilishi tarixida ulkan tarixiy burilishni yasadi va dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi “chegaralar yanada yaqinlashdi”. Ushbu tizim bo‘yicha dunyoning istalgan mamlakati bilan uning maxsus saytlari orqali aloqa qilish, shuningdek, axborotlarni uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lindi. Zero, faqatgina Internetning o‘zi fan va texnika, siyosat, iqtisod rivojida, umuminsoniy va milliy madaniyatning o‘zaro ta’sirida, yagona axborot tizimini yaratish sohasida insoniyat uchun

yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Internetning paydo bo‘lishi XX asrning 60 yillarning oxiri va 70 yillarni boshlariga to‘g‘ri keladi. Oqibatda, internet ilmiy, tijorat va notijorat tashkilotlari, mustaqil matbaa va ommaviy axborot vositalari foydalanidigan global tarmoqqa aylandi. 1991 yilda Angliya va Norvegiya ulangan internetga, 1992 yilda AQSH birlashdi. 1996 yilning o‘zida 50 million abonentlar qatoriga O‘zbekiston ham a’zo bo‘lib kirdi. 2000 yilda uning a’zolari soni 90 millionga yetdi. Internet boy axborot manbai va unga xohlagan paytda, har qanday vaziyatda murojaat qilsa bo‘ladi. Unda reklamalar, tijorat takliflari va e’lonlari, TV va radio dasturlari, yirik gazeta va jurnallarning elektron nusxalari e’lon qilinadi. Ammo masalaning yana bir muhim, o‘tkir jihatni borki, bugun bu jarayon nosog‘lom “axborot xurujlari” bilan ham bog‘liqdir. Bugungi kunda jamiyatga jiddiy xavf tug‘dirayotgan yot g‘oyalardan biri terrorizmning asosiy quroli ham yadro quroli emas, balki internet bo‘lib qolayotganligi fikrimizning isbotidir. Yana masalaning asosiy tomonlaridan biri, internetda axborotlarning tez tarqatish xususiyatiga ega ekanligi terroristlarning asosiy manbasiga aylanib qoldi.

Axborotlar chegara bilmas ekan, ommaviy axborot vositalari ayni paytda insoniyat uchun katta imkoniyatlar manbasi bo‘lish bilan bir qatorda, uning tom ma’nodagi “kushandas” hamdir. Bugun biz bunga dunyoning ko‘plab mamlakalaridagi terroristik va buzg‘unchilik harakatlaridan oldin tarqatilgan internet ma’lumotlari misolida ko‘rishimiz mumkin. Ispaniyada 2003 yildagi, Angliya metrosidagi 2005 yildagi, Rossiyada 2006 yildagi terroristik xatti-harakatlar oldindan turli paytlarda, aniqlab bo‘lmas portallar orqali ma’lumot sifatida tarqatilgan. Bundan tashqari “ommaviy madaniyat”ning kirib kelishi uchun asosiy yo‘lak hamdir. Globallashuv - dunyo xalqlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimi ekan, uning tuzilmasi turli munosabatlar asosiga quriladi.

Ommaviy axborot vositalari targ‘ibotlarni turli yo‘sinda amalga oshirishi mumkin bo‘lib, ularda reklama va e’lonlar asosiy rol o‘ynaydi. Reklama va e’lonlarda ma’lum bir mahsulotni taqdimoti orqali asosiy yetakchi davlatga xos va mos bo‘lgan g‘oya targ‘ib etiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari paydo bo‘lgunga qadar dastlab, turli e’lonlar g‘oyalarning targ‘iboti sifatida xizmat qilgan bo‘lib, Italiya fashizmining “otasi” Benito Mussolini o‘z fashistik g‘oyalarini targ‘ibotini avvalo, odamlar gavjum to‘planadigan joylarga tarqatilagan e’lonlar asosida amalga oshirgan. Germaniya

“dahosi”(fyureri) deb ta’riflangan Gitler esa, dastlab o‘z tashviqotini kambag‘allar yashaydigan va yig‘iladigan manzillarda e’lon tarqatish bilan fashistik g‘oyalarning dastlabki “izdoshlari”ga ega bo‘lgan edi. Chunki, bu paytda kambag‘allar aholining ko‘p qismini tashkil qilar va yangi axborotlarga muhtoj ham edi. Bugun ommaviy axborot voositalari “ommaviy madaniyat”ning asosiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan turli xil kinofilmlar va seriallar bilan o‘z mijozlariga ega bo‘lmoqda. Bu o‘rinda o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlayotgan kuchlar nisbati haqida jiddiy o‘ylab ko‘rish lozim. Chunki aynan ommaviy axborot vositalarining turli ko‘rinishlari orqali jamiyatga “yot unsurlar”ning kirib kelishi iam tezlashadi. Shu maqsadda turli xil kinofilm va seriallar, g‘arb ko‘rsatuvalarini taqdim etayotgan telekompaniyalar faoliyatini yanada takomillashtirish va ommaviy nazoratni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Auditoriya va OAV ning o‘zaro bevosita ta’siri mediata’limning ko‘pqirrali tashkiliy shakl va texnologiyalari orqali taqdim etilishi mumkin, bunda har xil auditoriya guruhlari va jurnalistlar ta’lim faoliyati jarayonida, shuningdek, haqiqiy ijodiy loyihalarda har qanday vositachilarsiz aloqaga kirishadilar. Bu holatda nafaqat erkin jurnalistlar, balki muharririyatlar, nashriyot uylari, mediamoldinglar, mediakompaniyalar mediata’lim faoliyatining subekti sifatida namoyon bo‘ladilar.

Auditoriya bilan bevosita munosabat o‘rnatishning turli shakllaridan birdek samarali foydalanish mumkin. Bular:

Yakka tartibdagagi ish(muharririyat topshirig‘i, murabbiylik, kuratorlik, mediamatn tayyorlash jarayonida o‘rgatish, stajirovka va amaliyotlar);

Guruh bilan ishlash shakllari (boshlovchilar uchun master-klasslar, kurslar, maktablar, muharririyatlar qoshidagi studiyalar, seminar va treninglar).

Ilova ko‘rinishidagi sahifa, ruknlar nashr etish, teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar tayyorlash, saytlarda tematik bo‘limlar tashkil qilish;

Ommaviy tadbirlar (festival, slyot, forum, konferensiya, ijtimoiy aksiyalar, ko‘rgazma, tanlov va boshqalar).

OAV mediata’lim texnologiyalari: jurnalistlar, shuningdek medianing boshqa mutaxassislari bilan muloqot (ijodiy uchrashuvlar, ommaviy baxslar, mediaklub va boshqalar); media mahsulot ishlab chiqarishda ishtirok etish; o‘z shaxsiy informatsion mahsulotini

yaratish (bular havaskorlik gazeta, jurnallari, foto-video materiallar, blog va internet sahifalar bo‘lishi mumkin); festival, slyot, forumlardagi o‘yinlarni o‘z ichiga oladi. Bularning har biridan alohida, yoki uyg‘unlikda foydalanish mumkin. OAV olib boradigan mediata’lim faoliyatining asosiy natijasi auditoriya mediafaolligi namoyon bo‘lishining muhim shakllaridan biri bo‘lgan mediamahsulotda ko‘rinadi.

OAV ning mediata’lim sohasidagi faoliyati bir ikkita aksiya va tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. U izchillik bilan rivojlantirib borilsagina kasbning o‘ziga xosliklaridan xabardor, birlamchi jurnalistik malakaga ega bo‘lgan, ongli, taqdim etilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri va samarali foydalana oladigan mediasavodxon auditoriyani tarbiyalashga hissa qo‘shgan bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarining o‘rni va rolini yanada mustahkamlash, ularni yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari faoliyatini jonlantirish, internet global tarmog‘iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatimizda yuz berayotgan voqealarni o‘quvchiga ochiq, oshkora va xolis yetkazishni davrning, hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ommaviy axborot vositalari insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Yangilikka intilish, uni tasarruf etish, bevosita ishtirokchisiga aylanish esa umuminsoniy ehtiyoj, hatto maqsad sifatida namoyon bo‘layotir. Biroq globallashuv shiddati va tahdidi bizdan doimo hushyor yashashni, umumbashariy ma’naviyatga faqat va faqat umummilliylar qarashlar tizimi orqali bog‘lanishni talab qilayotgani ham sir emas. Zotan, Yurtboshimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek, bugun inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin.

So‘nggi paytlarda har xil g‘arazli kuchlarning “ommaviy madaniyat” niqobi ostida xatarli g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirishga urinishlari kuchaymoqda. Bunday jirkanch “madaniyat» ta’siriga duchor bo‘lgan o‘smir loqayd, yengil-yelpi hayotga oshno, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo‘lib voyaga yetadi. Shuningdek, “ommaviy madaniyat” jamiyatda buzg‘unchilik va zo‘ravonlikni targ‘ib etish hamda bolalarga go‘yo istagan ishini qilish

– “erkinlik berish” kabi bema’ni odatlarni yoyish bilan ularni manqurtga aylantirib, ma’naviyatini og‘ir inqirozga duchor qiladi.

Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yoshlар tarbiyasiga yanada e’tiborliroq bo‘lishni talab etmoqda. «Yuksak maya’naviyat – yengilmas kuch» asarida ta’kidlanganidek, «Agarki biz bunday xatarlarga qarshi o‘z vaqtida qat’iyat va izchillik bilan kurash olib bormasak, turli zararli oqimlar bizning yurtimizga ham shiddat bilan yopirilib kirishi, yoshlарimizni o‘z girdobiga tortib ketishini, oqibatda, ularning ota-onasi, el-yurt oldidagi burchi va mas’uliyatini o‘ylamaydigan, faqat bir kunlik hayot bilan yashaydigan xudpisand kimsalarga aylanib qolishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas».

Odob-axloq, hayo-ibo, or-nomus va diyonat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz ma’naviy olamining ajralmas qismi sanalgan. Bugungi globallashuv sharoitida «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yoshlарimizga turli yot g‘oyalarni, ma’naviy tubanliklarni targ‘ib etishga urinayotgan qabih niyatli kimsalar aynan ana shunday qadriyatlarimizga bolta urishga urinayotgani sir emas.

Ba’zan matbuot do‘konlari oldida yoshlarga ham ko‘zimiz tushadi. Aksariyatining qo‘lida «ma’naviy dam oldiradigan» nashrlar. Qiziqib ko‘rsangiz, birinchi sahifasidanoq muhim ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘rniga siyqasi chiqqan «shou-biznes yulduzlari»ning suratlari bilan boshlanadi. Ularning hayotidagi o‘zgarishlar, sensatsiyalar; hikoya, qissa, hatto roman janri ostida siyqa, badiiy did, uslub va konsepsiya talablariga javob bermaydigan, shahvoniy hirsni hamda boshqa ongosti hislarini qo‘zg‘ashga mo‘ljallab qoralangan quruq syujetlar; dunyo ilm-fani yo insoniyat taraqqiyotiga hissa qo‘shgan insonlar faoliyati qolib, uch-to‘rtta ashula xirgoyi qilib, «mega yulduz»ga aylangan xonandalar hayotidagi ikir-chikirlar; barkamol avlod qalbida milliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otadigan mukammal maqolalar emas, to‘y-hashamlardagi har-xil maishiy kelishmovchiliklar; savodli o‘quvchini qizg‘in bahs-munozaraga chorlaydigan fikrlar o‘rniga, ismi betayin «oshiq-ma’shuqlar»ning «oh-voh»lari, «muhabbat» iztiroblari; milliy ruhiyat tahlili turganda, turfa irim-sirimlar haqidagi maqolalar peshma-pesh chop etilayotgani ajablanarli holdir.

-G‘arb matbuoti bosib o‘tib ketgan halokatli yo‘lga, ularning «kissasidan tushib qolgan» qarashlarga biz o‘rnak deb qarayapmizmi yoki ibrat?

Avvalo, auditoriyani kengaytirishning shunday qing‘ir yo‘lini tanlagan «qalam ahli» kim va nima uchun xizmat qilayotganini oydinlashtirib olishi kerak. Bu murakkab jarayonga imkon qadar tezroq bosib o‘tilishi shart bo‘lgan bosqich sifatida qarash lozim. O‘zbek milliy jurnalistikasida ikir-chikir «turmush chorrahalari-yu» oilaviy mojarolardan saviyaliroq, xalq sifatida o‘z o‘rnimizni mustahkamlaydigan, milliy qadriyatlarimiz va xarakterimiz tarannum etilgan sof publitsistik materiallar yetakchi o‘rinni egallashi zarur. Shuningdek, barcha nashrlar yagona umummiliy maqsadga — yoshlarimiz ongida milliy immunitetni shakllantirish va mustahkamlashga xizmat qilishi shart, deb yozadi jurnalist Umid Yoqubov.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid esa bir she’rida shunday yozadi: «Millat gazetadan boshlanar asli, gazeta rost yozsa – millat rost yashar».

Darhaqiqat, inson va jamiyat o‘rtasidagi muhim bir vosita bo‘lgan matbuot nashrlari hamisha hayot, yurt va millat ko‘zgusi bo‘lib kelgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, matbuotning qandayligiga qarab, xalqning kimligini baholash mumkin.

Bugungi kunda ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirilayotgan ma’naviy tahdidlarga yolg‘on axborot tarqatish, ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yemirish, mentalitetga yot qadriyatlarni targ‘ib qilish, xalqning tarixiy xotirasiga putur yetkazish, kiberterrorizm kabilarni kiritish mumkin.

Bir qator rivojlangan mamlakatlarda nosog‘lom axborot oqimlarining oldini olish, bartaraf etish va unga qarshi kurashishning o‘ziga xos qonunchilik tizimi yaratilgan. Jumladan, bu borada xalqaro amaliyotdagи «Kiber jinoyatlar to‘g‘risida»gi konvensiya, «Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va on-layn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida»gi Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi BMT konvensiyasi, Germaniyaning «Yoshlarni himoyalash to‘g‘risida»gi, Litvaning «Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta’siridan himoyalash to‘g‘risida»gi va Rossiyaning «Bolalarni sog‘lig‘i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to‘g‘risida»gi qonunlarini misol qilib keltirish mumkin.

**Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanlarini o‘qitishda
ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning o‘ziga xos
xususiyatlari.**

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har millat an'anaviy taraqqiyot zaminlariga ega bo'lib, bu o'rinda albatta zamonaviylikni ham inkor etmasligi lozim. An'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajarishi lozim bo'lgan jamiyat ijtimoiy institutlaridan biri ham aynan ommaviy axborot vositalaridir. Ammo ommaviy axborot vositalari faqatgina o'z "mijozlari"ga ega bo'lish maqsadida an'anaviylikka eskilik sarqiti sifatida qarash, yangi zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan manbalardan ko'proq foydalanish holatlari, afsuski hozirgi kunda uchrab turibdi. Milliy g'oya ta'limida o'z navbatida, ommaviy axborot vositalari oldiga katta va o'z o'rnida ma'suliyatli vaziflarni yuklaydi. Faqatgina ko'rsatishning o'zi yetarli emas, balki, turli tushuntirish ishlarini ommalashtirish, unga fuqarolarni jalb qilish orqali tashviqotni yanada kuchaytirish, tutruqsiz g'arb kliplarining o'rniga milliylik ruhi bilan sug'orilgan ko'rsatuvlarni namoyish etish, asta-sekinlik bilan hammabop teledasturlar tizimini yaratib borish ommaviy axborot vositalarining milliy g'oya targ'ibotidagi muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Axborot xurujiga qarshi kurashish- davlat tomonidan maxsus metod (siyosiy, iqtisodiy, diplomatik, harbiy va hak.) lar, usullar vositasida, ichki va tashqi axborot makonida o'z manfaatlarini himoyalashning majmuaviy tizimidir. Informatsion-psixologik xavfsizlikni ta'minlash quyidagi asosiy sohalarda olib borilishi kerak:

- Siyosiy (davlatning ichki va tashqi siyosat) faoliyatida;
- Diplomatik (xalqaro va davlatlararo) munosabatlarda;
- Davlatning siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarida;
- Harbiy (mudofaa tizimining mustahkamlash).

Davlatlarning milliy manfaatlariga jiddiy xuruj sifatida namoyon bo'layotgan omillardan biri-global axborot xuruji eng yuqori darajani tashkil qiladi. Xalqaro axborot makonidan o'zaro kurashuvchi manbalar o'zaro vaqtincha birikib, muayyan davlatga qarshi axborot xurujini tashkil etishadi. Asosiy maqsad, xuruj ta'siri ostiga olingan davlatning ichki axborot makonini tanazzulga uchratish, xalqaro axborot makonida o'sha davlatni o'z pozitsiyasini mahrum qilishdir.

1998 yilda texnika fanlari doktori S.Rastorguev o'zining "Axborot urushi"¹ nomli kitobida S.Nilusning "Sion donishmandlari yig'ilishi protokollari" nomli xujjatni informatsion-texnologik nuqtai nazaridan

¹ С.Расторгуев. Информационная война. 1998 г. С.139-140

tahlil qilingan. Chunki, mazkur xujjatda axborot urushining barcha yo‘nalishlari, omillari aniq va qisqa yo‘nalishda ko‘rsatilgan:

- Boshqaruv tizimi (hokimiyat tarmoqlarini nazorat qilish);
- Aholini fikrini o‘zgartirish vositalari (OAV yordamida);
- Terrorizm (davlatni tahlikaga solib, maqsadga erishish);
- Iqtisodiy xuruj, iqtisodiy boshqaruv vositalari;
- Iqtisodiy dastur (iqtisodiy tanazzulga yoki qaramlikka olish);
- Umumxalq ovoz berishlari va h. (siyosiy jarayonni buzish)

Mazkur xujjatdagi ma’lumotlar metodik xarakterga ega bo‘lib, ular shunday tuzilganki, axborot xurujining mazmun-mohiyatini anglay oladigan har qanday shaxs uni faoliyatida ishlatishi mumkin.

Xalqaro axborot makonida hali ham amaliy ustunlik AQSH rahbarligidagi yetakchi harbiy mamlakatlari tomonida bo‘lib, ularning bugungi kundagi asosiy maqsadlari quyidagilar bilan bog‘liqdir:

- Global informatsion muhitni o‘z qo‘llariga olish, to‘liq nazorat hamda gegemonlik o‘rnatish, Hindiston, Xitoy, Rossiya kabi harbiy kuch-qudrat va strategik maqomga ega davlatlarni siqib chiqarish;
- Eron, MDH davlatlarini, shimoliy Koreya kabi o‘z tamoyiliga ega davlatlarning xalqaro axborot maydonida o‘z o‘rnini topishga yo‘l qo‘ymaslikdan iboratdir.

Mustaqillikka erishgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun ham bunday xavflarni bartaraf etish masalasi jiddiy g‘oyaviy muammolar doirasiga kiradi. G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar murakablashib borayotgan, uning yangi usullari o‘ylab topilayotgan hozirgi kunda ushbu tahdid va ta’sirlarga faqat kuchli g‘oya, o‘zlikni anglash, sog‘lom g‘oyalardan iborat mafkuragini qarshi tura oladi. Shuning uchun ham I.A.Karimov tomonidan yuksak mafkuraviy madaniyatni mujassam etgan “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” tamoyili nazariy jihatdan asoslab berildi va mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ommaviy axborot vositalarining faoliyat dasturlarida keng amaliyotga joriy qilinmoqda.

O‘zbekistonda senzuraning man qilinishi bilan ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar shakllandi.

Mazkur masalaning jamiyatimiz taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida to‘xtalib, davlatimiz rahbari shunday degan edi: “Hozirgi kunda kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari asrida, internet kundan-kunga hayotimizning barcha jabhalariga yanada chuqur va

keng kirib borayotgan bir paytda, odamlarning ongi va tafakkuri uchun kurash hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotgan bir vaziyatda bu masalalarning jamiyatimiz uchun naqadar dolzarb va ustuvor bo‘lib borayotgani haqida gapirib o‘tirishning xojati yo‘q”

Axborot makoni globallashuvning hozirgi bosqichida internetning milliy va xalqaro kompaniyalar, davriy matbuot, TV va radio bilan munosabatlari yanada kengayib, boyib bormoqda. Demak, ommaviy axborot vositalarini faoliyatini yanada liberalallashtirish orqali milliy g‘oya targ‘ibotining kuchaytirish, uning mazmunini oshirish - davr talabi iisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilishga qaratilgan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilgan, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo‘mitasi a’zosi Faxriddin Soliyev. — Xususan, «O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasida qayd etilganidek, «O‘zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, zo‘ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlar man etiladi». E’tirof etish o‘rinligi, ayni paytda bu boradagi qonunchilik tizimi davr ruhiga mos tarzda takomillashib, yangi qonun hujjatlari bilan yanada boyib bormoqda. Zero, axborot makonida tahdidlar bor ekan, milliy axborot makoniga chegara qo‘yib bo‘lmasligini nazarda tutgan holda yoshlarga sog‘lom axborot muhitini yaratib berish, vayronkorlik va buzg‘unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklash, yosh avlod ma’naviy olamining daxlsizligini asrash dolzarb vazifadir.

Shuning uchun xalqaro amaliyotda axborot sohasini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni chuqur tahlil etgan holda qo‘mitamiz a’zolari tomonidan «Voyaga yetmaganlarning sog‘lig‘i va ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotlardan himoyalash to‘g‘risida»gi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur qonunning maqsadi voyaga yetmaganlarni psixologik, jismoniy, ma’naviy va axloqiy rivojiga zarar yetkazuvchi axborotlardan himoyalash, ularning sog‘lom ulg‘ayishi va komil inson bo‘lib voyaga yetishlari uchun qulay muhit yaratishdan iboratdir. Unda axborot materiallarini yoshlar o‘rtasida tarqatish mumkinligini baholovchi ekspertizani tashkil qilish, zararli axborotlar tarqalishiga cheklovlar joriy qilish kabi vazifalar belgilanmoqda.

Tinimsiz axborot oqimi vujudga keltirayotgan muhitda milliy qadriyatlar, azaliy an'analar zavol topishining oldini olish maqsadida axborot xavfsizligini ta'minlash kerak. Xorij telekanallarida nima namoyish etilsa yoki internetda nima targ'ib qilinsa, barchasini qabul qilaverish aslo mumkin emas. Biz ular orasidan imon-e'tiqodimiz, an'ana va qadriyatlarimizga mos keladiganlarinigina saralab olmog'imiz lozim.

Yer yuzidagi axborot almashinuvi mislsiz tezlashgan hozirgi sharoitda Jarbdagi «markazlar» bundan foydalanib, boshqa davlatlar va xalqlar o'rtasida Jarb hayotining buzg'unchi «g'oyalari»ni, jumladan, «ommaviy madaniyat» ta'sirini «erkinlik shabadalari» tarzida yoyishga harakat qilayotgani hech kimga sir emas.

— Tahlillarga ko'ra ayni paytda global tarmoqda o'z joniga qasd qilishni targ'ib qiluvchi 9 ming, hayosiz mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlar mavjud ekan, — deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Shuhrat Dehqonov. — Hozir dunyodagi 42 foiz bolalar va o'smirlar on-layn pornografiya ta'siriga tushmoqda. Shuningdek, kompyuter o'yinlarining 49 foizi zo'ravonlik va yovuzlik, 41 foizi esa o'ta jangari ruhda ekani ham uning oqibatida yuzaga keladigan ma'naviy zararni yanada yaxshi tasavvur qilish imkonini beradi.

«Erkinlik shabadalari» mahsulotlari yoshlardan fikr yuritishni talab etmaydi, aksincha, go'yoki ularni hayotiy muammolardan, turmush tashvishlaridan xalos etadi. O'qishga, bilim olishga emas, balki bir marta beriladigan hayotda «yayrab qolish»ga chaqiradi. Holbuki, buning salbiy natijalari – mehr-oqibatning yo'qolib borayotgani, odob-axloq mezonlariga putur yetayotgani, behayolik va zo'ravonlikning avj olayotgani butun dunyo ahlini tashvishga solmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda ham aloqa va telekommunikatsiya sohasida olib borilayotgan tizimli islohotlar, texnologik modernizatsiya tufayli o'ziga xos zamonaviy axborot makoni rivojlanib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, sog'lom dunyoqarash va mustaqil tafakkurga ega yoshlarni voyaga yetkazish maqsadida ma'naviyat, san'at va ma'rifat maskanlari, kutubxonalar, axborot-resurs markazlarining tarbiyaviy ahamiyatini yanada yuksaltirish, ular faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra bugun mamlakatimizda 1032 ta internet kafe, 939 ta internet provayder, 187 ta davlat axborot resursi,

«Ziyonet» yoshlari axborot portali, 1026 ta axborot-kutubxonasi muassasasi faoliyat yuritmoqda. Albatta, bu boradagi yutuqlarimizni xolis baholagan holda, fikrimizcha, sohadagi ayrim masalalarni hal etishga ham jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim. «Google» kompaniyasi tahlillariga ko'ra bugun O'zbekiston bo'yicha xorijda ro'yxatdan o'tgan internetdagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar 350 ming nafarga yaqinni tashkil qilmoqda. Afsuski, «Doira.uz», «Vsetut.uz», «Sinfidosh.uz», «Muloqot.uz» kabi milliy domenda ro'yxatga olingan saytlardan foydalanuvchilar jamlansa ham yuqoridagi miqdorga yetmaydi.

Mutaxassislarining qayd etishicha, axborot makonida globallashuv va kuchli raqobat jarayoni kechayotgan ayni paytda mamlakatimizda ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha milliy loyihani yaratish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, yosh avlodning mafkuraviy immuniteti, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini yanada yuksaltirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, ularni amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institatlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ota-onalar va pedagoglarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq.

Internet tarmog'ini milliy qadriyat va an'analarimizni o'zida aks ettiruvchi veb-sahifalar bilan boyitish ham bugun oldimizda turgan asosiy vazifalardan biridir. Ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulashda veb-sahifalardan foydalanishni tartibga solish, o'qituvchilarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi eng so'nggi yutuqlar bilan tanishtirib borish, o'quvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan to'garaklarni tashkil qilish lozim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, «Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzuksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin».

Tayanch tushuncha va iboralar: axborot resurslari, ommaviy axborot vositalari, mediakompaniya, internet, axborot – kommunikatsiya texnologiyalar,

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Ommaviy axborot vositalari deganda nimani tushunasiz?
- 2.Mamlakatimiz qonunchi ligidagi ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan bog'liq qanday qonunlarni bilasiz?

- 3.Ommaviy kommunikatsiyalarning ahamiyati nimada?
- 4.Qanday texnologiyalar mediata'lim texnologiyalari deb ataladi va bugungi kunda ularning qanday ahamiyati bor?
- 5.Mediakompaniyalar haqida nima bilasiz?
- 6.Internet qanday tizim va u qachon paydo bo‘lgan?
- 7.“Ommaviy madaniyat” nima va u qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

10-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYATGA OID FANLARNI O`QITISHDA XALQ OG`ZAKI IJODI NAMUNALARI, TARIXIY BITIKLAR, ALLOMALAR MEROSI, BADIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH.

Reja:

1. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda xalq og`zaki ijodi namunalaridan foydalanish.
2. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarning tegishli mavzularinin o`qitishda tarixiy bitiklarga tayanish zarurati.
3. Ta`lim –tarbiya jarayonida ulug` mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o`ziga xos jihatlari.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda xalq og`zaki ijodi namunalaridan foydalanish.

O‘zbek xalqining madaniy merosini o‘rganishda va rivojlantirishda milliy o‘ziga xosligi, ma’naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogika an'analariga suyangan holda ish ko‘rilishi maqsadga muvofiq. Xalq pedagogikasining bola tarbiyasidagi boy tajribalari hayotga to‘la tadbiq etilmaganligi, buyuk allomalaming pedagogik qarashlari, Sharqona urf-odatlar, boy an'analari hayotga joriy etilmaganligi tarbiya borasida talay qusurlaming yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Xalqimizning ko‘p asrli qadriyatlarini, ulkan va boy madaniy merosini chuqr bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. O‘zbek xalqi ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotida katta madaniyatni yaratdi. U yaratgan boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ismoil-al Buxoriy, al-Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Sa'di Sheroziy, Ahmad Yassaviy,

Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Abdurahman Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa buyuk mutafakkirlaming asarlari orqali o‘quvchilar go‘zal axloq, baxt, insof, poklik, iffat, sabr-matonat, mehr-shafqat, sihat-salomatlilik, ota-onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasawurga ega bo‘ladilar. Insoniylik o‘z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya’ni odamlar o‘rtasida o‘zaro yaxshi munosabatda bo‘lish, do‘stlik, ota-onaga sadoqatlik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Ota-bobolarimiz bolalarda yoshlikdan ana shu go‘zal fazilatlarni qaror toptirishga ahamiyat bergenlar.

Hozirgi o‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo‘lib, ular yuksak va o‘ziga xos madaniyatning vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishgan. Dastlabki, tosh quollaridan tirikchilik uchun foydalanishdan ancha takomillashgan mehnat qurollari yasashgacha, undan urug‘chilik, qabilachilik davrlariga kelib, xo‘jalik va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlargacha bo‘lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiyligi madaniyatiga ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Parfiya, Zarafshon vohalari, Parkana kabi o‘lkalarda turli qabila va elatlar yashagan. Bular hozirgi o‘zbek xalqining «ildizi» hisoblangan sak-massagetlar, so‘g‘dlar xorazmiylar, baxtarlar, chochliklar va parkanaliklar kabi qabila va urug‘lar bilan birlashib ketgan va hozirgi Markaziy Osiyo hududidagi halqlarning ajdodlari paydo bo‘lgan.³⁸

Bu elatlar yashagan hududlarda o‘ziga xos madaniy an'analar tarkib top borgan. Eng qadimgi kishilarning dastlabki oddiy istaklari, orzu-umidlari, xislatlari qadimgi eposlarda ulardagi afsonaviy obrozlar qiyofasida o‘z ifodasini topgan. Ruhga sig‘inish - animizmni, ajdodlar ruhiga sig‘inish – totemizm, sehrgarlik kabi diniy e’tiqodlar va marosimlar aks etgan afsonalar, rivoyatlarda eng qadimgi ajdodlarimizning tafakkur dunyosi aks etgan. Ammo bu rivoyatlar, afsonalar, massagetlar, saklar, xorazmiylar, so‘g‘dlar yashagan davrlarga borib taqaladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining xususan o‘zbeklarning madaniyati, tarixiy ildizlari, ijtimoiy, falsafiy, axloqiy diniy, badiiy qarashlari

³⁸ Хошимов. К. ва бошқалар. Педагогика тарихи. Т.: «Ўқитувчи», 1996, 6-бет

shakllana va rivojiana borishining ilk davrlari qadim-qadim zamonlarga borib taqaladi. Avlodu - ajdodlarimizning hayoti, urfodatlari va an'analari, madaniyati, tili va tarixini badiiy-falsafiy jihatdan o'ziga xos tarzda aks ettiradigan xalk og'zaki ijodiyoti nihoyatda boy va xilma-xildir. Miflar – (grek. xudolar, afsonaviy qahramonlar, dunyoning yaratilishi va er yuzida hayotning paydo bo'lishi haqidagi qadimgi xalq rivoyatlar, afsonalar, qaxramonlar to'g'risidagi dostonlar, to'y-sayillarda, xalq laparlar, lirik she'rlar, maqol va matallar, masal va topishmoqlar xalq og'zaki ijodiyoti madaniyatning uzoq tarixiga ega bo'lgan sohalaridir. Ularning ijodkori – barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratgan xalq ommasidir.

Markaziy Osiyo bir necha asarlar osha yuzaga kelgan mif va afsonalar insoniyat ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga, xususan, qahramonlik haqidagi dostonlar paydo bo'lishiga zamin bo'lib xizmat qildi. «To'maris», «SHiroq», «Zariard va Odatida», «Zarina va Strangiya», «Uch og'a-ini botirlar», «Manas», «Qahramon», «Malikai Xusnobod» kabi qissalar, «Alpomish», «Qirqqiz», «Go'ro'g'li», «Avazxon», «CHambil qamali», «Oysuluv» singari dostonlarda ham milliy umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan falsafiy g'oyalar ilgari surilgan.³⁹

O'zbek xalqining "Devsafid", "YAlmog'iz", "Semurg". "YOril tosh", "Guli qax - qax", "Kenja botir", "Xurshid bilan Laylo", "Oltin beshik", "Paxlavon Rustam", "Uch og'ayni botirlar", "Toxir va Zuxra", xullas qaysi bir ertagini olib qaramaylik , ularning hammasida insonparvarlik, mexnatsevarlik, do'stlik, saxovatlilik, ota – onani e'zozlash, xunarning qadriga etish singari axloqiy qoidalar ilgari surilganini guvoxi bo'lamiz. Xalq og'zaki ijodiyotining ajoyib durdonasi, muhim tarkibiy qismi bo'lgan "Go'ro'g'li", "Yodgor", "Rustamxon", "Yusuf bilan Ahmad", "Bahrom va Gulandom", "Vomiq bilan Uzro", singari yuzlab dostonlarning har birida shunday g'oyalar, fikrlar ilgari surilganki, deyarli hammasida jasorat ko'rsatish, ona zamin ozodligi uchun kurash, xalqlar, el – yurtlar ham hamkorligi, milliy hamjixatlik kabi axamiyatini yo'qotmaydigan g'oyalar mavjud.

«Zariard va Odatida» qissasida oila va sevgi masalasi qiz va yigitning erkin huquqiy, mayl-istagi hamda qahramonlik motivlari

³⁹ Туленов. Ж., Фалсафа. Т.: «Ўқитувчи», 1997, 43-бет.

bilan bog‘langan. Qizning qahramonlikni talab qiluvchi shartlarini bajarish an’analari keyingi davrlardagi xalq og‘zaki ijodida, jumladan «O‘g‘uznama», «Alpomish» va boshqa asarlarda ham etakchi masalalardan biri bo‘lib qoladi.

«Xubbi va Erxubbi afsonasi» - (mifalogik afsona) Xorazm mifologik afsonasida Xubbi suv xudosi va kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramon sifatida gavdalanadi.

Juda qadim zamonlarda, Faridun va hatto Jamshid zamonasidan burun, Amudaryoda Xubbi degan bir yigit bo‘lgan ekan. U bir qo‘li bilan baliq tutar, ikkichi qo‘li bilan uni quyoshga tutib turar, baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq eb, Amudaryoda 700 yil yashabdi, daryoni qo‘riqlabdi, biror yomon ruh, hattoki chivin ham daryoga yaqin yo‘llashga botinolmabdi. Xalq suvga ma’mur bo‘lib, shod-xurram yashar ekan. Biroq Jamshid zamonasiga kelib, Xubbi g‘oyib bo‘libdi. Kishilar uni osmon suvlarining hukmroni bo‘lgan qiz o‘g‘irlab olgan deb faraz qilibdilar. Xubbi g‘oyib bo‘lgandan keyin Amudaryoga uning onasi kelibdi. U birinchi bo‘lib qayiq yasabdi, kishilarni qayiqda suzish va dushmanga qarshi suvda jang qilishga o‘rgatibdi. Biroq kunlardan bir kuni Xubbining onasi ham g‘oyib bo‘libdi. Lekin kishilar o‘z homiyalarini, Xubbi va uning onasini unutmabdilar. Ular qayiqlarda Xubbining onasi qiyofasini tasvirlabdilar.

Farg‘ona vodiysida ham Xorazm mifologik qahramoni Xubbi obraziga o‘xshash Erxubbi obrozi yaratilib, ko‘p afsonalarda hikoya qilinadi. Qadim vaqtarda kishilar Ohangaron (Toshkent vodiysi) daryosidan o‘tganda Erxubbidan madad so‘rar ekanlar.

“To‘maris”, “Shiroq”, “Zarina va Strangiya” afsonalarida vatanga muhabbat, yurt tinchligi, o‘z xalqining ozodligi uchun kurashish g‘oyalari ilgari suriladi.

Xalqimiz yaratgan ulkan ma’naviy – axloqiy merosimizga – xalq og‘zaki ijodi namunalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, maqollar va matallarda, rivoyat va asotirlarda ota – bobolarimizning naqadar bag‘ri keng, insonparvar bo‘lganliklarini ko‘ramiz. Xalqimiz tomonidan yaratilgan hikmatlar, donishmandlar pand – nasixatlari, maqollar va matallar, ertaklar va dostonlardagi ta’lim – tarbiyaviy mazmundagi axloqiy g‘oya va qoidalar hozirgi avlod uchun bamisol dono muallim, ustoz vazifasini o‘taydi. Ularda takidlanganidek ochiq yuzli, xush xulqli, odob – axloqli odam farosat soxibi bo‘ladi.

Ajdodlar merosidagi har bir axloqiy qoida kishilarga ma’naviy komillikka va baxt – saodatga erishish haqida saboq beradi. SHarqning o‘git va hikmatlari, donishnomalari, pandnomalari va tuzuklari ezgulik qilish inson hayotining mazmuni va mezoni ekanligi haqida kishilarni yo‘l yo‘riq va qoidalardan ogoh etadi. To‘g‘ri so‘zlash va to‘g‘ri ishslash, halol, pok mehnat qilish, hammaga insof,adolat bilan muomala qilish, olimu fozillar bilan suxbatlashish, kattalarni izzat – hurmat qilish, kichiklarga shafqatli, marxamatli bo‘lish,chin va samimiy do‘stlik inson ma’naviyatining yuksak darajaga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Bir donishmanddan: “Nimani esda saqlab qolib, nimani esdan chiqarish kerak”, - deb so‘rabdilar. U “Agar kishilar senga yaxshilik qilgan bo‘lsalar ularni unutma, agar sen birovga yaxshilik qilgan bo‘lsang unut”, - deb javob beribdi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida chuqur ilmiy asoslangan bo‘lsada, ma’naviy qadriyatlarning ikkala guruhiga mansub barcha qadriyatlarning poydevori (insonparvarlik, bilimdonlik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, kattalarga hurmat, rostgo‘ylik, mehmondo‘stlik va boshqalar) o‘z aksini topgan.

Doston xalq ma’naviy qadriyatlarining qorishik holda mujassamlashtirilgan xalq og‘zaki ijodi shakllaridan biri bo‘lib, unda folklor, musiqa, teatr, she’riyat kabi badiiy-estetik qadriyatlar butunlashtirilgan. Dostonlarda yuksak insoniy fazilatlar baxshilar tomonidan badihago‘ylik yuli bilan tinglovchilarga etkaziladi, uning hissiy ta’sir kuchi orqali sharq xalqlarining chatishib ketgan falsafiy, diniy, axloqiy qarashlari, urf-odatlari, turmushi badiiy tafakkur qilinadi. Dostonlarning tarbiyaviy va ma’rifiy ahamiyati yuksak go‘zallikka, baxt-saodatga erishishning birdan-bir yo‘li maqsad sari qat’iy intilishdan, matonat, mardlik, qahramonlik ko‘rsatishdan iborat.

1998 yil 13 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida» Qaror qabul qildi. «Alpomish» dostoni ajdodlarimiz ijodiy dahosining beba ho badiiy yodgorligi sifatida jahon xalqlari epik ijodining namunalari ichida alohida o‘rin tutadi. Uning mustaqil rivojlanish davrida millat birligi va ma’naviy uyg‘onish, milliy g‘urur va o‘z-o‘zini anglash ramziga aylanganligi, ushbu doston yaratilganligining 1000 yilligi YUNESKO ning 1999 yidagi tadbirlar rejasiga kiritilganligini inobatga olib hamda folklor

merosini avaylab-asrash va avlodlarimizga to‘la etkazish maqsadida qabul qilingan yuqoridagi qarorda uning ahamiyati alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Oriyat xususida:

Alpomish Barchin uchun qo‘yilgan shart bo‘yicha olisha turib, Ko‘kaldoshga bas kelishi qiyin kechadi. SHunda Barchinoy deydi:

Yiqolmasang, to‘ram, navbat tilayin,

Erkak libosini o‘zim kiyayin,

Bor kuchimni bilagimga jiyayin,

Bu qalmoqni tilka-pora qilayin. . . .

Bizning momolarimiz ham shunday oriyatli bo‘lishgan.

Alpomish deydi:

O‘zi o‘lmay kishi yorin berarmi?!

Alpomishning nabiralari ham o‘z yorini jonidan aziz biladi.

Xalq og‘zaki ijodining ma’naviy qadriyatlarini targ‘ib etishdagi ta’sir kuchi, unda xalqning o‘zligi, milliy xarakter xususiyatlarining ochib berilishi bilan xarakterlanadi va ularda xalqning g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy, aqliy, jismoniy madaniyati mazmuni, ma’naviy talab va ehtiyojlari, orzu-umidlari, ta’lim-tarbiya shakl, usul va vositalari o‘z ifodasini topgan.

Necha ming yillar davomida yaratilib, boyitilib bizning zamongacha etib kelgan hikmatlar, maqol va masallar, ertaklar ajdodlarimiz badiiy dahosining bebaxo yodgorligi, o‘zbek xalqining ma’naviy mulkidir. Ularning har biri ajdodlarimiz aql – idroki va tafakkuri, odob – axloki ma’naviyati, bilim boyliklari, hayotiy tajribalari va saboqlarinig ixcham, qisqa xulosasidir.

Maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlari, turmush tajribalari asosida vujudga keladi. SHu sababli, xalq maqollari katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Maqollar mazmun va shakl jihatidan uzoq davrlar mobaynida kam o‘zgarishlarga uchraydi, ular uzoq yashovchanlik xususiyatiga egadir.

Xalq maqollarida muxabbat bilan yoritilgan mavzulardan biri vatanparvarlik hisoblanadi. CHunki insonning insonligi uning kamoloti va eng yaxshi fazilatlari ham Vatan deb ataluvchi muqaddas tushuncha bag‘rida shakllanadi. «Bulbul chamanni sevar-odam Vatanni», «Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas» kabi ko‘plab makollarda Vatan mavzui o‘zining mantiqiy xulosasini topgan.

Xalq maqollarida ilgari surilgan ma'naviyatga oid eng muhim masalalardan yana biri ilm ma'rifatga bo'lgan ixlos, ishonch-e'tiqodni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Ularda bilimli bo'lish, madaniyat, ma'naviyat, kadriyat, ma'rifat asoslarini bilib olish, ulardan amaliy faoliyatda foydalanish inson uchun muhim hayotiy zaruriyat ekanligi aytib o'tilgan.

Xalk og'zaki ijodiyotining deyarli barcha janrlarida ularning ijodkori bo'lgan xalqning mehnatsevarligi, vatanparvarligi, bolajonligi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish kerakligi, ota-onani ardoqlash, o'tmisht ajdodlarimiz merosiga hurmat va e'zozda bo'lish zarurligi o'z ifodasini topgan. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosidan yosh avlodni tarbiyalashda qanchalik samarali, oqilona foydalansak barkamol avlodni voyaga etkazishda yuksak natijalarga erisha olamiz.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarning tegishli mavzularinin o`qitishda tarixiy bitiklarga tayanish zarurati.

Tosh va yozma badiiy bitiglarning topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davrni boshlab berdi. Markaziy Osiyoga arablarning kelishiga qadar yaratilgan yozma adabiyotni o'rganishda O'rxun va Enasoy daryolari yoqasidan topilgan tosh bitiglar alohida ahamiyatga ega. Turkiy halqlarning bu adabiy-tarixiy yodgorliklari VI-VIII asrlarga oid bo'lib, ular turk runiy yozuvlari deb yuritiladi. Turkiylarda tosh bitiglar tarixi uzoq tarixga ega. 1970 yilda Olmaotadan 50 kilometr uzoqlikdagi Esik shaharchasidan topilgan qabrdan Urxun alifbosidagi harflar bitilgan runiy yozuvdagi tosh bitig qo'lga kiritilgan edi. Yozuv qadimgi turk tamg'alarida uchraydigan shakllarga asoslangan bo'lib, unda quyidagi so'zlar bitilgan. «Xonning o'g'li 23 yoshida o'ldi. Issiq elining boshi omon bo'lsin!» Qabr qaysi xonga tegishli ekanligi aniqlanmagan bo'lsa-da, yozuv bundan 2500 yil muqaddam yaratilgani isbotlangan. Demak, runiy yozuvlarning tarixi uzoq, bu yozuvda yaratilgan yozma adabiyot ham shunday qadimiylikka egadir. Lekin mukammal darajadagi tosh bitiglar qo'lga kiritilmaganligi sababli yozma davrni miloddan oldingi davrlardan boshlashga hali vaqt erta.

Runiy yozuvda bitilgan adabiy tarixiy bitiklar Sibir, Mo'g'ulistonning turli joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Qofqaz, Volga bo'yи, shuningdek, Yevropadan topilsa-da, u tarixda O'rxun-Enasoy yodgorligi nomi bilan yuritiladi. Bu yodgorliklarning

topilish tarixi, bitiklarning adabiy-tarixiy qimmati darslik va qo'llanmalarda, bir necha ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan. Jumladan, N. Mallayevning «O'zbek adabiyoti tarixi» (oliy o'quv yurtlarining til va adabiyot fakultetlari uchun darslik), B. To'xliyevning «O'zbek adabiyoti» (9-sinf uchun darslik), «O'zbek adabiyoti tarixi» (Besh tomlik. 1-tom), A. Qayumovning «Qadimiyat obidalari», mualliflar jamoasi tomonidan tayyorlangan «Qadimiy hikmatlar» va boshqa asarlarda yoritilgan. O'rxun va Enasoy bitiglari jahon turkiyshunoslari e'tibori qaratilgan nodir yodgorliklardandir. Qadimgi turkiy yozuvlarni o'qigan birinchi kishi daniyalik professor V. Tomsondir. Shundan so'ng R.Radlov, S.Ye. Malov, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, H. O'rxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov, o'zbek olimlaridan A.Rustamov, G'. Abdurahmonov, N. Rahmonovlar o'rganishgan. Bitiglar qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek tiliga ham o'girilgan. Bu jihatdan A.P.Qayumov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamovlarning xizmati salmoqlidir.

Run yozuvlari qog'ozga, shuningdek, boshqa buyumlarga ham bitilgan. «Irq bitigi» («Ta'birnomा») qog'ozda yozilgandir. Run yozuvi hozirgi Avliyo ota va Taroz shahri yaqinidagi qoyada, Sibir o'lkasida kumush ko'zachalarda bitilgani kuzatilgan. Shuningdek, qadimshunoslar oyna, qayish to'qasi, idish-tavoq, yog'ochga bitilgan runiy yozuvlarni qo'lga kiritishgan.

Tosh bitiklar turkiy xalqlar tarixida favquloddagi yozma adabiyot emas. Ular qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining mantiqan davomi, o'zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi, g'oyasini rivojlantirgan yangi shaklidir. Tosh bitiklardagi arxaik tasvirlar shundan dalolat beradi. I.V.Stebleva, N.Rahmonov va boshqa olimlar tosh bitiklarning bunday xususiyatlarini asoslab bergenlar.

Yodnomalarda bayon qilish usuli va bu usulning uch qat'iy unsurlari—asarda boshlanma, voqyea rivoji, tugallanmaning mavjudligi turkiy, umuman, barcha xalqlar og'zaki ijodiga xos arxaik xususiyatlardir. Tosh bitiklar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining davomi sifatida yuzaga kelganligining asoslari mavjud. Ungin yodnomasi shunday boshlanadi:

Bo'min dastlabki turk xoqonlaridan hisoblanadi. Uning hayoti to'g'risida rivoyat yoki afsonalar yaratilgan bo'lishi kerak, chunki Kul tegin va Bilga xoqon yodnomalarida ham Bo'min haqida eslatilishi shundan dalolat beradi.

Bo'ri qadimdan barcha turkiy xalqlarning totemidir. Ashin urug'i o'zlarini bo'ridan tarqalgan deb hisoblashlari to'g'risida afsonalar mavjud. «Alpomish»da Boybo'ri, «Qo'rquqt ota kitobi»da Boybo'rak obrazlarining yaratilishi, «O'g'uznama»da bo'ri turkiy qavmlarni boshlovchi asosiy qahramon darajasiga ko'tarilishi qadimiyl e'tiqodlar ifodasidir. Enasoy yodnomalaridagi Chuchuk Bo'ri Sangun ismi ham totemlik belgisi bo'lib, u qadimgi turkiy dostonlar bilan yodnomalar o'rtasidagi yaqinlikni ko'rsatadi. Yoki turkiy dostonlarda, masalan, «Alpomish», «Manas», «Qo'rquqt ota kitobi»da ot yaxshilik belgisi, qahramonning eng yaqin safdoshi va do'sti sifatida shakllangan. Urxun yodnomasidagi Kul teginning Bo'z oti ham shunday belgilardan hisoblanadi.

Urxun Mo'g'ulistonning Kosho-Saydam vodiysidagi daryo. Bu guruhga hozirgacha ma'lum bo'lган To'nyuquq, Kul tegin, Bilga xoqon, Ungin, Moyun Chur kabi bitiklar kiritiladi.

To'nyuquq bitigi. Bitik ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa bag'ishlangan. To'nyuquq Qapog'on va Bilga xoqonlarning ham maslahatchisi bo'lgan. Tosh bitik 712-716 yillarda To'nyuquq tirikligi paytida yozilgan. Yodgorlikni 1897 yilda Yelizaveta Klemens eri Dmitriy Klemens bilan birgalikda Shimoliy Mo'g'ulistonning Bain-Sokto manzilidan topishgan. Yodgorlik hozirda o'sha joyda saqlanadi. To'nyuquq bitigi – qahramonlik ruhidagi asardir. To'nyuquq turkiylarning dushman qabilalariga qarshi kurashgan, donoligi, tadbirkorligi, jasurligi bilan ko'p g'alabalarni qo'lga kiritgan sarkadadir. Bitikda uning xizmatlari ulug'lanadi, turk xalqiga sodiqligi madh etiladi. Asardagi voqyealar To'nyuquq tilidan hikoya qilinadi. Turk xalqi boshboshdoqlik, o'zibo'larchilik, beparvolikka berilib, o'z hukmdori atrofida birlashmasdan erkini qo'ldan bergani qahramonning ruhiy kechinmalari orqali beriladi.

To'nyuquq bitigi xotira-memuar shaklidagi dostondir. Unda asosan hayotiy voqyealar hamda mifologik tasavvurlar ifodalangan. To'nyuquq tarixiy shaxs bo'lib, Eltarish xoqonning maslahatchisi edi. Uning yoshligi Tabg'ach- Xitoyda o'tgan. Bu paytda turk xalqi Tabg'achga bo'ysungan. Chunki turk xalqi bosh-boshdoqlikka yo'l qo'yib, o'zini idora etolmagan. Ana shunday tarqoq xalqni To'nyuquq birlashtirdi, ikki bo'lagi otli va bir bo'lagi piyoda bo'lgan 700 kishilik

qo'shini bilan turk mamlakatini tikladi hamda shad (turk xoqonligining oliv unvonlaridan biri) unvoniga ega bo'ldi.

To'nyuquq Bo'yla Baga Tarxon hamda Eltarish xoqonlar bilan mamlakat farovonligi uchun kurashdi. Natijada, xalq to'q bo'ldi. Turklar mamlakatiga yana urush xavfi tug'ildi. Tabg'ach, o'g'uz, qutan qavmlari birlashib, hujum qilishga tayyorgarlik ko'rdi. To'nyuquq Eltarish xoqonga maslahat solganida xoqon uning kuchiga, tadbirdorligiga, donoligiga ishondi va «ko'nglingga kelganini qil» deb buyurdi. To'nyuquq o'g'uzlarning uch ming kishilik qo'shiniga qarshi jangga kirdi, ularni yengdi, yigirma uch shaharni ishg'ol qildi. Jang qishda, qor-izg'irinli kunlarda davom etardi. Qattiq sovuq bo'lsa-da, Irtish daryosidan o'tish va urushishga to'g'ri keldi. Jangda To'nyuquq g'alaba qozondi, dushman shadini ham o'ldirdi, dushmanning oz qismi qochdi, ular Temur qopug'gacha quvib borildi va qo'lga olindi. To'nyuquq Eltarish xoqonga maslahatchi bo'lgan davrda yurt dushmanlari bilan tez-tez jang bo'lib turdi. Jumladan, Eltarish xoqon tabg'achga 17, qutanga 7, o'g'uzlarga 5 marta yurish qildi.

Tosh bitigda ifodalangan bunday tasvirlar xotira-memuar bo'lib, ular asarda epik bayonni, syujetni hosil qiladi. To'nyuquq bitigining boshqa toshbitiglardan o'ziga xos tomoni shundaki, unda yig'iyo'qlov ruhi sezilmydi, aksincha, asarning butun mazmuni qahramonlik tasviri asosida qurilgan. To'nyuquq – jasoratli, o'z xoqoni va mamlakti sharafi uchun kurashgan dono sarkardadir.

Bitigda real hayotiy voqyealar bilan mifologik tasavvurlar uyg'un holatda tasvirlanadi. Mifologik tasavvur hayotiy voqyealarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Tangri xoqonlikka xon berishi, lekin xalq unga itoat etmay, bosh-boshdoq bo'lishi, shu sababli tangri ularni qarg'ashi, nihoyat To'nyuquq tangrining g'azabini anglashi, tangri bilim va madad bergani uchun xalqni birlashtirib, ulkan davlatni qayta tiklashi mifologik tasavvur natijasi hisoblanadi.

To'nyuquq bitigini turkiy yozma adabiyotdagi dastlabki qahramonlik dostonlari namunasi deb hisoblashga asoslar bor. Unda mavzu, syujet, obrazlar tizimi, tasviriy vositalar mahorat bilan yaratilgan. Shuningdek, asar o'ziga xos kompozision qurilishga ega.

Bitik turk xoqoni Eltarish xoqonning kichik o'g'li Kul tegin qabriga qo'yilgan. Kul tegin 731 yilda vafot etgan bo'lib, tosh 732 yilda o'rnatilgan. Bitiktoshdagi voqyealar Kul teginning akasi Bilga xoqon (asli ismi Mo'g'iliiyon) tilidan hikoya qilingan. Asar Kul

tegning jiyani Yo'llug' tegin qalamiga mansub. Asar ikki qismidan iborat, birinchi kichik yozuv – 110, ikkinchi katta yozuv 428 misradan iborat. Kichik yozuvning dastlabki qismida Kul tegning o'z avlodlariga, beklar va xalqqa murojaati beriladi. Turk davlatining chegaralari ko'rsatilgan. Kul tegin qo'shini «Shantung tekisligigacha» (shimoliy-sharqiy Xitoy), «To'quz arslon» — Tibetgacha yetganligi aytildi. Kul tegin qo'shinlari Inju (Sirdaryo)ni kechib, Temir Qopug'gacha (Bo'zg'ala o'tami), so'lda esa Bayirqu (Sharqiy Zabaykal)gacha borgani madh etiladi. Kul tegin turkiy xalqlarni O'teken yerida muqim qolsa, mung bo'lmasligini uqtiradi. Asarning ikkinchi qismida esa Bilga xoqon ajdodlarining tarixi bitiladi. Kul tegning harbiy yurishlari, shaxsiy bahodirligi, vafoti, matom marosimi va marsiyalar keltiriladi. Asarning har ikki qismi ham Ko'k tangriga e'tiqod ruhi bilan boshlanadi. Turkiylar bilan yonma-yon yashagan tabg'achlarning bosqinchiligi, hiylakorligi keskin qoralanadi.

Kultegin yodgorligidagi kichik va katta bitig janr xususiyatiga ko'ra memuar-xotirani eslatadi. Lekin bu asarlarning To'nyuquq bitigidan farqli tomonlari mavjud. Kichik va katta bitig tangrining olamni yaratish haqidagi tasavvurlar tasviri bilan boshlangan. Albatta, bunday tasvirlar epik yo'naliishli katta syujetli asarlarning janr xususiyati talabi natijasidir. Dostonlar avvalida tangri va olamning yaratilishi haqidagi tasvirni berish, so'ngra asosiy voqyeaga o'tish qadimiy adabiy an'ana hisoblanadi.

Kichik bitig ma'lum ma'noda katta bitig uchun muqaddima hisoblanadi. Katta bitigda voqyealar hikoyachisi – bilga xoqon, avvalo, o'zining kimligini tanishtiradi, hayotiy tajribalari, saboqlarini bayon etadi, Kul tegin sharafiga o'rnatilgan yodgorlikning sababi va tafsilotini keltiradi.

«So'zimni tugal eshit!» Bilga xoqonning og'a-inilariga, farzandlariga, xalqiga, beklariga murojaati ana shunday. «So'z» — epik voqyea uch qismidan tashkil topgan: 1. Bilga xoqon qayerda va kimlar bilan jang qilgani tasviri. 2. Turli qavmlar bilan urushish, muloqotda bo'lish, yarashish jarayoninida to'plagan hayotiy tajribalar va ularni «so'z»ni eshituvchilarga bayon etish. Bu qisdagi g'oyaviy xulosani xalqni birlashishga, o'z xoqoni atrofida jipslashishga da'vat tashkil etadi. Bilga xoqon xalq ana shu maqsadga erishishsa, u och bo'lmaydi, farovon yashaydi, deb uqtiradi. 3. Tabg'ach xoqonidan

tosh yo'nuvchi va toshga yozuvchi usta keltirib, mangu yodgorlik tiklagani tasvirlangan.

Bilga xoqon butparastlar bu yodgorlikni sig'inish belgisi deb tushunishsa, yanglishadilar, deb ta'kidlaydi. U budda sanami emas, balki turkiylar tarixi bitilgan boqiy yodgorlik ekanligini uqtiradi. Kichik va katta bitikdagi epik voqyelik bir-biri bilan mantiqan bog'lanadi. Kichik yozuvdagagi «ne-ne so'zim esa mangu toshga urdim» kabi satrlardagi «so'z»ning javobi katta yozuvda o'z ifodasini topadi.

Kultegin katta bitigida ifodalangan mazmun yirik eposlar darajasidadir. Kul tegin obrazi qahramonlik ruhiyati bilan Alpomish va Manas kabi obrazlarni esga soladi. Asar muallifi Yo'llug' Tegin Kul teginga xos bahodirlilik xususiyatlarini ko'rsatish uchun uning tarixiy ildizlarini ochadi, ota-bobolari jasoratlarini ko'rsatib o'tadi.

Katta yozuv m'lum ma'noda turkiy alp xoqonlar shajerasi, jasorati madh etilgan qo'shiqdir. Asarda dastlabki turk xoqonlari Bumun xoqon, Istami xoqonlar ta'riflanadi. Ular shu qadar shuhrat topishgan ediki, ular vafot etganlaridan so'ng yig'isiga tabg'ach, tunut, avar, rum, qirg'iz, o'g'uz, tatar, xitoy va boshqa mamlakatlardan odamlar kelib yig'lashgan. Shundan so'ng bitikda Eltarish xoqon madhiyasi keltiriladi. Uning vafotidan so'ng xoqonlikni o'g'li-asardagi voqyealar hikoyatchisi egallyaydi. Alp xoqonlarga xos jasorat, turkiy qavmlarni birlashtirish va ularning turmushini yaxshilash uchun kurash Bilga xoqon tomonidan davom ettiriladi.

Katta bitikda ko'plab tarixiy shaxslar obrazi yaratilgan. Asarning bosh qahramoni Kul tegindir. U Bilga xoqonning ukasi, otasi vafot etganida yetti yoshda edi. Qirq yetti yoshida o'zi ham olamdan o'tadi. Asarning kichik bitigi hamda ikkinchi bitikning dastlabki qismlari xotira-memuar usulida bitilgan bo'lsa-da, Kul tegin qahramonligiga oid tasvirlar uning tarixiy qahramonik dostoni janri namunasi ekanligini oydinlashtiradi. Bitikda Kul teginning bo'z, to'ruq, oq qora otlarni minib, yovga tashlanishi tasvirlari bu asar bilan turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi qahramonlik eposlari o'rtasida g'oyaviy yaqinlik borligini ko'rsatadi. Alpomish, Manas, Maaday qora kabi obrazlar yuzaga kelishiga Kul tegin kabi tarixiy shaxslar qahramonligi asos bo'lgan deb hisoblash mumkin.

Bilga xoqon turkiy xoqonlardan biridir. U yigirma yillik xukmronlik davrida turk elini bosqinchilar xurujidan ozod qildi. Bilga

xoqon Eltarish xoqonning katta o'g'li – Qul teginning og'asidir. U 734 yilda, ellik yoshida o'z yaqinlaridan biri tomonidan zaharlab o'ldirilgan. Bitig Yo'llug' tegin tomonidan yozilgan. Vaqt o'tishi bilan bitig tosh ag'darilib, yozuvlarning ma'lum bir qismi yetib kelgan.

Bilga xoqon haqidagi ta'riflar Qul tegin yozuvlarida ham berilgan. Bilga xoqon yozuvida esa uning xalqlarni birlashtirish, mamlakatni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash uchun qilgan ishlari bayon etiladi. Bilga xoqon o'n yetti yoshida Tibet (Tuput), so'ngra Tangutga, o'n sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha so'g'd, tabg'ach, o'ng tutuq, basmil, idiqut yurtlariga yigirma ikki yoshida yana Tabg'achga, yigirma olti, yigirma yetti yoshida qirg'iz, turgash yurtlariga yurish qilganligi ifodalanadi. Bitigda ko'ziga faqat molmulk ko'ringan davlat boshliqlari qoralanadi, ular gumrohlar deb aytildi.

Ungin bitigi. Bitig Mo'g'ulistondagi Ungin daryosi bo'yidan topilgan. Eltarish xoqonning yaqinlaridan biri Eletmis yabg'u va uning o'g'li Cho'ryo'g'a sharafiga qo'yilgan deb taxmin qilinadi. Bitigda Eltarish xoqonning turk xalqini oyoqqa turg'izib, mamlakatni qayta tiklashi hikoya qilinadi. Bitig so'ngida xoqonning tarixiy xizmati haqida ham fikr yuritiladi.

Moyun Chur bitigi. Bitigni 1909 yilda fin olimi G.I.Ramstedg Shimoliy Mo'g'ulistonning Selenga daryosi bo'yidan topgan. Moyun Chur – uyg'ur xoqoni bo'lib, bitig tosh 759 yilda o'rnatilgan. Yozuvda turkiy qavmlar o'rtasidagi jangavor yurishlarning tafsilotlari Moyun Chur tilidan htkoya qilinadi. Voqyealar Selenga daryosi atrofida bo'lib o'tadi. Uyg'urlar davlati obod edi. Unga avval Bilga xoqon, keyin Bo'yla Bag'an Tarxan (hukmdor, qo'mondon) xoqonlik qilishgan. Bo'yla Bag'an Tarxan shad (turkiy xoqonlar sazovor bo'lган eng oliy harbiy unvon)ga ega edi. Bu paytda Moyun Chur 26 yoshda edi, otasining qo'shinida mingboshi vazifasini bajarardi. Qarluqlarga qarshi jangda ishtirok etardi. Bitikda Bo'yla Bag'a Tarxan vafot etishi, xoqonlik Moyin Chur qo'liga o'tishi, lekin xalqning bir qismi Tay Bilga Tutuqni xoqon deb e'lon qilishi, Moyun Chur esa hokimiyatni qo'lga kiritish uchun unga qarshi kurashishi voqyealari aks etgan. Moyun Chur bitigi ko'proq tarixiy qimmatga ega. Jang yillari, joy nomlari, qahramonlarning ismi va unvonlari aniq ko'rsatiladi. Bitikda xalq maqollaridan ham unumli foydalanilgan.

Masalan, «G’am o’z uyingda» maqoli bir qavmdan o’z qavmiga qarshi chiqqanlar tasvirini umumlashtiradi. Moyun Chur qo’rqmas, adolatli, turkiy halqlarni ahillikka chaqiruvchi, bo’ysunmaganlarga nisbatan shafqatsiz xoqon ekanligi ko’rsatilgan. Uning obodonchilikka, xususan qo’rg’onlar, shaharlar qurilishiga rahnamoligi aniq dalillar bilan tasvirlangan.

Tangridan bo’lgan, davlatni barpo qilgan Bilga xoqon Tulis, tardush xalqini ushlab turdi. O’tukan atrofidagi xalq bu ikki tog’ oralig’ida edi. Suvi Selenga daryosi edi. U yerda davlat gullabyashnagan. Qo’shini, u yerda qolgan xalqi, o’n uyg’ur va to’qqiz o’g’uz xalqini yuz yil boshqargan. Turk qipchoqlar bizning ustimizdan ellik yil hukmronlik qildi. Men yigirma olti yoshda edim. Yigirma olti yoshimda otamga shad unvonini berdi. U yerda Bo’yla bag’a tarxan mening otam edi. U turklarni bo’ysundirib qaytdi. To’qqiz o’g’uz xalqimni birlashtirdim. Otam Kul bilga xoqon o’z qo’shini bilan ketdi. Meni esa mingboshi qilib jo’natdi. Men Qayradan o’ngga burilishim kerak edi. Turklarni bo’ysundirib, yana oldinga yurdim. Qayra daryosi boshida uch Birkuda xoqonning qo’shini bilan to’qnashdim. U yerda ularni quvdim. Qora qum (hozirgi Gobi)ni oshib o’tdik. Ko’gurda, Ko’mir tog’ida Yar daryosi bo’yida bayroqli turk xalqiga O’zmish tegin xon bo’lgan ekan. Qo’y yilida unga yurish qildim. Turkлага qarshi ikkinchi jang birinchi oyning oltinchi kuni bo’lib o’tdi. Jangda O’zmish teginni asir qildim, xotinini ham u yerda asirga oldim. Turk xalqining davlati u yerda tugadi. Undan so’ng kelgusi yilda yana hujum qildim.

Eletmish Bilga xoqon bitigi. Yozuv qahramonlik jangnomasi ruhidagi yodnomadir. Unda o’z xalqidan kuch olib, dushmani egallagan joyidan quvgan Bilga xoqonning kechinmasi berilgan. U o’z eli va davlatini mustahkamlashning sababini yuqorida Ko’k osmon – Ko’k tangri, pastda qo’ng’ir yer tarbiyalagani va madad bergani, deb tushunadi.

Ta`lim –tarbiya jarayonida ulug` mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o`ziga xos jihatlari.

Ma’naviy yetuk insonni tarbiyalash uchun qaysi manbalarga tayani kerakligi avval boshidanoq aniq ko’rsatib va qayta-qayta ta’kidlab kelinmoqda. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros milliy ma’naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun

kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo‘yipti, faqat uni xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug‘ an’ana – ulug‘ bobolarimiz, dunyoga dong ta-ratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o‘z muqaddas mulki deb tan olgan ma’naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala – milliy ma’naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va birinchi navbatda, yosh avlod e’tiborini jalg etish maqsadini ko‘zda tutadi.

Islom Karimov xalq ma’naviyatini yuksaltirish deganda nimani ko‘zda tutganligini hali mustaqillikka erishmasimizdan - 1990 yili O‘zbekiston Prezidenti sifatidagi birinchi nutqidayoq ochiq-oydin bayon etgan bo‘lib, ushbu ma’ruzada inson ruhiyatining nozik va murakkab tomonlari bilan, “xazinalarga to‘la milliy-tarixiy an’analar bilan, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik” yaqin o‘tmishimizda jamiyatimizga qanchalar zarar keltirganligi qayd etilib, bu sohada yangicha vazifalar olg‘a surilgan edi:

“Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish, so‘zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e’tiqodining erkinligini ta’minlashimiz kerak”¹.

Yosh avlodga milliy qadriyatlarimiz va boy tariximizga bo‘lgan mexr – muhabbatni ularning qalbiga singdirish va buyuk allomalarimiz nasihatlariga amal qilgan holda ta’lim tarbiya berishimiz kerak. Chunki buyuk allomalarimiz o‘z asarlarida sog‘lom turmush tarzi haqida, komillikka erishish yo‘llari haqida juda ko‘p fikrlarni bayon etganlar. Masalan, buyuk alloma, butun dunyoga mashhur bo‘lgan tibbiyot olamining eng buyuk namoyondalaridan biri Abu Ali Ibn Sino o‘zining falsafiy asarlarida yaxshilik va yomonlik,adolat va adolatsizlik, saxiylik va baxillik, sevgi va nafrat, poklik va nopoliklik, kamtarlik va takabburlik, singari odob – axloqqa taallukli masalalarga alohida e’tibor bilan qaraydi. Allomaning “Axloq haqida risola”, “Burch haqida risola”, “Nafsni pokiza tutish

¹ Karimov.I.A. Istiqlol va ma’naviyat. T.-«O‘zbekiston»- 1994, 65-66 –b.

haqida”, “Tib qonunlari”, “Solomon va Ibsol”, “Xikmat buloqlari” asarlarida kishilar amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladigan yaxshi va yomon xulqlarning mazmun - mohiyati va ularning paydo bo‘lish sabablari haqida keng ma’lumot berilgan.

“Dunyoda mavjud jami borliq, - deb yozgan edi Ibn Sino “Risolai ishq” asarida, - o‘z tabiatiga ko‘ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilish esa o‘z mohiyat – etiborla yaxshilikdir.”

Ibn Sino (980-1037) ning odob – axloq va insonparvarlik haqidagi ta’limoti katta ilmiy – amaliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ta’limot, inson olami rivojlanishining toji bo‘lib, u “buyuk sharaf va hurmatga loyiqdir”, degan fikrga asoslanadi. Uning tushuntirishicha, inson olamdagи mavjudodlar ichida eng buyuk zotdir, farishtalardan ham sofrok va pokroqdir. SHuning uchun ham alloma har bir kimsadan inson nomiga loyiq bo‘lishni talab qiladi.

Tariximizda barkamol insonni tarbiyalashda betakror asarlari bilan o‘z hissasini qo‘sghan allomalardan yana biri Abu Nasr Forobiy(873-950) dir. Forobiyning ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limoti negizida inson va uning aql – idroki singari masalalar turganligi etiborga sazovordir. Uningcha inson o‘zining faol aql – idroki, qobiliyati, istedodi, tafakkuri yordami bilan tabiatni, borliqni biladi. SHuning natijasida inson ulug‘ baxtga erishadi.

Ma’naviyat va ma’rifat borasida buyuk vatandoshimizning yana bir xizmati – odamlar va davlatlar, hokimu hukumdorlarning o‘zaro do’st inoq hamjihat qon – qarindosh bo‘lib hayot kechirishga, mehr – oqibat ko‘rsatishga da’vat etganligidir.

“Fozil odamlar shaxri ” kitobida Forobiy inson insonsiz yashay olmaydi, faoliyat ko‘rsata olmaydi, yaxshi kunlarda ham, yomon kunlarda ham odam odamga g‘animat degan ulkan falsafiy va umumbashariy g‘oyani ilgari surgan.

Forobiy “Baxt – saodatga erishuv haqida” risolasida har bir insonning tug‘ma tabiatida va unga lozim bo‘lgan har qanday harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko‘pchilik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odam jinsidan bo‘lgan har qanday insonning ahvoli shu, u har qanday kamolotga erishuvda boshqalarning ko‘maklashuviga muxtojdir degan.

Forobiy o‘zining ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limotida ilm asoslarini o‘rganish, o‘zlashtirib olish masalasiga jiddiy e’tibor

berganligi bejiz emas. CHunki, bilim ma’naviy, axloqiy, aqliy kamolotning tarkibiy qismlaridan biridir.

Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt – saodatga erishuvdan iborat. Kishilar bunga olamni o‘rganish, kasb – hunar va ilmlarni o‘zlashtirish – ma’rifatli bo‘lish orqali erishadi deb qaraydi.

Farobiyning ta’lim tarbiya yo‘llari, usullari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U “insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l – ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan amalgalashiriladi. Xar ikkalasi birlashsa etuklik namoyon bo‘ladi” deydi. Forobiy yaratgan ta’limotlar tizimida ta’lim – tarbiya uning mazmun mohiyati, asosiy maqsad va vazifalari, amalgalashirilish yo‘llari insonning ma’naviy – axloqiy kamolotini amalgalashirishdagi ahamiyati kabi umumbashariy masalalar katta o‘rin tutadi.

Xorazmlik buyuk olim Abu Rayxon Beruniy (973-1048) asarlarida ham yosh avlodning baxt – saodati, istiqboli, ta’lim – tarbiyasi, odob – axloqi, burchi ma’suliyati bosh muammo hisoblanadi.

Abu Rayxon Beruniyning yoshligidanoq ilm – fanga qiziqishi katta bo‘lgan. Yoshi 80 dan oshganda yozgan “Saydana” asarida Beruniy yoshligini eslab shunday deydi: “Men bolalik chog‘imdayoq o‘z yoshim va sharoitimga qarab, imkonim boricha ko‘prok bilim olishga chanqoq edim. Biz turadigan joyga bir yunon ko‘chib keldi. Men har xil donlar, urug‘lar, mavalar va hokazolarni olib borib unga ko‘rsatar va bu narsalar uning tilida qanday atalishini so‘rab olib, yozib qo‘yar edim.”

Beruniy daxosiga mansub 160dan ortiq nodir asarning atagi 30tasi bizgacha etib kelgan xolos. Lekin bizga meros qolgan “Kadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Xindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya”, “Konuni Ma’sudiy”, “Saydana” nomli kitoblarining o‘zi ham allomamizning naqadar buyukligini asoslab turadi.

Alisher Navoiyning ma’naviyat va ma’rifat haqidagi ta’limotining umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim jihatlaridan biri farzandlar tomonidan ota-onalarni hurmat qilishlari hakidagi o‘gitlaridir. U ota-ona xizmatini bajo keltirish, ulardan birini ikkinchisidan ortiq-kam bilmaslik farzandlar uchun saodat keltirishini alohida ta’kidlaydi, shunday e’tirof etadi: “Tarbiyaning yana biri ota-

onani hurmat qilish; buni bajarish uning uchun majburiydir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmating qancha ortiq bo'lsa ham,kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyoing obod bo'lishini istasang,shu ikki odamning roziligin ol!...Birisin oy deb bil ikkinchisini quyosh".¹

Alisher Navoiyning "Mahbub-ul-qulub", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik", Ahmad Yugnakiyning "Xibbat-ul-xaqoyiq", Sa'diyning "Guliston", Jomiyning "Bahoriston", kabi asarlarida kishilarini, ayniqsa voyaga etib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalashda da'vat etadigan pandu nasixatlar, o'gitlar yoritilgan.

Ajdodlarimiz merosi yosh avlodlarimizga ham ma'naviy, ham ma'rifiy, ham tarbiyaviy tasir ko'rsatadi. SHuning uchun yosh avlodlarga ajdodlarimiz qilgan ishlarini ko'prok misol keltirishimiz kerak. Tarixsiz kelajak yo'q deganlaridek, barkamol avlodni voyaga etkazish uchun tarixga nazar solishimiz kerak. Darhaqiqat, shuni takidlash joizki barkamol avlodni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi katta ahamiyatga ega.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ajdodlarning ma`naviy merosi, xalq og`zaki ijodi, turkiy tosh bitiklar, komil inson, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, O`rxun-Enasoy tosh bitiklari, Kultegin, Bilga xoqon, Iрq bitigi, afsona, rivoyat, maqol.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

1. Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirishda xalq og`zaki ijodi na`munalarining ahamiyati qanday?
2. Qadimgi turkiy tosh bitiklarda aks etgan ma`naviy merosning mazmun mohiyati nimalardan iborat?
3. Ajdodlarimiz merosida tasvirlangan komil inson g`oyasi va uni tarbiyalash yo'llari nimalardan iborat?
4. Bugungi kunda yuksak ma`naviyatli yoshlarni tarbiyalashda milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarning ahamiyati qanday?
5. Ma`naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni sanab bering.

¹ Alisher Navoiy. Xayrat-ul-abror.T; 1974. 55-b.

11-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYATGA OID FANLARDA AUDITORIYADAN TASHQARI ISHLAR, ULARNING TURLARI.

Reja:

- 1.Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar bo`yicha to`garaklarini tashkil etish va ularning ish rejasini tuzish.
- 2.Talabalarni bo`sh vaqtlaridan unumli foydalanishga yo`naltirish.
3. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to`g`risida.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar bo`yicha to`garaklarini tashkil etish va ularning ish rejasini tuzish.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan, fan-texnika yutuqlarini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk kasb egalarini tayyorlash masalasi turibdi. Bu masalani hal etishda darsdan tashqari olib boriladigan to`garaklar faoliyatining ahamiyati katta.

To`garak ishlarini tashkil etish ma`lum meyoriy-huquqiy hujjatlarini ishlab chiqishdan boshlanadi. To`garakda talabalarning bo`sh vaqtlarini to`gri tashkil etish, ularga qo`shimcha ta`lim tarbiya hamda tanlagan to`garak yo`nalishi bo`yicha bilim, ko`nikma va malaka hosil qilishni o`rgatishdan iborat.

Quyida misol sifatida “Yosh ma`naviyatshunos” to`garagining Nizomini keltirilgan:

“Yosh ma`naviyatshunos” to`garak NIZOMI

I bob Umumiyl qoidalar

1.1 **Yosh ma`naviyatshunoslар to`garagi** talaba-yoshlarning bo`sh vaqtini mazmunli o`tkazish hamda mutaxassislik doirasida nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashga va mustahkamlash uchun zamin yaratish. Talaba-yoshlarning iqtidorlarini kengaytirishga g`oya va ixtiolarini ommalashtirishga har tomonlama ko`maklashish.

1.2 Ushbu nizom “Ta`lim to`g`risida”gi, O`zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yuritiladi hamda “Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida”gi O`zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq yuritiladi.

1.3 Yosh ma`naviyatshunoslar to‘garagi o‘z faoliyatini ilmiylik, ixtiyorilik, qonuniylik, oshkorlik, a’zolar (ishtirokchilar)ning teng huquqligi tamoyillari asosida amalga oshiradi hamda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan va oliv ma’lumotli yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’limning vorisiyligini ta’minlashni nazarga tutadi

II bob To‘garakning maqsad va vazifalari

2.1. Yosh ma`naviyatshunoslarning asosiy maqsadi talaba-yoshlarning bakalavriat ta’lim fanlari bo‘yicha qo‘srimcha ravishda chuqur bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish hamda ma’naviy va kasbiy saviyasini yuksaltirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishdan iborat.

2.2. To‘garakning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 5 tashabbus doirasida har bir talabaning o‘z iqtidorini namoyon etish;
- olgan bilimlarni to‘ldirishi va rivojlantirishi;
- ilmiy, ma’naviy dunyoqarashni hamda ijtimoiy faollikni rivojlantirish;
- insonparvarlik, vatanparvarlik va yuksak-ma’naviy axloqiy tafakkurni rivojlantirish;
- to‘garak jarayonining belgilangan fan doirasida mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, mutaxasis kadrni shakllantirishga yo‘naltirish.
- talaba-yoshlarning muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga o‘rgatish.

To`garak Nizomi qabul qilingandan so`ng to`garakning yillik ish rejasi ishlab chiqilib tasdiqlanadi. Yillik ish rejada har oyda qaysi mavzuda mashg`ulotlar olib borish, qaysi sanalarda mashg`ulotlar o`tilishi, kim tomonidan mashg`ulotlar olib borilishi va mashg`ulotlardan olinadigan natija elgilanishi kerak.

To`garak ish rejasidan namuna:

**“Yosh ma`naviyatshunoslar” to‘garagi kengashining 20__-
20__o‘quv yili uchun mo‘ljallangan ishlar rejasi**

I. TASHKILIY ISHLAR

| № | Rejalashtirilgan tadbirlar mavzulari | Mo‘lajall angan vaqtি | Masul shaxslar | Kutilayot gan natija |
|----------|---|--------------------------------------|----------------------------|-------------------------------------|
| 1 | To‘garak maqsad va vazifalarini belgilash, yilik ish rejasi ishlab chikish, “Yosh ma’naviyatshunoslar” to‘garagi a’zolarini tayinlash yohud suhbat o‘tkazish. | Sentyabr 11.09.20y. 23.09.20y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 2 | Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minalash. | Oktyabr 09.10.20y. 21.10.20y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 3 | Saylov huquqi erkinlik – fuqarolik jamiyatining sharti. | Noyabr 13.11.20y. 27.11.20y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 5 | Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustivor sharti. | Dekabr 11.12.20y. 23.12.20y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 6 | YOshlarni ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 muhim tashabbus. | YAnvar 08.01.21y. 20.01.21y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 7 | Fuqaro, fuqaroviylit va faol fuqarolik pozitsiya. | Fevral 12.02.21y. 24.02.21y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 8 | O‘zbekiston yoshlari buzg‘inchig‘oyalarga qarshi. Xalqaro ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish va maqola tayyorlash. | Mart 11.03.21y. 24.03.21y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 9 | Ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish va maqola tayyorlash. Maqola yozish tartibi va protsedurasi. | Aprel 21.04.21y. 28.04.21y. | kafedra o‘qituv-chilari | |
| 10 | Xalqaro jurnallarga Koleforniya va CHikago uslubida maqola | May 17.05.21y. | kafedra o‘qituv- | |

| | | | | |
|----|---|----------------------------------|----------------------------|--|
| | tayyorlash. Qat’iy tartib intizom hamda shaxsiy mas’uliyat | 28.05.21y. | chilari | |
| 11 | Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib etish | Iyun 09.06.21y. 25.06.21y. | kafedra o‘qituv-chilari | |

III bob.Yakunlovchi xulosalar

3.1. Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida to‘garak o‘z faoliyatining turli yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar Dasturini qabul qilishi mumkin.

3.2. **Yosh ma`naviyatshunoslar to‘garagiga** fakultet rahbari tomonidan to‘garak kengashi rejasi tasdiqlanib hamda to‘garak biriktirilgan rahbari tomonidan to‘garak yillik rejasi tuziladi.

3.3. Fakultetda kafedralar qoshida tashkil qilingan to‘garaklar o‘zaro hamkorlikda “klaster” usulida faoliyat olib borishini ta’minlash fakultet dekani tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkil qilingan to‘garaklar yuqoridagi ish reja asosida olib boriladi. Har bir tashkil qilingan to‘garak o‘z maqsad, vazifasidan kelib chiqib ish rejasini shakllantiradi.

Talabalarni bo`sh vaqtlaridan unumli foydalanishga yo`naltirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 mart kuni yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini singdirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati xabar berdi.

Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinci tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ana shu ezgu g'oya Prezidentimizning Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida boshlanib, qisqa vaqtda ulkan ishlar amalga oshirildi. Sirdaryo viloyatidagi tuman va shaharlar kutubxonalariga 300 ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Musiqa va san'at maktablari cholg'u asboblari, sport obyektlari jihozlar bilan ta'minlandi.

Bu ishlar Namangan viloyatida ham davom ettirilib, "Ma'rifat karvoni" tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdag'i sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi.

Bir so'z bilan aytganda, ushbu 5 ta tashabbus xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Yig'ilishda mazkur tajribani mamlakatimizning barcha hududida keng joriy qilish masalalari muhokama etildi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san'at maktablariga atigi 130 ming nafar o'g'il-qiz qamrab olingani, ushbu muassasalarning aksariyati o'quv qo'llanmalari, notalar to'plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani ko'rsatib o'tildi. Davlatimiz rahbari joylardagi madaniyat markazlari, musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasi va ulardan foydalanish holatini o'rganib, ularning faoliyatini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo'shimcha 1,5 mingta to'garak tashkil qilish vazifasi qo'yildi. Tashabbuskor

iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalg etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi.

Atoqli san’atkor va iste’dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko‘makchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olinib, bu tajribani butun respublikaga yoyish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o’sha joylarda madaniyat va san’atni rivojlantirishga mas’ul bo‘ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi.

Musiqa va san’at sohasida oliy ma’lumotli kadrlarni ko‘paytirish masalasiga ham e’tibor qaratildi.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim hamda Xalq ta’limi vazirliklariga muayyan mavzular bo‘yicha tarix darslarining muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor o‘tkazilishini tashkil qilish topshirildi.

Ikkinchi tashabbusga doir masalalar muhokama qilinar ekan, mamlakatimizda 12 mingdan ziyod sport inshootlari borligi, lekin yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga qamrab olish darajasi yetarli emasligi qayd etildi. Umumta’lim maktablarining sport anjomlari bilan jihozlanish ko‘rsatkichi respublika bo‘yicha 56 foizni, jumladan, Surxondaryo viloyatida 12 foizni, Xorazmda 14 foizni, Qoraqalpog‘istonda 15 foizni tashkil etadi, xolos.

Yig‘ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalg etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi.

Tuman va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rbbosarlariga mutaxassislar bilan birgalikda yoshlarning sport turlariga qiziqishi hamda sport inshootlarining jihozlanish darajasini o‘rganib, shu asosda takliflar berish, Vazirlar Mahkamasiga ularni amalga oshirish uchun zarur mablag‘lar manbasini aniqlash vazifasi qo‘yildi.

Olis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich-panellardan kichik sport zallari va sun’iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari tashkil etish uchun yer ajratish zarurligi ta’kidlandi. Bunday tadbirkorlarga “O‘zmilliybank” tomonidan “Yoshlar — kelajagimiz” dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratiladi.

Joylardagi sport maktablariga xalqaro musobaqalarda g‘olib bo‘lgan taniqli sportchilarni rahbar etib tayinlash, shuningdek, sportchilarni oliy o‘quv yurtlarining maxsus sirtqi bo‘limlarida maqsadli o‘qitish yaxshi natija berishi qayd etildi. Bolalar-o‘smirlar sport maktablari sonini ko‘paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Videoselektorda yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida barcha shahar va tumanlar markazlarida Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarini tashkil etish bo‘yicha topshiriq berildi. Bu markazlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o‘rgatiladi, axborot texnologiyalari sohasida tadbirkorlik bilan shug‘ullanish bo‘yicha innovatsion ko‘nikmalar beriladi, “startap” loyihalarga yordam ko‘rsatiladi.

Bugungi kunda barcha maktablarda kompyuter texnikalari bo‘lishiga qaramasdan, internet xizmatidan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021 yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o‘yinlari markazlarini tashkil etish, ularda yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi.

Yoshlarda bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo‘llarida mustahkam zamin bo‘ladi.

Lekin ko‘plab qishloq va mahallalarda buning uchun zarur sharoit mavjud emas. Ilgarigi kutubxonalar o‘rnida tashkil etilgan “Axborot-resurs markazlari” o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmadi.

Shu holatlarni hisobga olib, yangi tashabbus doirasida yoshlarni kelib chiqqan holda joylarga qo‘srimcha kitoblar yetkazib berish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga “Kitob karvoni” loyihasi doirasida badiiy, ma’rifiy, ijtimoiy mavzularda

kitoblar chop etish hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxdan kam bo‘lmagan miqdorda yetkazib berish bo‘yicha topshiriq berdi.

Yig‘ilishda mahalliy hokimliklar har bir shahar va tuman markazida bittadan namunali kitob do‘konni tashkil etishi kerakligi ta’kidlandi. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga barcha shahar va tumanlarda ko‘chma kitob pavilyonlarini joylashtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda “Bibliobus”larni yo‘lga qo‘yish orqali qishloq va ovullar aholisiga kutubxona xizmati ko‘rsatish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta’minalash masalalari ham muhokama qilindi.

Shu maqsadda 2019-2020 yillarda barcha tumanlarda sendvich-panellardan 195 ta tikuv-trikotaj korxonalarini qurish belgilangan. Ularni qurish uchun aholi zinch yashaydigan, mehnat resurslari ko‘p joylar tanlab olingan. Bu korxonalarini tashkil etish natijasida xotin-qizlar uchun 24 mingdan ortiq doimiy ish o‘rni yaratish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz mehnat qilish istagidagi ayollar ish o‘rinlari sonidan ancha ko‘pligini hisobga olib, korxonalarda ishni 2 smenada tashkil etish, ularda xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta’kidladi.

Yig‘ilishda qayd etilgan 5 ta tashabbusni keng joriy qilish maqsadida barcha hududlarga mutasaddi rahbarlar mas’ul qilib biriktirildi. Shuningdek, bu vazifalarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi, Toshkent shahri, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimlari, “Nuroniy”, “Mahalla” jamg‘armalari, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ittifoqi rahbarlari shaxsan mas’ul va javobgar etib belgilandi.

Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soha va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-

intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ushbu yo‘nalishda tegishli huquqiy-me’yoriy bazani mustahkamlash, tashkiliy-amaliy ishlarni zamon talablari asosida olib borish, bu masalaga keng jamoatchilikni jalb etish bo‘yicha keyingi paytda birmuncha ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidlash lozim.

Ayni vaqtda o‘tkazilgan kuzatish va tahlillar bu sohada o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammolar borligi va ularni keng ko‘lamda hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xususan, xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta’lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ayniqsa, noshirlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, yurtimizda sog‘lom raqobatga asoslangan bosma va elektron kitoblar bozorini shakllantirishni bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o‘zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ‘ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida:

1. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Dasturda ko‘zda tutilgan quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilsin:

kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani

takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

kitob mahsulotlari bo‘yicha davlat buyurtmasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko‘rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do‘konlari faoliyatini rivojlantirish;

jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha davlat buyurtmalari berish, ularni zarur nusxalarda yuksak sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralarini belgilash;

axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta’lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning “Ma’naviyat xonalari”ni o‘quv-uslubiy, texnik adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma’rifiy va ilmiy-ommabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

nashriyotlar va matbaa sohasi mutaxassislarini, badiiy va texnik muharrirlar, grafikachi rassomlar, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko‘paytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot-kutubxona markazlaridagi barcha turdagи axborot-kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot-kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta’minalash;

qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini tashkil etish choralari to‘g‘risida tadbirlar rejasi loyihasini tayyorlash va amalga oshirish;

mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va xarid qilish imkonini beradigan eReader elektron o‘quv qurilmalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish, bunday mahsulotlarni arzon

narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

mazmunan sayoz, milliy ma’naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me’yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralarini ko‘rish;

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ‘ibotchilar o‘rtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko‘rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish.

Tayanch so`z va iboralar: to`garak, kitobxonlik, kompleks chora-tadbirlar, “Bibliobus”, axborot-resurs markazi, “Ma’rifat karvoni”.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar bo`yicha to`garaklarini tashkil etishda nimalarga e`tabor berish kerak?
2. Bugungi kunda yoshlarni bo`sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda qanday ishlar amalga oshirilayapti?
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo`yicha 5 ta muhim tashabbusining mazmun- mohiyati nimalardan iborat?
4. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

12-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYATGA OID FANLARNI O`QITISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR INNOVATSIYALAR.

Reja:

1. Milliy goya va ma’naviyatga oid fanlarni o`qitishda yangicha yondashuv va innovatsiyalar.
2. Kompetensiyalarga asoslangan ta’lim tushunchasi, uning mazmun va mohiyati.
3. Milliy g`oya va ma’naviyatga oid fanlarni o`qitishda kompetensiyali yondashuv.

Milliy g`oya va ma'naviyatga oid fanlarni o`qitishda yangicha yondashuv va innovatsiyalar.

Hozirgi davrda ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida ta'lim oluvchilarni qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'qitish muhitining talaba imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi. Bu turdag'i ta'lim talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdag'i ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talabaga imkon qadar individual yondashish, uning shaxsini hurmat qilish, unga ishonch bildirish katta ahamiyatga ega. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihatni ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, talabani ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs

sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagи ta’lim talabalarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o‘zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to‘la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur.

- har bir talabani alohida, o‘ziga xos shaxs sifatida ko‘ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabaning ruhiy holatini to‘g‘ri baholay olishi;
- talabaning xohish-istik, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga nisbatan bag`rikenglik bilan munosabatda bo‘lishi;
- talabaning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba o‘quv fanlari asoslarini yetarlicha o‘zlashtira olishi uchun qulay ta’lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlarga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o‘z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo‘l qo‘yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilishni o‘rgatish;
- ta’lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o‘tkazmasligi;
- alohida talabaning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatmasligi;
- bordi-yu, talaba tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, ta’lim jarayonida o‘zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat’iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabaning sha’ni, g‘ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o‘zlashtira olmaslik, o‘zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta’lim jarayonida har bir talaba uchun “muvaffaqiyat muhiti”ni yarata olish;
- har bir talabaga ta’lim olishda muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;

Talabalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondoshishni, yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o‘z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali echimni topish, bilim, ko‘nikma,

malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi, talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi. Xususan: mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqtira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- muammoli izlanish;
- kichik tadqiqotlarni olib borish;
- debat;
- bahs-munozara;
- evristik suhbat;
- kichik guruhlarda ishslash va b.
- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhdha va jamoada ishslashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga talabalar shaxsining rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. SHuningdek, muhokama qilinayotgan masala, muammo, o'rganila yotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'natirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi.

Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim tushunchasi, uning mazmun va mohiyati.

Bugungi kunda Respublikamizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratilgan. O'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun-mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: «Biz

ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz»¹-deb ta`kidlagan edilar. Hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo’naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o’quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg’or xorijiy tajribalarni o’zlashtirish va maqsadli yo’naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Ta’lim tizimi jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo’naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish tushunchasi bilan belgilanadi.

Kompetentsiya – lotincha “kompitentino” - “to’g’ri kelaman”, “erishaman” degan tushunchani anglatadi.

Kompetentsiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma’lum sohada namoyon bo’lishi

Kompetentlik esa – shaxsning muayyan ta’lim yo’nalishi yoki mutaxassisligi bo’yicha olgan bilim, ko’nikma, malakalari shakllangan shaxsiy sifatlarining mehnat faoliyatida qo’llay olishidir.

Kompetentsiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o’z malakasini amalda qo’llash qobiliyatidir².

Kompetentsiyalar keng ma’noda qobiliyat, ko’nikma, malaka va tushunishni anglatadi. Kompetenli shaxs - bu ma’lum bir sohada yetarli mahorat, bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo’lgan insondir.

Kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo’nalish bo’yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o’zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib

¹ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O’zbekiston», 2017. –22-b.

² B.B.Ma’murov, I.E.Davronov. Pedagogik kompetentlik. Buxoro. “Durdona”. 2021 y. 9-b.

borish, yangi axborotlarni o’rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o’z faoliyatida qo’llay bilishni taqozo etadi.

Shaxsda kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo’ladi:


- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

Kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo’la olishda kompetensiyaga ega mutaxassis esa:

- o’z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o’zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o’z amaliy faoliyatida samarali

qo’llaydi.

Kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:



Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko’rsatish ko’nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kasbiy kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo’lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informasion, kreativ, innovasion va kommunikativ kompetentlik ko’zga tashlanadi. Ular o’zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog’lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o’z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to’g’ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo’llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo’llash;

c) **informasion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig’ish, saralash, qayta ishslash va ulardan maqsadli, o’rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodi yondoshish, o’zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovasion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiyl muloqotda bo’lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o’z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ekstremal kompetentlik – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to’g’ri harakatlanish malakasiga egalik¹.

Bir qator tadqiqotlarda bevosa pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o’ziga xos jihatlari o’rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

¹ B.B.Murov, I.E.Davronov. Pedagogik kompetentlik. Buxoro. “Durdona”. 2021 y. 10-b.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda kompetensiyali yondashuv.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda o`qituvchining kasbiy kompetentsiyasi katta ahamiyatga ega.

O`qituvchining kasbiy kompetentsiyasi - bu pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi, uning kasbiy mahoratidir. O`qituvchi kompetentsiyasining mazmuni talabaga, uning nazariy bilimiga va amaliy tajribasiga qo`yiladigan umumlashtirilgan malakaviy xarakteristikada shakllanadi.

Psixologik va pedagogik bilimlar:

- pedagogikaning metodologik asoslari, toifalari;
- shaxsiy rivojlanish xususiyatlari;
- bolalarning yoshga bog`liq anatomik, fiziologik va aqliy rivojlanish qonunlari;
- ta`lim va tarbiya maqsadi va texnologiyalarining mohiyati.

Psixologik va pedagogik bilimlar o`qituvchining insonparvarlik tafakkurining asosidir.

Psixologik, pedagogik va maxsus bilimlar (mavzu bo`yicha) zarur, ammo kasbiy vakolat uchun yetarli emas. Ularning ko`plari asosida intellektual va amaliy ko`nikmalar hosil bo`ladi.

Pedagogik mahorat - bu izchil rivojlanib boradigan harakatlar majmui, ularning ba`zilari nazariy bilimlarga asoslangan holda avtomatizmga (ko`nikmalarga) olib kelinadi.

Malaka ichki tuzilishga ega: o`zaro bog`liqlik, ko`nikmalar tarkibiy qismlari, nisbatan mustaqil.

Masalan, "suhbatni o`tkazish qobiliyatini" qismlarga bo`lish mumkin:

- mavzuni o`quvchilarning qiziqishlari va tarbiyachining ta`lim vazifalarini aks ettiradigan tarzda shakllantirish;
- tarkibni olish;
- ta`lim usullari va shakllari, vositalarini tanlash;
- reja tuzish va h.k.

O`qituvchining kasbiy kompetentsiyasi tarkibini to`rt guruhga birlashtirilgan pedagogik mahorat orqali ochib berish mumkin.

-ta`limning ob`ektiv jarayoni tarkibini aniq pedagogik vazifalarga "tarjima qilish" qobiliyati;

-pedagogik tizimni qurish va yo`lga qo`yish qobiliyati (o`qitish, ta`lim);

-ta'limning tarkibiy qismlari va omillari o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rnatish qobiliyati;

-pedagogik faoliyat natijalarini qayd etish va baholash qobiliyati: tarbiya jarayonini introspeksiya qilish va tahlil qilish¹.

O'qituvchining nazariy tayyorgarligi mazmuni

Tahliliy ko'nikmalarning mavjudligi mukammallikni o'rgatish mezonlaridan biridir; ular shaxsiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik hodisalarni tarkibiy elementlariga (shartlari, sabablari, motivlari, vositalari, shakllari) ajratish;

- asosiy pedagogik muammoni, uni hal qilish usullarini topish;

- pedagogik hodisaga to'g'ri tashxis qo'yish (o'zaro ta'sir natijasi, pedagogik vazifani (muammoni) ko'ring va uni hal qilish yo'llarini toping.

Bashorat qilish qobiliyati

Bashorat qilish qobiliyati tarkibi:

- pedagogik maqsad va vazifalarni ilgari surish;

- pedagogik maqsadga erishish yo'llarini tanlash;

- natijani, mumkin bo'lgan og'ishlarni oldindan ko'rish;

- pedagogik jarayonning bosqichlarini aniqlash;

- hayot faoliyati talabalari bilan birgalikda rejalashtirish.

Loyihalash qobiliyati

Uning mohiyati ta'lim mazminini loyihasini ishlab chiqishda quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

- ta'lim jarayonining maqsadi va mazmunini aniq pedagogik vazifalarga aylantirish;

- pedagogik vazifalarni belgilashda talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlari, imkoniyatlari, tajribasini hisobga olish;

- pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini tanlash;

- maktab o'quvchilarining faolligini rag'batlantirish usullari tizimini rejalashtirish.

Refleksiv qobiliyatlar

Ushbu ko'nikmalarning mohiyati o'qituvchining o'zini, uning harakatlarini tushunishi. Ular quyidagilarni tahlil qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi:

¹ ¹ B.B.Ma'murov, I.E.Davronov. Pedagogik kompetentlik. Buxoro. "Durdona". 2021 y. 12-b.

- maqsadlarni belgilashning to'g'riliqi, ularni aniq vazifalarga tarjima qilish;
- o'quvchilar faoliyati tarkibining belgilangan vazifalarga muvofiqligi;
- ishlatilgan usullarning samaradorligi;
- amaliy tashkiliy shakllarning talabalarining yoshi va individual xususiyatlariga muvofiqligi;
- muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablari;
- ularning ish tajribasi.

O'qituvchining amaliy tayyorgarligi mazmuni.

Amaliy tayyorgarlik o'zini kuzatilishi mumkin bo'lgan tashqi harakatlarda namoyon qiladi. Bular tashkiliy va muloqot qobiliyatları.

Tashkiliy ko'nikmalarga quyidagilar kiradi: safarbarlik, axborot, rivojlanish, yo'nalish.

Mobilizatsiya qobiliyatları.

Maktab o'quvchilarining e'tiborini kuchaytirishga, o'quv va boshqa faoliyat turlariga qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan; bilimga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish va boshqalar¹.

Axborot qibiliyatları

Bular o'quv ma'lumotlarini taqdim etish, ularni olish, bosma manbalar bilan ishslash, olingan ma'lumotlarni didaktik ravishda o'zgartirish va o'qitish va tarbiyalashning belgilangan vazifalariga moslashtirish qobiliyatları.

Qobiliyatlarni rivojlantirish kognitiv jarayonlarni, his-tuyg'ularni, irodani rivojlantirish uchun sharoit yaratadi, mustaqillik va ijodiy fikrlashni, individual xususiyatlarni va boshqalarni rag'batlantiradi.

Yo'naltirish qibiliyatları.

Ular axloqiy va qadriyatli munosabatlarni, ilmiy dunyoqarashni, o'quv va kasbiy faoliyatga qiziqishni shakllantiradi.

O'qituvchining kommunikativ mahorati: pertseptiv, pedagogik muloqot qobiliyatları bo'lib hisoblanadi.

Sezgi qibiliyatları:

- birgalikdagi faoliyat davomida aloqa sheriklaridan ma'lumot olish;
- boshqa odamlarning shaxsiy mohiyatiga kirib borish;
- shaxsning turini, temperamentini, xarakterini aniqlash;

¹ B.B.Ma'murov, I.E.Davronov. Pedagogik kompetentlik. Buxoro. "Durdon". 2021 y. 13-b.

- odamda asosiy narsani ko'rish;
- uning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatini aniqlash va h.k.

Idrok etish qobiliyatlaridan foydalanish ma'lumotlarini o'rganish muvaffaqiyatli pedagogik muloqotning asosini tashkil etadi.

Pedagogik muloqot qobiliyatları:

- kommunikatsion modellashtirish (auditoriya xususiyatlarini tahlil qilish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar va boshqalar);
- kommunikativ faollikni amalga oshirish (sinfni ishga tez kiritish);
- bolalar bilan psixologik aloqani o'rnatish (ijod uchun muhit yaratish va hk);
- aloqani boshqarish (organik va doimiy ravishda jamoat muhitida harakat qilish, aloqani saqlash va hk);
- aloqa jarayonida teskari aloqa o'rnatish (sinfning umumiyligi kayfiyatini ushlab turish, umumiyligi faoliyatdan uzilib qolganlarni ko'rish) va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzlusizligi, uzviyliги, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar

1. Kommunikativ kompetensiya
2. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi
3. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi
5. Milliy va umummadaniy kompetensiya¹.

Kommunikativ kompetensiya - ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini

¹ B.B.Murov, I.E.Davronov. Pedagogik kompetentlik. Buxoro. "Durdona". 2021 y. 15-b.

ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi¹.

Tayanch so`z va iboralar: Kompetensiya, innovatsiya, kompetensiyali yondashuv, debat, bahs-munozara, evristik suhbat, psixologik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, kommunikativ kompetentlik.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Tayanch kompetensiyalarga nimalar kiradi?
- 2.Milliy g`oya va ma'naviyatga oid fanlarni o`qitishda qanday yangicha yondashuv va innovatsiyalar mavjud?
- 3.Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim tushunchasining mazmun va mohiyatini tushuntirib bering.
- 4.Milliy g`oya va ma'naviyatga oid fanlarni o`qitishda qanday kompetensiyali yondashuvlar bor?

¹ B.B.Ma'murov, I.E.Davronov. Pedagogik kompetentlik. Buxoro. "Durdon". 2021 y. 16-b.

13-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYATGA OID FANLARNI O`QITISHDA IJTIMOIY FANLARDAGI SO`NGGI YANGILIKLAR VA YUTUQLARDAN FOYDALANISH.

Reja:

1. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.
2. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda ijtimoiy fanlar (Falsafa, Fuqarolik jamiyati, Dinshunoslik) dagi eng so`nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanish.
3. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Qaror, Farmon va farmoyishlaridan foydalanish.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi. Shu bois uning boshqa ijtimoiy fanlardan farqini anglash lozim. Fikrimizcha, Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar boshqa ijtimoiy fanlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

1. Ma`naviyat insonning butun ruhiy olamini yaxlit tizim sifatida ifoda etuvchi ijtimoiy kategoriyadir. “Ma`naviyatshunoslik” fani esa ana shu butun, ya’ni ma`naviyat haqida yaxlit, umumiy tasavvurni shakllantiradi. Albatta, barcha ijtimoiy fanlar u yoki bu tarzda ma`naviyatni tadqiq etadi, uni boyitadi, ma`naviyatni rivojlantirishga hissa qo’shamdi. Biroq “Ma`naviyatshunoslik” fanidan farqli o’laroq, ma`naviyatni yaxlit bir tizim sifatida o’rganmaydi. Demak, “Ma`naviyatshunoslik” fani butunni o’rgansa, boshqa ijtimoiy fanlar uning qismlarini tadqiq etadi. Xuddi shunday “Miliy g`oya tarixi va nazariyasi” fani ham milliy g`oyani ilk shakllanish davridan bugungi kungacha bo`lgan taraqqiy etish tarixini yaxlit bir tizim sifatida o’rganadi.

Madaniyat moddiy va ma`naviy madaniyat yoki ma`naviyatga bo’linadi. Ma`naviyat, o’z navbatida, quyidagi tarkibiy qismlarga bo’linadi: a) ma`naviyat; b) ma’rifat; v) g`oya; g) mafkura; d) amaliyat. Ma’rifat bilan deyarli barcha fanlar shug’ullanadi. Albatta,

ko‘proq pedagogika fani shug‘ullanadi. Jurnalistlar, shoir-yozuvchilar, kasb yo‘nalishidan qat’i nazar, barcha sohalardagi olimlarni, hattoki jamoat va davlat idoralarining rahbarlarini ham ma’rifatchilar deyish mumkin. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar mustaqillik yillarida paydo bo‘lgan “O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” fani (1998-y.) bilan chambarchas bog‘liqdir. Qadimgi yunon faylasufi, “Siyosat” (“Politika”) asarining muallifi Aristotel aytganidek, “Demokratiya yuksak ma’naviyat, tartib va intizom, o‘zaro burch va mas’uliyatga asoslangan boshqaruva tizimidir, ularsiz demokratiyadan xavfliroq narsa yo‘qdir”. Bundan ko‘rinadiki, demokratiya bo‘lishi, insonlarga xizmat qilishi uchun eng avvalo jamiyatda yuksak ma’naviyat bo‘lishi zarur. Yuksak ma’naviyat – demokratiya poydevoridir. Boshboshdoqlik, so‘z mas’uliyatining yo‘qligi, haqiqatni har xillashtirish, istalgan narsani qilish, umumiy mas’uliyatsizlik – antidemokratiyadir. Shunday ekan, ma’naviyatsiz jamiyatni demokratlashtirib, liberallashtirib (erkinlashtirib) bo‘lmaydi.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar huquqshunoslik fani bilan ham bevosita bog‘liqdir. Mustaqillik – o‘z yurtiga egalik qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi himoya qilish, asrash, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishdir. Mustaqillik – o‘zlikni anglash, yuksak ma’naviyat belgisidir. Shu bois mustaqillikni mustahkamlash, uni siyosiy-huquqiy qadriyat sifatida baholash har bir O‘zbekiston fuqarosining ma’naviy burchidir. Har qanday huquq ma’naviyatga asoslanadi. Huquqiy munosabatlарimiz zaminida ma’naviyat yotadi. Ma’naviyat huquqiy munosabatlarning mezonidir. Jamiyatdagi qonunlarning sifati, xalqchilligi, adolatliligi ham oxir-oqibat ma’naviyatning (insonlarga foydalilik koeffitsiyenti) inson kamolotiga qo‘sghan hissasi bilan o‘lchanadi. Qisqa qilib aytganda, huquq ma’naviyatdan oziqlanadi, ma’naviyat esa huquqda o‘z himoyasini topadi.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda ijtimoiy fanlar (Falsafa, Fuqarolik jamiyati, Dinshunoslik) dagi eng so`nggi yangiliklar va yutuqlardan mavzu doirasida foydalanish.

Hammaga ma’lumki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

SHuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada o‘nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilingani sizlarga yaxshi ma’lum. 2020 yilda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo‘shma fakultet va o‘quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. SHuningdek, o‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

SHu munosabat bilan Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Musulmonlar idorasi, Xalqaro islom akademiyasi, Islom sivilizatsiyasi markazi buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy-ma’rifiy va madaniy merosini fundamental asosda nashrga tayyorlash, chop etish va keng ommaga etkazish, shuningdek, uni o‘rganish metodikasini ishlab chiqib, amalda qo‘llash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz.

Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g‘oya va tahdidlardan asrash, ularni o‘z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. SHu sababli biz birinchi marta umum ta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini joriy etdik.

Ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan “Turkiy “Guliston” yoxud axloq” asari sharqona tarbiyaning noyob qo‘llanmasi sifatida bugungi kunda ham o‘zining qadri va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Biz “Tarbiya”

fanining nazariy asoslarini ishlab chiqishda mana shunday beba ho asarlardan samarali foydalanishimiz zarur.

“Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” Hukumat qarori (422-son, 06.07.2020 y.) qabul qilindi.

Qarorga muvofiq:

- Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Odobnama”, “Vatan tuyg’usi”, “Milliy istiqlol g’oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1–9-sinflarda – 2020/2021-o’quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021/2022-o’quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi.
- “Tarbiya” fanidan darsliklar va o’quv-metodik majmular yangi o’quv yili boshlangunga qadar chop etilib, joylarga yetkaziladi.
- 2020-yil iyul oyidan boshlab yangi o’quv yili boshlangunga qadar umumta’lim maktablaridagi “Boshlang’ich ta’lim”, “Milliy g’oya va huquq”, “Tarix” va “Dinshunoslik” mutaxassisligiga ega fan o’qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida “Tarbiya” fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi.
- “Tarbiya” fanidan darsliklar va o’quv majmularini xarid qilish va yetkazib berish xarajatlari respublika byudjeti hamda Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg’armasi mablag’lari hisobidan qoplanadi.
- Qaror bilan umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiysi tasdiqlandi.

Barchamiz yaxshi bilamizki, insonning ongi va dunyoqarashi, fikri o’zgarmasa, jamiyat o’zgarmaydi. Jamiyat o’zgarmagan joyda hech qanday ijobiy natija ham, taraqqiyot ham bo’lmaydi. Odamlarning ongu tafakkurini o’zgartiruvchi kuch esa, hech shubhasiz, avvalo, o’qituvchi-murabbiylar, oliyoh domlalari, ilm-fan arboblari, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalaridir.

Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g’oya, eng muhimmi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo’lgan yangi avlod kadrlari kerak. Albatta, xalqimizning mardona mehnati, o’qituvchi va murabbiylarning jonbozligi tufayli ta’lim sohasini tubdan

modernizatsiya qilish bo‘yicha ko‘p ish qildik. Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, bular – katta maqsad yo‘lida tashlangan dastlabki qadamlar, xolos.

Barchangiz guvohsiz, bugun zamon shiddat bilan o‘zgarib, barcha sohalar qatori ta’lim tizimi oldiga ham o‘ta dolzarb va murakkab vazifalarni qo‘ymoqda. Biz dunyo miqyosidagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yaratishimiz zarur. SHu maqsadda, avvalo, ta’lim maskanlarining moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish, soha xodimlarining ish haqini bosqichma-bosqich oshirib borish, ularning mashhaqqatli mehnatini munosib qadrlash bundan buyon ham doimiy e’tiborimiz markazida bo‘ladi.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Qaror, Farmon va farmoyishlaridan foydalanish.

Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid Qaror, Farmon va farmoyishlaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Chunki qabul qilingan har bir me`yoriy-huquqiy hujjatlarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar o`z aksini topgan. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda quyidagi me`yoriy huquqiy hujjatlardan keng foydalaniladi:

2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni, 2021 yil 5 iyulda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” gi O‘RQ-699-son Qonuni, 2017 yil 19 mayda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5046-son Farmoni, 2017 yil 5 iyulda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni, 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son Qarori, 2017 yil 27 iyulda qabul qilingan O`zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son Qarori, 2017 yil 28 iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” gi PQ-3160-son Qarori, 2018 yil 5 iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-3775-son Qarori, 2018 yil 14-avgustdagи O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim –tarbiya berish tizximini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3907-son Qarori, 2019 yil 4 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4436-son Qarori, 2001 y. 16 avgustdagи O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 199-son Qarori, 2018 yil 17 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 736-son Qarori, 2019 yil 31 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori, 2020 yil 18 fevraldagи O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ 4602-son Qarori, 2020 yil 6 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108-soni Farmoni, 2021 yil 25 yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo`llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-soni Qarori, 2021 yil 26 martdagи O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar

tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-5040-sonli Qarori.

Tayanch so`z va iboralar: Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari, qaror, farmon, farmoyish, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar turkumiga qaysi fanlar kiradi?
2. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlar qaysi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog`liq?
3. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda qaysi ijtimoiy-gumanitar fanlarda amalga oshirilgan yutuqlardan keng foydalaniladi?
4. Milliy g`oya va ma`naviyatga oid fanlarni o`qitishda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qaysi Qaror, Farmon va farmoyishlaridan keng foydalaniladi?

**14-MAVZU: YOSHLARNI MILLIY G`OYA RUHIDA
TARBIYALASHNING INSTITUTSIONAL TIZIMI
FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH
MASALALARI.**

Reja:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 28 iyuldagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko`tarish to`g`risida”gi PQ - 3160 sonli qarori va undan kelib chiquvchi vazifalar.
2. Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar va ulardan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda foydalanish.
3. Goyaviy tahdidlarga qarshi kurashda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tamoyiliga yangicha yondashuvlar.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 28 iyuldagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko`tarish to`g`risida”gi PQ -

3160 sonli qarori va undan kelib chiquvchi vazifalar.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish,

yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shilib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda¹.

Mamlakatimizda qabul qilingan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida eng avvalo, davlat boshqaruv organlarining quyi bo'g'inlari faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning xalq bilan muloqot qilishini ta'minlash, bu borada samarali ijtimoiy hamkorlik mexanizmini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

Ana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko'lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish maqsadida:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ - 3160 sonli qarori. 2017 yil 28 iyul. <https://lex.uz/ru/docs/-4071203>.

1. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi hamda Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazini birlashtirish yo‘li bilan ularning negizida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi qayta tashkil etish haqidagi taklifi ma’qullangan.

2. Markaz faoliyatini tashkil etishda quyidagi asosiy vazifalarga alohida e’tibor qaratilishi ta`kidlangan:

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini tizimli va izchil amalga oshirish, bu borada keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan iborat “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyatini shakllantirish hamda uning faoliyatini doimiy asosda yo‘lga qo‘yish;

dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish;

jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar — el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

milliy g‘oyani yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish, bunyodkorlik ruhini yalpi ijtimoiy harakatga aylantirish, ertangi kunga ishonch tuyg‘ularini kuchaytirish¹;

targ‘ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy etish;

ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlari samaradorligining ilmiy asoslangan monitoringini ta’minlashga qaratilgan sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘yish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ - 3160 sonli qarori.
2017 yil 28 iyul. <https://lex.uz/ru/docs/-4071203>.

yoshlarda sog‘lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, Internet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;

mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishslash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an’analarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish¹.

Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi islohotlar va ulardan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda foydalanish.

Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’naviy - ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma’naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko‘payib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallah yo‘lidagi kurash jarayonlari kuchaygani uchun hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining hamma qatlamlari orasida ma’naviy - ma’rifiy va mafkuraviy sohada jadal ishlarni amalga oshirish targ‘ibotchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. SHuning uchun ham ma’naviy - ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari qanday dastur va yo‘nalish, qaysi ko‘rsatma va qo‘llanma, qanaqa reja asosida, qay saviyada, kimlar tarafidan olib borilayotgani g‘oyat muhim masala bo‘lib turibdi. Yoshlar qalbida yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishda, ularda milliy ong va

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ - 3160 sonli qarori. 2017 yil 28 iyul. <https://lex.uz/ru/docs/-4071203>.

g‘ururni uyg‘otishda, Vatan, millat va istiqlol taqdiri uchun faol kurashchi fuqarolarni tarbiyalab, voyaga etkazishda muzey, teatr va kutubxonalar, bugungi kun ta’biri bilan aytganda axborot resurs markazlarining alohida o‘rni bor. Bu kabi muassasalar Respublikamiz fuqarolari ma’naviy dunyosini boyitish, ularni go‘zal narsalarning hammasidan bahramand qilish, kishilar qalbiga tezroq yo‘l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta’sir qilish, hayotiy voqeа-hodisalarni chuqur mushohada etishga da’vat etish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. SHuning uchun pedagog-o‘qituvchilar o‘z faoliyatida mazkur muassasalarning yoshlarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta’sir etishdek vositachilik xususiyatidan imkonи boricha kengroq foydalanishlari muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish metodikasini yaratish eng muhim vazifalardan biridir. Chunki har qanday ma’naviy-ma’rifiy tadbir metodik jihatdan puxta ishlab chiqilmasa quruq safsatabozlikdan nariga o’tmaydi. Ma’naviy va ma’rifiy ishlar yuzasidan o’tkaziladigan tadbirlarning muayyan majmui bag‘rikenglik, insonparvarlik g‘oyalari asosida tayyorlanib, talaba-yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, o‘zga millat va din vakillariga hurmat uyg‘otish ruhida o’tkazilishi muhimdir.

O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, intellektual salohiyati, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, sohasida:

- aholi o‘rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

- mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali etkazish;

- oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy - ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish va o‘rganishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, «mahalla-tuman-viloyat-respublika» prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish;

- jamiyatda “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi asosida uzluksiz ma’naviy tarbiya va targ‘ibot ishlarini tashkil etishning ta’sirchan, strategik yo‘nalishlari, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;

- tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ‘ibot ishlarini olib borish;

- aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularni yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Goyaviy tahdidlarga qarshi kurashda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tamoyiliga yangicha yondashuvlar.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi yangi jamiyatga o’tish ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Odamlarda yangi jamiyatga nisbatan yangi munosabatni shakllantirish jarayoni ma’rifat orqali kechadi. Ma’rifat-insonning ma’naviy qaramlik, qo’rquv va hadiksirashdan qutilishiga ijobiy ta’sir etib, uning cheksiz kuch-qudratga ega bo’lishiga yordam beradi. Bu haqida xalqimizning boy tarixidan ko’plab misollar keltirish mumkin.

O’z davrining fidoyi farzandlari o’z xalqining kelajagiga daxldor deb his etganlar va bu yo’lda ma’rifatparvarlik bilan shug’ullanganlar. Masalan, 1929 yilda ma’rifatparvar ziyolilarning sa’y-harakatlari bilan lotin yozuvi asosida o’zbek alifbosi ishlab chiqilgan va joriy etilgan. 1980-1989 yilda o’zbek tiliga davlat maqomini berish to’g’risidagi harakatlarda O’zbekiston ma’rifatparvarlarining hissasi katta bo’ldi. Shunday qilib, ma’naviyatning tarkibiy qismlari o’zaro bog’liqlikdan shaxs ma’naviyatining yuksaltirishga samarali ta’sir

etadi. Bu ta'sir etish jarayoni ko'pgina holatlarda ma'rifat orqali amalga oshiriladi, ya'ni obyektga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ma'rifat nima-yu, jaholat nima? Jaholat – bu “ilm, ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat” deya talqin etilgan.

Jaholatga qarshi ma'rifat – inson bu dunyoning sir-asrorlarini yetarli darajada anglashi, o'zining kim ekanini bilishi va hayot mazmunini tushunishi kerak. Bugungi kunda buning yagona yo'li professional shaxs bo'lishi uchun o'z nafsi tiya bilishi, kasb-mahoratini egallashi va odam bo'lib yashash ko'nikmasini hosil qilish kerak. Bularning barchasi bir so'z – bilmoq (ma'rifat) zamirida jo bo'lgan. Bilimli kishi jaholat, nodonlik va yovuzlikka qo'l urmaydi. Inson ongida uning o'zi va o'zgalarga manfaat keltiradigan tushunchalar tarkib topishi kerak. Biror shaxs insonda ezgulikka nisbatan yovuzlikning ustuvor bo'lishini isbotlab berolgan emas. Aksincha, insonning beg'ubor bolalik davrini boshdan kechirishi uning ongida ezgulik ustuvor ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun inson ongi yovuz va johil g'oyalardan, jaholat botqog'idan himoya qilinishi kerak. Jamiyatimizda bu ish milliy g'oya asosida amalgा oshirilmoqda. Demak, milliy g'oya asosida inson ongida ezgulik, adolat, haqiqat, va ma'suliyat g'oyalarini shakllantirish bilan uni yovuzlik, jaholat, nodonlik va befarqlik kabi illatlardan himoya qilish mumkin. Milliy g'oyaga ega inson yovuz g'oyalarni farqlay oladi, bu g'oyalardan har doim uzoqda bo'lgesi keladi.

Ma'lumki, ma'rifatga yo'g'rilgan fikr, g'oya har qanday shaxsni jamiyatni turli tajavozlardan himoya qila oladi. Xalqimiz ma'naviy va axloqiy qadriyatlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy iftixor, bag'rikenglik kabi xususiyatlar ustuvordir. Ularni izchil targ'ib qilib borish bilan ma'naviy tahdidlarga g'oyaviy zarba berish mumkin.

Ma'rifat - kishilarning ong-bilimini, ma'daniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya hamdir. Demak, jaholat bilan ma'rifat bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini siqib chiqaradigan tushunchalardir. Ma'rifat insonni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ma'rifat kimgadir ko'z-ko'z qilinadigan, ortida qandaydir ta'ma yashirin bo'lgan narsa emas. Jaholat kabi kuchlarga doim ma'rifat qarshi chiqa oladi. Chunki, ma'rifat-to'g'ri yo'lga boshlovchi kuch. Ma'rifat - insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Sovet tuzumida ko'pgina xalqlarni ma'naviyatga va ma'rifatga chorlagan ko'pgina vatandoshlarimiz o'ldirilgan. Ular yomon ishlari

uchun emas, balki jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashganlari uchun otib o'ldirilgan. Masalan, Abdulla Avloniy bobomizning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir." Bu chuqur ma'noli so'zlarning tagida qanchadan-qancha ma'no-mazmun yotibdi.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqasi va hududlarida avj olayotgan qarama-qarshilik, jumladan, Yaqin sharqda, Iroq va Suriya mamlakatlari bo'layotgan qonli to'qnashuvlar, musulmon dunyosidagi mazhab va oqimlar o'rtasida kuchayib borayotgan ziddiyatlar, begunoh odamlarning qurban bo'layotgani barchamizni tashvish va xavotirga solmay bo'lmaydi. Dunyo xalqlariga nazar tashlagan odam borki, mamlakatlarda notinchlik, ocharchilik yuz bermoqda, hattoki, eng rivojlangan mamlakatlarda bu jarayonlar yuz bermoqda, ularni jaholat o'z domiga yutib ketmoqda. Bu illatlarning oldini olish uchun o'sib ulg'ayotgan yoshlarning ongi, bilimini va aql-idrokini har tomonlama oshirib borishimiz lozim.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ham har jihatdan yetuk bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda va bu yo'lda yoshlarni turli ma'naviy xurujlardan saqlash, ularda mafkuraviy imunitetetni kuchaytirish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kabi vazifalar ustuvorlik qilmoqda. Jaholatga qarshi esa faqat ma'rifat bilan kurashish lozim. Darhaqiqat, dunyoni jaholat egallasa, nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifat, ma'naviyat, hurfikrlik, inson ozodligi barcha-barchasi barham topadi. Mashhur faylasuflardan biri shunday aytib o'tgan: „Dushmaningdan qo'rhma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlaringdan qo'rhma – nari borsa, ular senga xiyanat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rqa – ular seni o'ldirmaydi, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyanat va qotilliklar sodir bo'laveradi”¹. Bu bebaho gaplardan ko'rini turibdiki har bittamiz Vatanimiz rivoji, kelajagi uchun befarq bo'lmasligimiz va bu g'ayritabiiy kuchlarga biz o'z bilimimiz, milliy mafkuramiz bilan har doim, har soniya qarshi turmog'imiz lozim.

Insoniyat qadim-qadimdan buyon jaholatga, bidiat va xurofatga qarshi ma'rifat bilan kurashishga intilib keladi. Chunki, unga qarshi kuch ishlatsa, zo'ravonlik vositasida kurash olib borilsa, jaholat

¹ Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 y. 124-6.

avvalgidan battarroq yuchayib ketishi mumkin. Jaholatga qarshi ma'rifat usuli hozirgi davrda, bashariyat taraqqiyot borasida juda ilgarilab ketgan XXI asr ibtidosida g'oyat muhim kasb etmoqda . Buning sababi shundaki , eng kuchli ommaviy qirg'in qurollari ishlab chiqarilgan , Kurrai Zaminni bir necha marta yo'q qilib yuborishga qodir yadroviy bombalar zahirasi mavjud paytda o'zaro zo'ravonlik va jaholatga mutlaqo yo'q yib bo'maydi.

Hozirgi vaqtida ko'z o'ngimizda dunyoning turli joylarida ro'y berayotgan iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasidagi chuqr o'zgarishlar, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hammamizga ma'lumki har qanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga qarshi kurashuvchi immunitet hosil qilinadi. SHunday ekan biz yoshlар ongida ham ona Vatanimizga bo'lган muhabbatimiz, qadimi boy tariximizga, ota-bobolarimiz kabi o'z dinimizga sadoqat tuyg'ularini yanada shakillantirishimiz , kelajak avlodlarga yetkazib, kerak bo'lsa ularning ongida va qalbida mafkuraviy, ma'naviy immunitetni kuchaytirishimiz muhim o'ren tutadi. Toki yoshlар milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyonи chuqurroq anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shundagina johil aqidaparastlarning "Da'vat"i ham ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizlar uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Yoshlardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo'lган muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yana milliy o'zligimizga salbiy ta'sir ko'rsatgan milliy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga to'sqinlik qilgan, o'zligimizdan ayirmoqchi bo'lganlarni, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda hudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, manfaatparastlik va korrupsiya, o'zgalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay halos etish to'g'risida chuqr o'ylashimiz kerak.

Binobarin Vatan oiladan boshlanadi. Oiladagi sog'lom tarbiya ham oilaga, oiladagi sog'lom muhit ham insonparvarlik va vatanparvarlik tuyg'usiga poydevor bo'ladi. Mana shu poydevorni mustahkam bo'lishi uchun yuqoridagi illatlarga qarshi mardonavor kurashish zarur, buning uchun esa yuqoridagi aytilgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish lozim.

Borliqda ongli mavjudot sifatida insonlarga shunday imkoniyat berilganki , bu ham bo'lsa aql, tafakkur, ilmdir. Ilm va tafakkurga qanchalik intilib erishmaylik shunchalik kam tuyulaveradi va inson bu bilimlarini chuqurlashtirishi, yanada ko'proq bilimlar sari intilishi zarurdir.

Shunday ekan mamlakatimiz taraqqiyoti, yurt farovonligi, biz yoshlarga berilgan ishonchni oqlay olishimiz darkor. Har bir yoshning qalbida ilm urug'larini sochib, turli g'araz niyatli kishilar yoshlari ongini zaharlashidan asrab-avaylashimiz, bizni o'zligimizdan, urfodatlarimizdan ayirmoqchi bo'lgan, yurtimiz tinchligini ko'ra olmaydigan g'arazo'y larga biz o'z bilimlarimiz, tafakkurimiz bilan javob bera olishimiz darkor. Shu maqsadda mamlakatimizda yoshlarning bo'sh vaqitlarini to'g'ri tashkil etish, mazmunli o'tkazish, ularda Vatanparvarlik, insonparvarlik his-tuyg'ularini tarbiyalashga katta ahamiyat berilmoqda.

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Chunki, ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy barqarorlik vujudga keladi, hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamolligiga va uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch so`z va iboralar: ma`naviy-ma`rifiy tadbirlar, globallashuv jarayoni, mafkuraviy immunitet, g`oyaviy tahdid, jaholat, ma`rifat, institutsional tizim, islohot.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar.

- 1.O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko`tarish to`g`risida”gi PQ - 3160 sonli qarorida qanday vazifalar belgilab berilgan?
2. Bugungi kunda ma`naviy-ma`rifiy sohada qanday islohotlar amalga oshirilayapti?

3. Ma`naviy-ma`rifiy sohani yanada rivojlantirish bo`yicha qanday me`yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?
4. Ma`naviy-ma`rifiy ishlarni tashkil qilishda nimalarga e`tibor berish kerak?
5. Globallashuv davrida jaholatga qarshi ma`rifat bilan kurashish g`oyasining ahamiyatini izohlab bering.

15-MAVZU: MILLIY G`OYA VA MA`NAVIYATGA DOIR FANLAR ORQALI YOSHLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH.

Reja:

- 1.O‘zbekistondagi ta’lim tizimiga o‘ziga xos yondoshuv va milliy g‘oya.
2. Mamlakatimizda yuksak intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlash siyosatining ustuvor yo‘nalishlari.
- 3.Milliy g‘oya va ma’naviyatga doir fanlar orqali yoshlarda ijtimoiy-siyosiy faollikni tarbiyalash istiqbollari.

O‘zbekistondagi ta’lim tizimiga o‘ziga xos yondoshuv va milliy g‘oya.

Har bir tarbiya, jumladan ma’naviy-axloqiy tarbiya asosini milliy mafkura tashkil etadi. Milliy istiqlol g‘oyalarini o‘quvchi yoshlar ongiga sindirishga qaratilgan o‘quv, ilmiy-uslubiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta’minlash va yanada takomillashtirish maqsadida 2001 yil 18-yanvarda “Milliy istiqlol g‘oyasi: asossiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha ta’lim dasturlarini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida Prezident Farmoyishi e’lon qilindi. Bu milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatdi. Zero, ma’naviy yetuk insonlargina barkamol jamiyatni qurishi mumkin.

Ta`lim asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari turadi. Ta`lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo‘shilishini ta’minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo`liga o‘tgan O‘zbekistonda hozirgi bosqichda xalq ta`limi tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va

faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Ta'lim jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarning ma'lum yig`indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir.

Ta'lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi. Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o'z mavqeyini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat etilgan. Bugungi kunda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg'a surilmoqda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar, tahlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilanganligi bois, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi.

Avvalgi vaqtarda o'quvchilarni axborotlardan xabardor qilingan bo`lsa, endi ularda hayotni o'zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta`lim insonlarni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va maktabni

insonparvarlashtirish muammosi ta’limning og‘zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo‘lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo‘nalishi ta`lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbir,

- birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishdan, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan,

- ikkinchidan, tabiiy ilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir.

Ta’limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri maktab o‘quvchilarga faqat ma’lum hajmdagi bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyati, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak.

Mamlakatimizda yuksak intellektual salohiyatlari kadrlar tayyorlash siyosatining ustuvor yo‘nalishlari.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab yuksak intellektual salohiyatlari kadrlar tayyorlash siyosati olib borilmoqda. Xususan, 1991 yil 20 noyabrda davlat xalq manfaatlarini ko‘zlab, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonunga asoslanib, respublika yoshlarning ijtimoiy hamda ma’naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadida 2016 yil 14 sentyabrda Qonuni qabul qilingan edi.

Mazkur qonunning 1-moddasidayoq qonunning mazmun va mohiyati to‘laligicha o‘z ifodasini topgan: “Yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustivor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkonimiz boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir”¹.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqeい, jinsi, ma’lumoti va siyosiy e’tiqodidan qat’i nazar yoshlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;

¹ O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-son qonuni. 2016 yil 14 sentyabr. <https://lex.uz/docs/-3026246>.

- yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish;
- milliy, madaniy an'analarning avloddan avlodga o'tishi, avlodlarning ma'naviy aloqasi;
- yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish;
- jamiatni rivojlantirishga, ayniqsa respublika yoshlari hayotiga oid siyosat va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda yoshlarning bevosa ishtirok etishi;
- huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligi".

Mamlakatimizda yuksak intellektual salohiyatli kadrlar tayyorlash siyosati ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat mifik maktab, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila, hayotiga keng kirib borishi uchun zamin hozirladi.

Ushbu siyosatning uzviy tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni (2020 yil 23 sentyabr) keltirish o'rinni.

Ushbu qonun mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxasisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to'laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o'zida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish, shu bilan birga jahon ta'limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlash, yuksak ma'naviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida, davlat va jamoat tashkilotlarining takliflarini inobatga olib 2014 yil 6 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga

oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2124-sonli Qarori qabul qilindi.

Milliy g'oya va ma'naviyatga doir fanlar orqali yoshlarda ijtimoiy-siyosiy faoliyatni tarbiyalash istiqbollari.

Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'naviy sohalardagi mavqeini kuchaytirish - Yangi O'zbekistonni barpo etishimizda juda dolzARB masaladir.

Bu jarayonda davlat hokimiyati, boshqaruv organlari, yoshlar tashkilotlarining samarali faoliyatlarini tashkil etmoqdamiz. Yoshlarni qo'llab quvvatlashda, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta'minlashda qonun chiqaruvchi Oliy Majlis o'rni bugungi kunda juda sezilarli. Uning qoshida "Yoshlar Parlamenti" tashkil etilishi ham ularga bo'lgan diqqatni yorqin misolidir. Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari xalqaro maydonda yoshlar manfatini ifoda etishda ham faol ishtirok etib kelishmoqda. Parlamentdagi ushbu ijobiy o'zgarishlar taniqli siyosatchi, Parlamentlararo Ittifoqning Bosh kotibi janob Martin Chungong tomonidan yuqori darajada baholandi. Xususan, dunyo aholisining yarmidan ko'pini 30 yoshgacha bo'lgan insonlar tashkil etsa-da, butun dunyo bo'yicha yosh deputatlarning ulushi 2,6 foizga ham yetmas ekanligini, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 6 foizni tashkil etishi u tomonidan ijobiy ta'kidlandi.

Aytish joizki, davlatimiz yoshlar masalasini strategik vazifa sifatida barcha islohotlarda nazarda tutadi. Chunki ular jamiyatimizda 63 foizini tashkil etadi. Dunyoda ham ular bilan bog'liq muammolar kam emas. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari jahon minbarlarida hamisha yoshlar masalasiga doir fikrlar bildiradi.

Jumladan, 2017-yilning 19-sentyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasida yoshlar huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi mexanizmni tashkil etishda BMTning "Yoshlar huquqlari to'g'risida"gi xalqaro Konvensiyasini ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusini oldinga surdi. Ushbu g'oya jahon hamjamiyati tomonidan dolzARB masala sifatida qabul qilinib, qo'llab quvvatlandi.

Shuningdek, joriy yilning 22-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida Yoshlar huquqlari bo'yicha

maxsus ma’ruzachi institutini ta’sis etish taklifi bildirildi. U ham ma’qullandi.

Yana bir muhim tashabbus, “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzusidagi xalqaro konferensiyada O‘zbekiston davlati tomonidan Yoshlar masalasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida doimiy faoliyat yuritadigan Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari Yoshlari kengashini tuzish tashabbusi ilgari surildi. Bunday tashabbuslar bejiz emas. Barcha islohotlar negizida qonuniy sharoitlar bo‘lishi lozim. Mamlakatimizda yoshlarni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish borasida mustahkam huquqiy baza mavjud. U yildan yilga zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ortiq qonunlar qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikasiya qilingan. Ushbu qabul qilingan hujjatlarning sifatli ijrosi ustidan muntazam ta’sirchan parlament nazorati o‘rnatilgan.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va yo‘naltirish uchun birinchi navbatda, ularda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish kerak:

1. Axborotni qabul qilish va tahliliy fikrlash.

Har qanday jarayonda qatnashuvchi shaxs analistik fikrlashga ega bo‘lishi kerak. Voqeа-hodisa haqida yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lishi, jarayonning borishini tahlil qilish hamda natijaviy ko‘rinishini aniq tasavvur qila olishi kerak. Bundan tashqari, tahlillarga tayangan tarzda ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlay olishi hamda differensiyalashi lozim.

2. Shaxslararo munosabatlarni tashkil qilish malakalari.

Shaxs uchun eng muhim holatlardan biri-kommunikativlikdir. Chunki shaxslararo munosabatda-shaxsning kirishimligi, bemalol aloqa o‘rnata olishi muhim ahamiyatga egadir.

3. Motivatsiya, tashabbus va faoliyatni tashkil eta bilish.

Ijtimoiy jamoada shaxs doimo tashabbus ko‘rsatish va bunga yarasha intilishga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun shaxs yetarli bilimga ega bo‘lishi bilan birga, o‘z taktika va strategiyasini tashkil eta olishi kerak.

4. Nutqning rivojlanganligi.

Shaxsda ijtimoiy aloqalarni yaxshi tashkil eta olishi uchun nutq har tomonlama rivojlangan bo‘lishi kerak. Ayniqsa “og‘zaki” yoki “gaplashuv”, “yozma” nutqni boyitish ustida tinimsiz ishslash kerak.

5. Mustaqil fikrlash.

Jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun shaxsdan mustaqil fikrlash kuchli talab etiladi. Bundan tashqari mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega shaxslar doimo ijtimoiy guruhda o‘ziga xos mavqeiga ega bo‘lishadi.

6. Mustaqil qaror qabul qilish.

Shaxsdan har qanday jarayonda birinchi navbatda, mustaqil fikr yuritish talab etiladi.

7. Ma’suliyatni o‘z zimmasiga olish.

Shaxsda ma’suliyatni o‘z zimmasiga olish shakllangan bo‘lishi kerak. Hozir paytda shaxsning siyosiy faolligini boshqarish XXI asrdagi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bu esa siyosiy jarayonlarda inson omilining oshishi bilan izohlanadi. Insonda liderlikka erishish, muvaffaqiyatga intilish, o‘z atrofidagilarga tan oldirish kabi shaxsiy sifatlar siyosiy jarayonlarning borishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatishi tabiiydir.

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladи.

Yosh avlodning sog‘lom o‘sishi, sifatli ta’lim olishi va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minalash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san’at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “besh muhim tashabbus”ni joriy etish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamонавиј IT-parklar, madaniyat muassasalarini va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta’lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e'lon qilindi¹.

Ushbu qarorga asosan quyidagi vazifalar belgilandi:

yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy bazani takomillashtirish;

mamlakatda xavfsizlik, ekologik barqarorlik, adolat va teng huquqlilikni ta'minlashda yoshlarning rolini oshirish;

yoshlar uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, ular o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash;

ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish;

yoshlarni ona Vatanga, oilaga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularning mehnatga oid qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish;

yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan “besh muhim tashabbus”ni amalga oshirish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchini yo'qotgan va ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash;

salohiyatlari yosh kadrlarni qo'llab-quvvatlash va davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash;

yosh xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyatdagи mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 23-sen Qarori. 2021 yil 18 yanvar. <https://lex.uz/docs/-5234746>.

yoshlarning g‘oya, taklif va tashabbuslarini ro‘yobga chiqarish maqsadida yoshlar jamoat tashkilotlari hamda volontyorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Tayanch tushuncha va iboralar: “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, yoshlarning huquq va manfaatlari, yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘usi, kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari, uzlucksiz ta’limni isloh qilish, yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni nechta moddadan iborat?
- 3.“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?
- 4.“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun necha bo‘lim, nechta moddadan iborat?
- 5.“O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qilishda qanday maqsadlar ko‘zlangan?
- 6.Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari qanday?
- 7.Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish deganda siz nimalarni tushunasiz?

GLOSSARY

ABSTRAKTLIK - (lot. *Abstractio* – mavhumlik). A. – tafakkurning asosiy metodlaridan biri. A. ikki ma’noda qo’llaniladi. Birinchidan, A. deyilganda, aqliy bilish jarayoni anglashiladi, ya’ni buyumning ko’pgina tomonlari, xususiyatlari va ularning o’zaro aloqalari xayolan tasavvur qilinadi; ayni paytda, ular bir–biridan fikran ajratiladi, ularning qandaydir bizni qiziqtirgan tomonlari, xususiyatlari alohida–alohida tartibda farqlanadi. Ob’ektiv borliq har bir moddiy buyumning o’ziga xos ko’pgina tomonlari, xususiyati, sifati mavjud bo‘lib, ular boshqa buyum va hodisalar bilan son–sanoqsiz iplar bilan bog‘langan.

AGNOSTISIZM - (yunon. *agnosis* – *a* – inkor, *gnosis* – bilish, bilishni inkor etish, noma’lum) – falsafiy ta’limot bo‘lib moddiy sistemalar, tabiat va jamiyat qonuniyatlari mohiyatini bilish imkoniyatlarini rad etib, bilimni voqealikka muvofiqligini isbotlash mumkin emas, deb hisoblaydi. A. antik skeptisizm va o’rta asr nominalizmidan kelib chiqqan bo‘lib, XIX asr o‘rtalarida ingliz tabiatshunosi Geksl tomonidan muloqotga kiritilgan.

ALTRUIZM - (lot. *alter*, fran. *altruisme* – boshqa) atamasini falsafaga O.Kont tomonidan kiritilgan. A. egoizmga qarama – qarshi axloqiy tamoyil bo‘lib, shaxsiy manfaatlaridan kechib, o‘zgalar manfaati, baxt–saodati yo‘lida beg‘araz xizmat qilish degan ma’noni anglatadi. Shaxsning ichki o‘z–o‘zini baholash, "yagona bir o‘zim" deyish qoidasidan voz kechishini anglatadi. A. axloqiylikni tashqaridan baholash orqali ta’minlanadi, shuning uchun A. insonni o‘z faoliyatiga vijdon bilan, xolisona baholashga majbur etadi.

ANIMIZM - (lot. *anima* – ruh, jon) – jonga va ruhlarga ishonish. Animistik tasavvurlar ibridoiy jamiyatda paydo bo‘lgan. Ibtidoiy kishilarning tasavvurida narsalar, o’simliklarning joni bordek tuyulgan. Ya’ni jon odamlardan boshqa, ayrim mavjudotlarda bor ham. Ruh esa egalardan ajralgan holda ham mavjud bo‘lib, u har qanday narsalarga ta’sir ko’rsatadi. A. tushunchasi birinchi bor, nemis olimi Shtal (1708) tomonidan kiritilgan. Uning ta’limotiga ko‘ra A. – hayot manbai – ruh barcha hayotiy jarayonlarning zaminida yotadi, "tanning haykaltaroshidir". Ushbu tushunchani Taylor o‘z

konsepsiyasida o‘zgartirilgan holda qo‘llab, uni dinni paydo bo‘lish nazariyasiga asos qilib olgan.

BUDDIZM - diniy–falsafiy ta’limot. B. dastlabki jahon dinlardan (xristianlik va islom kabi) biridir. B. Neru tili bilan aytganda, Hindistonda "yashovchi dinamik hamda ming y.lar davomida keng tarqalgan dindir". B.ning asoschisi hind shahzodasi Sidxartxa Gautama–Buddadir. B.ning asosiy g‘oyasi – boshqa shaklga kirish, xolos bo‘lish va nirvanaga yetishishdir. Nirvana – insonning buyuk ma’naviy holati bo‘lib, haqiqiy bilim bilan ravshanlashadi. B. falsafasi veda matnlari asosida shakllangan. B. ta’limotining asosini uch muhim g‘oya tashkil etadi: 1) zo‘rlik qilmaslik; 2) hayotning har qanday shaklini ezgulik orqali qabul qilish; 3) azob – uqubat manbai – ehtiroslardan xalos bo‘lish.

PANTEIZM - (yunon. ran – hamma, theos – xudo) – tarixan shakllangan falsafiy ta’limot bo‘lib, u xudo bilan tabiat bir–biriga, tamoman, mos bo‘lib tushadi, ular aynan birdir, ularni bir–biriga qarama–qarshi qo‘yish falsafiy tafakkur rivojiga putur yetkazadi, deb da’vo qiladi. Turli tarixiy davrlarda p., mohiyatan bir–biridan farq qiladigan falsafiy sistemalarni, xilma–xil fikr–mulohazalarni o‘zida aks ettirib keldi. Mavjud an’analarga ko‘ra, p. Sharq va G‘arb p.dan iborat. Mas., Abu Nasr Forobiy borliq va uning vujudga kelishi haqidagi ta’limoti panteistik tusga ega. U o‘zining "Savollar mohiyati" asarida quyidagilarni yozadi: "Birinchi vujud o‘z–o‘zini biladi, uning mohiyati, muayyan darajada barcha mavjud narsalarni tashkil qilgani singari, o‘zini bilgan vujud muayyan darajada boshqa narsalarni ham biladi. Chunki mavjud narsalarning har biri o‘z mavjudligini undan oladi.

DETERMINIZM - (lot. *determino* – belgilamoq yoki taqozo etmoq, aloqadorlik) – barcha predmet va hodisalarini qonuniyatlar yordamida sababiy jarayonlarini izohlab beradigan ta’limot. Borliqdagi barcha (moddiy va ruhiy) narsa va hodisalarning bir-biri bilan bog‘liqligi va o‘zaro bir–birini taqozo etishining qonuniyatligi haqidagi ta’limot. D. ta’limotining mazmunini bir hodisa (sabab) boshqa hodisa (oqibatning yoki natijaning) kelib chiqishini zaruriy ravishda belgilashi haqidagi g‘oya tashkil etadi. Narsa va hodisalarning paydo bo‘lishi, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tishi doimiy bo‘lib ular biror sabab orqali amalga oshadi. O‘zaro ta’sir kelib chiqadi. Ushbu o‘zaro ta’sirlar determinatsiyalanish jarayonida

amalga oshadi. Ya’ni narsa va hodisalardagi harakatlarni barchasi bir vaqtni o‘zida amalga oshmaydi. Ulardan ma’lum bir qismlar va hodisalargina yangi narsa va hodisalarni kelib chiqishiga turtki bo‘ladi. Bu ham qonuniyatdir. Determinatsiya ana shu ba’zi qismlar yordamida tubdan yangi qismlarni kelib chiqishini ifodalaydi.

DUALIZM - (lot. duo – ikki) – falsafiy ta’limot. D. monizm, ya’ni yagonalikni e’tirof qiluvchi, plyuralizm (ko‘plikni, turli-tumanlikni e’tirof qiluvchi) ta’limotlarga qarama – qarshi bo‘lib, olamni va inson borlig‘ining negizini ikki mustaqil asosdan iborat, deb ko‘rsatadi. D.ga ikki qarama–qarshi asosning doimiy mavjudligini e’tirof etish, o‘rtasida doimiy kurash mavjudligini, ularning bir-birlarini yo‘q qilishga intilishlarini ham tan olish xosdir. D. unsurlari qadimgi "Avesto"dagi yaxshilik xudosi – Axuramazda va yomonlik xudosi – Axurimanlar kurashida ham namoyon bo‘ladi. Ushbu qarashlar manixiylikda ham mavjud (yorug‘lik va qorong‘ilik to‘qnashuvi, ezgulik va yomonlik).

EGOIZM - (lot. ego – individ «men»i – ichki dunyosini anglatadi) o‘z–o‘zini qadrlash, sevish, shaxsiy «men»i to‘g‘risidagi fikrlariga asoslangan fe’l–atvorni anglatadi. E. avvalo o‘z–o‘zini muhofaza qilishdan iborat tabiiy instinktning namoyon bo‘lishidir. Shu ma’noda, u odob–axloq maromlariga zid emas. Zero, individ o‘zida mavjud bo‘lgan salohiyatni anglashi va uni ro‘yobga chiqarishga intilishi, binobarin, jamoa va jamiyat oldidagi burchini ado etishi, shaxsiy qobiliyatları va iste’dodlarini takomillashtirish uchun o‘z qadr–qimmatini bilishi va uni muhofaza eta olishi uchun «men»iga sodiq qolishi lozim. Biroq, shu asnoda boshqalarning hayoti va qadr–qimmatini nazar–pisand qilmaslik odob–axloq maromlari doirasiga sig‘maydi, binobarin, bunday holatda egoistning «men»i individualizmga aylanib ketadi.

G‘OYA — inson tafakkurida vujudga keladigan, jamiyat va olamlarni maqsad sari yetaklayligan fikr. Unda olamni bilish va amaliy o‘zgartirish maqsadlari. u.targa erishish yo‘llari va vositalari mujassam bo‘lali. Fatsafa tarixida G‘. turli ma’nolarda ko‘llangan. Demokrit atomdarni. Pktyun modliy bo‘lmagan, konkret karsa va hodi-salardan tashqarida bo‘lgan ideat mohiyatni G‘. deb hisoblagan. Forobiy "fozil jamiyat", Navoiy "adolatli jamiyat" G‘.larini ilgari surganlar. 17-18-asrlarda G‘. tushunchasi bilish pazariyasi bilan bog‘lab izohlangan. Shu asosda G‘.larning kelib chiqishi, bilishning

gurli darajalari. shakllari bilan atoqasi. umuman bilish jarayonila tutgan o‘rni masalalari tahlil qilingan. Yangi davrda .Kant G‘.larni aqt tushunchalari sifashda asoslashga harakat qilgan. Fixte fikricha, G‘. "men" ning maqsadidan iborat. Gegel falsafasida G‘. taraqqiyot jarayonini o‘zila to‘la gavlapantiradigan mohpyat sifatida talqin etilgan.

MADANIYAT - jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlarini tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko‘rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi. "M." tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik Madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o‘zbek Madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o‘ziga xos sohalari (mas, mehnat Madaniyati, badiiy Madaniyat, turmush Madaniyati)ni izoxlash uchun qo‘llaniladi. Tor ma’noda “madaniyat” atamasi kishilarning faqat ma’naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatiladi. Madaniyat - arabcha madina (shahar) so‘zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiy turmush; ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar.

MA`NAVIYAT – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Manaviyat atamasining asosida "ma’no" so‘zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘ybasti, ko‘rinishi, kiyinishi, xattiharakati va boshqa kiradi.

MA`RIFAT – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’limtarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmu-asini ham bildiradi. M. ilmu urfon ma’nosida ham ishlatiladi. M. tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. M. ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. M.li kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. M. — bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasvdir. M.ni hayotga singdirish maorif tizimi orkali amalga oshiriladi.

MAFKURA - (arab. — fikrlar majmui) — muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, jamiyat, davlatning manfaatlari, orzulari,

maqsadlari ifodalangan qarashlar va ularni amalga oshirish tizimi. Unda manfaatlari ifodalanayotgan guruh va qatlamlarning o‘tmishi, bugungi kuni va istiqboli o‘z ifodasini topadi. Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Insoniyat tarixida turli-tuman Mafkuralar bo‘lgan. Turli xalqlar va ijtimoiy kuchlarning g‘oyaviy rahnamolari, mutafakkir va arboblari o‘zlarining manfaat va maqsadlaridan kelib chiqib mafkuraviy ta’limot va dasturlar ishlab chiqqanlar. Har qanday Mafkuraviy jamiyatda yangi paydo bo‘lgan ijtimoiysiyoziy kuchlarning talab-ehtiyojlari, maqsadlarini ifoda etuvchi yangi g‘oyaviy tizim si-fatida vujudga keladi va, asosan, qu-yidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi: muayyan g‘oyani odamlarning ongiga va ruhiyatiga singdirish; aholining turli guruhlarini birlashtirish; ko‘zlangan maqsad va niyatlarga erishish uchun odamlarni safarbar etish; ularni ma’naviyruhiy rag‘batlantirish; aholini, ayniqsa, yosh avlodni g‘oyaviy tarbiyalash va mafkuraviy immunitetni shakllantirish; boshqa mafkuraviy va g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilish va shahrik. Mafkura muayyan falsafiy, diniy ta’limotlar asosida yaratiladi, ma’lum ilmiy qarashlar, axloqiy tamoyillarga tayanadi. Mafkura o‘z mohiyati va ta’sir kuchiga ko‘ra, jamiyatni birlashtirishi yoki uni bir-biriga qarama-qarshi taraflarga bo‘lib yuborishi, davlatning jahondagi obro‘ va mavqeini oshirishi yoki tushirishi, xalqlarni yuksaklikka ko‘tarishi yoki tanazzulga du-chor etishi mumkin. Yuksak maqsadlar, bunyodkor g‘oyalarga asoslangan Mafkura ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga turtki bo‘ladi, ma’naviyatni yuksaltiradi, insonlarni ulug‘vor ishlarga safarbar etadi.

MATERIALIZM - materialistik oqimiga mansub fay.lar K.Fogt, R.Moleshott va L.Byuxnerning fal-iy qarashlarini ta’riflash uchun Engels tomonidan kiritilgan tushuncha. G‘arb fal.siga mansub bo‘lgan V.m. oqimi 19-a.ning 1-yarmida tabiiyot ilmi rivojlanib, ulkan yutuqlarga erishilganligi ta’sirida vujudga keldi. Jumladan, energiyaning saqlanish qonuni, CH.Darvinnin evolyusion ta’limotini ijtimoiy hodisalarga tadbiq qilinishi, miya funksiyalarini jadal ravishda tadqiq etilishi kabi tabiiy fanlarning kashfiyot va yutuqlari argument sifatida butun naturfalsafaga, jumladan, nemis klassik fal.siga qarshi yo‘naltiriladi. Ijtimoiy hodisalarni (mas., sinfiy tafovutlarni, xalqlar tarixini o‘ziga xos xususiyatlarini va b.) tahlil qilishda V.m.da biologizm, naturalizm va empirizm nuqtai nazaridan fikr yuritiladi; gnoseologiya masalalarini empirik yo‘l b-n tadqiq

qilish, falni tabiatshunoslikka qarama-qarshi qo'yish kabi urinishlar ham V.m.ga xos ish uslubidir.

MILLIY G'OYA – muayyan millat hayotiga mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmui. U millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtiradi, uning tub manfaatlarini, maqsadlarini ifodalaydi. Milliy g'oya o'z mo'hiyatiga ko'ra, xalq, millat takdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. Mas, o'z davrida (1941—45) fashistlar bosib olgan Fransiyada "Qarshilik ko'rsatish" g'oyasi Moya g'oya darajasiga ko'tarildi va Fransianing ozod etilishi bilan bu g'oya o'z ahamiyatini yo'qotdi. Biror g'oyaning Milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liq. Ana shu 2 negizga tayangan holdagina u millatning qisqa vaqt va uzoq vaqtga erishish lozim bo'lgan maqsad-muddaolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin. Har qanday M.g'.da umuminsoniy moqiyat mavjud bo'ladi. Ammo, aniq bir millat yoki umuman insoniyat uchun ahami-yatli bo'lgan g'oyalar ham bor. Mac, "Milliy yarash" g'oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy maz-munga ega bo'lsa, "Manfaatli hamkorlik" g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos o'q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal etadi. Bunga esa Milliy g'oya orqali erishiladi. Milliy g'oya muayyan darajada insoniyat taqdiriga ta'sir qiladi. Milliy g'oyaning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlar qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda ahamiyati katta. Milliy g'oya vositasida el-yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi.

KOMPETENTLIK – shaxsning muayyan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma, malakalari shakllangan shaxsiy sifatlarining mehnat faoliyatida qo'llay olishidir. Kompetentsiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta'minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o'z malakasini amalda qo'llash qobiliyatidir. Kompetentsiyalar keng ma'noda qobiliyat, ko'nima, imkoniyat, malaka va tushunishni anglatadi.

Kompetenli shaxs - bu ma'lum bir sohada yetarli mahorat, bilim va imkoniyatlarga ega bo'lgan inson.

PEDAGOGIKA - atamasi qadimiy bo'lib, „bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiruvchi grekcha „paydogogos“ so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyyot qilgan, harbiy mahoratni o'rgatgan tarbiyachini, ya'ni qullarni „pedagog“ (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

TA`LIM – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta`lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta`lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish. va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi. Ta`limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiylar ma'lumotga bo'lgan a`lim ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, Ta`lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta`limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib brogan.

TARBIYA - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yigindisi. T. insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. T.siz alohida odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar T. tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. O‘RQ-637-son. 2020. 23 sentyabr.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni. 2017. 5 iyul.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son Qarori. 2017. 20 aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida” PQ-3160-son Qarori. 2017. 28 iyul.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775-son Qarori. 2018. 5- iyun.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim –tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3907-son Qarori. 2018. 14- avgust.
8. “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 736-son Qarori. 2018. 17 sentyabr.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasi. 2018. 28 dekabr.
10. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma`naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida” 1059-son Qarori. 2019. 31 dekabr.
11. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo`llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida”gi PQ 4602-son Qarori. 2020 yil 18 fevral.
12. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta`lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini

rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi PF-6108-sonli Farmoni. 2020 yil 6 noyabr.

13 O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab quvvatlash hamda uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-sonli Qarori. 2021 yil 25 yanvar.

14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma`naviy-ma`rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-5040-sonli Qarori. 2021 yil 26 mart.

15. Mirziyoev. SH.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent, “O‘zbekiston” 2017.-448 bet.

16. Mirziyoev. SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T., “O‘zbekiston”, 2017. -378 bet.

17. Karimov I. A. «Jamiyatimiz milliy g‘oyasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin» T.: «O‘zbekiston», 1998.

18. Karimov I.A. «Milliy g‘oya xalq e’tiqodi va buyuk kelajagiga ishonchdir» T.: «O‘zbekiston», 2000.

19. Karimov. I.A “Yuksak ma’naviyat –engilmas kuch” T.;“Ma’naviyat”-2008. -281bet.

20. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. – T.: O‘zbekiston, 2015 yil.

Asosiy adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobi. “Fozil odamlar shahri” - T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2016 .-159 bet.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: “YOshlar nashriyot uyi”, 2018. - 97 bet.

3. Abdulla SHer. “Axloqshunoslik” T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2010 . -365 bet.

4. Agzamxodjaeva S.S. Ijtimoiy ideal va ma’naviy hayat. - T.: “Falsafa va huquq” instituti nashriyoti, 2007. -229 bet.

5. Begmatov A. Tarbiya jarayoni va pedagogik diagnostika. // ”Xalq ta’limi” jurnali, 2007. 5-sont. -25 bet.

6. Begmatov A. O‘zbekiston xalqi ma’naviyati. (O‘quv qo‘llanma). T.: 1995y. 104 bet.

7. “Buyuk yurt allomalari” T.; “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016y.- 582 bet.

8. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni.-T.: Ma’naviyat, 1997 yil
9. Jo‘raev N. G‘oyaviy immunitet yoki ma’naviy xaloskorlik tuyg‘usi.-T.: “O‘zbekiston”, 2001.-64 bet.
10. Ziyomuhhammadov B. va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. (Darslik). – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000. -192 bet.
11. Ziyomuhhammadov B., Abdullaeva SH. Pedagogika. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2000y. -127 bet.
12. Ziyomuhhammadov B. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2006. – 112 bet.
13. Ibragimov.X., Abdullaeva.SH. “Pedagogika nazariyasi”(darslik).T.; “Fan va texnologiya”.2008.- 285 bet.
14. Imomnazarov M. Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari.-T.: Sharq, 1996 yil.
15. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari : O‘quv qo‘llanma. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 448 bet.
16. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma’naviyat. – T.: “SHarq”, 2000. -112 bet.
17. Ismoilova Z.K. Milliy g‘oya va ma’naviy-axloqiy tarbiya. (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). - T.: “Moliya”, 2007. – 72 bet.
18. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi.- T.: O‘zbekiston, 2001.-47 bet.
19. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T.; “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi”. 2013 . -387 bet.
20. Mahkamov U. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. - T.: “Fan”, 1995. – 200 bet.
21. Mamurov B.B., Davronov I.E.. Pedagogik kompetentlik. Darslik. B.: “Durdona” nashriyoti. 2021-yil.
22. Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar.(darslik) T.: «Akademiya», 2005 yil.
23. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish.-T.: “Fan”, 1993. – 112 bet.
24. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar — sog‘lom avlodni tarbiyalash vositasi. - T., 1995. – 132 bet.
25. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi.-T.: “Istiqlol”,2003.-224 bet.

26. Olimov SH. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarbiya jarayonining qonuniyatlarini hisobga olish. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2007. 2-son. – 19-22-betlar.
27. "Oliy ta'lim muassasalari ma'naviy – ma'rifiy ishlar tizimining ijtimoiy – pedagogik asoslari". (ilmiy-amaliy anjuman materiallari) T.; "Sano-standart", 2012 . -156 bet.
28. Omarova G.S. "O'rta maxsus ta`lim tizimida "Huquqshunoslik" fanini o`qitishda yangicha yondashuv" // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2021. 5-son. – 534-539-betlar.
29. Otamurodov S., Husanov S., Ramatov J. Ma'naviyat asoslari. – T.: Abdulla Avloniy, 2002 yil.
30. Ochilov M. YAngi pedagogik texnologiyalar. (O'quv qo'llanma). Qarshi, "Nasaf", 2000. – 80 b.
31. Rustamova R.SH. Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishda madaniy-ma'rifiy va ta'lim muassasalarining hamkorligi. // "Xalq ta'limi" jurnali.- Toshkent, 2002. 5-son. – 43bet.
32. Rustamova R.SH. Talaba-yoshlarni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni va roli. // "Yoshlarda ijtimoiy tolerantlikni yuksaltirish masalalari" Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. II kitob. - Toshkent, 2006. – 43bet.
33. Rustamova R.SH., Begmatov A.S. Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar. Risola. -T.: "Ma'naviyat", 2007. - 64 bet.
34. Samadova.S.S. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari. (o'quv-uslubiy qo'llanma). "Durdona", 2020. -96 bet.
35. Sharifxo'jayev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari. – T.: Toshkent moliya instituti, 2005 yil.
36. Tojiboyeva D., Yo'ldoshev A.M axsus fanlami o'qitish metodikasi.
Darslik. -T.: "Aloqachi", 2009.
37. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g'oya turkumiga kiruvchi fanlarni o`qitishda interfaol ta`lim metodlaridan foydalanish bo`yicha uslubiy tavsiyalar. - T.: RTM, 2017.
38. Umarov A. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. - T.: "YAngi asr avlodi", 2001. - 39 bet.

39. G‘ayullaev N.R., Yodgorov R., Mamatqulova R. Pedagogika. Oliy o‘quv yurtlari uchun qo‘llanma. -T., 2005. - 176 bet.
40. G`afurov Z., Toshev S. Ma’naviyat saboqlari. - Qarshi, Nasaf. 1999.-160 bet.
41. Yarloqabov U. Oliy o‘quv yurtlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya majmuasi// ”Xalq ta’limi” jurnali, 2007, 2-son. – 44 bet.
42. Xolbekov A. va boshq. O‘quv jarayoniga interaktiv usullarni tatbiq etish bo‘yicha qo‘llanma. – T.: “Akademiya”, 2007. – 36 bet.
43. Xoliqov E,Siddiqov B,Rustamov M,Mirzaev A. «Qalban ulg‘ayish davri» T; «Extremum press» 2011. -87 bet.
44. Xoliqov I., Sobirova M., Masharipova G. “Ma`naviyat asoslari” fanini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidao`qitish. - T.-TDPU, 2013.
45. Hasanboev J., Sariboev H., Hasanboeva O., Niyozov G., Usmonova M. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan”, 2006. - 225 bet.
46. Haydarov K, Irgasheva M, .Ziyoev S, Yo‘ldosheva S. “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”.Samarqand,“Zarafshon”, 2006. -156 bet.

Elektron ta’lim resurslari:

1. www. tdpuz.uz
2. www. Ziyonet.uz
3. www. edu.uz
4. www. ma’naviyat.uz
5. www. google.uz

SAMADOVA SARVINOZ SAMAD QIZI

MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI

(o’quv qo’llanma)

| | |
|-------------------------|----------------------|
| <i>Muharrir:</i> | <i>A. Qalandarov</i> |
| <i>Texnik muharrir:</i> | <i>G. Samiyeva</i> |
| <i>Musahhih:</i> | <i>Sh. Qahhorov</i> |
| <i>Sahifalovchi:</i> | <i>M. Bafoyeva</i> |

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 11.06.2022. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma qog’ozni. Bosma tobog’i 10,7. Adadi 100. Buyurtma №282.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45